Тирик хужайрани кимёвий таркиби; биокимёвий реакцияларни хужайра ҳаётини хусусиятларидаги ўрни; оксиллар: структураси, функциялари, физик – кимёвий хусусиятлари, классификацияси, оксил алмашинуви ва унинг аҳамияти; ферментлар: ферментатив катализ; ферментлар кимёвий тузилиши ва хусусиятлари; ферментлар классификацияси; изоферментлар, коферментлар; полиферментлар; нуклеин кислоталар алмашинуви; оксил биосинтези; углеводлар: классификацияси, номенклатураси; биосинтези ва алмашинуви; углевод алмашинувини энергетик таснифи; биоэнергетика: липидлар: классификацияси, структураси, функцияси; ёғ кислоталар; ёғлар биосинтези ва парчаланиши; витаминлар; модда алмашинувида витаминларни биологик ўрни; классификацияси; модда алмашинувини бошқариш асослари; гармонлар; тузилиши, физиологик роли; гормонларни таъсир механизми; регулятор реакцияларда циклик нуклеотидларни функцияси.

Оксил ва нуклеин кислоталарнинг тузилиши ва хоссалари. Биологик материалларда оксил ва нуклеин кислоталарни миқдорий ва сифат жиҳатдан ажратиш усуллари. Тирик организмларда генетик ахборотнинг берилиш йўллари. Репликация, транскрипция ва трансляциянинг молекуляр механизмлари ва уларда ферментларнинг ўрни. Трансляция жараёнининг хужайрадаги ўрни, аминокислоталарнинг бириктириш, рибосомалар, инициация комплексини ҳосил бўлиши, Генетик код ва унинг хоссалари, ген муҳандислигининг асослари. Молекуляр касалликлар ва уларни даволаш усуллари.

6.5.3.5. Гистология ва индивидуал ривожланиш биологияси асослари

Тўқималар ҳақида таълимот: тўқималар классификацияси, эволюцияси; эпителий тўқима ва унинг турлари; безли эпителий: турлари, секреция; қон ва лимфа; микроскопик тузилиши; шаклий элементлар; турлари; қон гистогенези; қон ҳосил бўлиши; лимфа ва хужайра элементлари; бириктирувчи тўқималарнинг шаклланиши ва регенерацияси; тоғайли тўқималар: тузилиши, турлари, гистогенез, регенерация; суяк тўқимаси турлари, кимёвий таркиби ва микроскопик тузилиши; остеон; остеокластлар ва остеобластлар;

гаверс тизимлари ривожланиши; регенерация; суяк пардаси; мускул тўқималари; турлари; силлиқ мускул тўқималари; кўндаланг – таргил мускул тўқималари; миофибрилла ва протофибрилла; оптик ва кимёвий хусусиятлари; гистогенез ва регенерация; юрак – мускул тўқимаси; мускуллардаги бириктирувчи тўқима; пайлар ва мускулларнинг бирикиши; нерв тўқималари; нейронлар тузилиши ва турлари; дендрит ва нейритлар; тигроид модда, кимёвий таркиби; тузилиши ва функцияси; нейрофибриллалар, нерв тўқимаси гистогенези; нерв толалари; дегенерация ва регенерация.

Индивидуал ривожланиш биологияси. Онтогенез даврлари; постэмбрионал ривожланиш; организмларнинг қариши. Мюллер – Геккелнинг биогенетик қонуни; эмбриология тарихи ва асосчилари; тадқиқот усуллари; жинсий ва соматик хужайралар; тухум хужайра: тузилиши, хусусиятлари, функционал аҳамияти, турлари; сперматозоид: тузилиши, хусусиятлари; тухумдон ва уруғдон; оогенез ва сперматогенез; уруғланиш. Партеногенез: табиий ва сунъий; тухум хужайранинг бўлиниши, турлари, бластула ва унинг турли хил тузилиши; сут эмизувчиларда бластоцистанинг ҳосил бўлиши; гастрүляция; икки ва уч қатламли муртакнинг ҳосил бўлиши: эктодерма, энтодерма, мезодерма; хайвонларда гастрүляция турлари; муртак қатламлари назарияси ва ҳозирги ҳолати; нейрүляция, нерв найини ҳосил бўлиши ва детерминацияси; цитодефферцияланиш: қон айланиш тизимининг ривожланиши; жинсий – таносил тизимининг ривожланиши, оёқ-қўлларнинг ривожланиши; муртакнинг она организми ва муҳит билан муносабати.

6.5.3.6. Одам анатомияси

Одам танаси тузилиши; скелет: бирикишлар, таянч ва ҳаракат, химоя, суяк шакллари, суяк хусусиятлари, суяк тўқимаси, скелет онтогенези, ўсиши, суяклашув, бўғинлар ва уларнинг классификацияси; мускуллар: мускул тўқима, мускулларни танада жойлашуви, шакллари; иш фаолияти.

Овқат ҳазм қилиш ва нафас олиш тизими; оғиз бўшлиғи; сўлак безлари; тил; танглай; халқум, қизилўнғач; ошқозон; ичак ва унинг бўлимлари; жигар: тузилиши ва функцияси; ошқозон ости бези; қорин бўшлиғи; нафас олиш тизими: бурун бўшлиғи, хиқилдоқ, трахея ва бронхлар, ўпка, плевра, алвиелалар.

Сийдик – таносил тизим: буйрак тузилиши, сийдик йўли, сийдик пуфаги, эркак ва аёл жинсий безлари тузилиши.

Эндокрин тизим: қалқонсимон без; гипофиз, эпифиз, буйрак усти безлари, ошқозон ости безининг инсуляр қисми, одамнинг томир тизими, қон ва лимфа, юракнинг тузилиши, артерия, вена ва капиллярлар тузилиши. Нерв системаси. Бош ва орқа миyanинг тузилиши. Периферик нерв тизими.

6.5.3.7. Одам ва хайвонлар физиологияси

Физиология фанининг предмети, мақсади, тадқиқот методлари ва ривожланиш тарихи. Тўқималар физиологияси; мускул тўқимасини умумий физиологияси; кўндаланг-таргил мускуллар; холико-рецептор ва унинг ион канали; силлиқ мускуллар; нерв тизимининг умумий ва хусусий физиологияси; сенсор тизимлар физиологияси; эндокрин тизим; қон, тўқима суюқлиги, лимфа; юрак-томир тизими; нафас олиш тизими физиологияси; овқат ҳазм қилиш физиологияси, айирув органлари физиологияси; модда ва энергия алмашинуви; олий нерв фаолияти физиологияси; репродуктив тизим физиологияси.

6.5.3.8. Ўсимликлар экофизиологияси

Ўсимликлар экофизиологияси фанининг предмети, ўсимликлар экофизиологияси фанининг ривожланиши, объектлари ва биологиясининг умумий ривожланиши ва амалиёти билан боғлиқлиги. Ўсимликлар экофизиологиясининг янги соҳалари учун назарий асослар. Ўсимликлар ҳосилдорлигининг физиологик асослари.

Ҳозирги замон экофизиологиясининг қишлоқ хўжалиги, табиатни муҳофаза қилишга доир масалаларни ечишдаги роли. Ўсимлик хужайрасининг экофизиологияси. Биоэнергетиканинг асосий тушунчалари, фотосинтез, фотосинтез экологияси, бундан ташқи шароит ва организм ҳолатига боғлиқлиги, ҳарорат, ёритиш шароити, карбонат ангидрид, минерал озикланиши ва сув билан таъминланишининг фотосинтезга таъсири фотосинтез жараёнларининг суткалик ва мавсумий маромлар. Фотосинтез омиллар комплексининг таъсири. Турли экологик гуруҳга мансуб ўсимликлар фотосинтезининг хусусиятлари.

6.5.3.9. Микробиология ва вирусология асослари

Прокариотлар морфологияси ва тузилиши; бактериялар; прокариотлар хужайраси тузилиши; хужайра девори, цитоплазматик мембрана, ядро, киритмалар; кўпайиши ва ўсиши; микроорганизмлар ва уларнинг классификацияси; прокариот ва эукариотлар; прокариотлар дунёси таснифи; микроорганизмлар метаболизми; катоболик ва анаоболик жараёнлар; аэроб нафас олиш: бижғиш: турлари; анаэроб нафас олиш; микроорганизмлар ва атроф-муҳит; ташқи муҳит омиллар таъсири; ирсийланиш ва ўзгарувчанлик; бактериялар генотиби, фенотиби ва ўзгарувчанлиги; прокариотларда рекомбинация турлари: трансформация, трансдукция, конъюгация; плазмидалар; микроорганизмларни биосферада тарқалиши; биокимёвий фаолияти; моддалар айланиш жараёнида микроорганизмларни ўрни; аммонификация, нитрофикация, азотофиксация. денитрификация;

Вируслар: систематикаси; криптограмма ҳақида тушунча; таёқчасимон ва шарсимон вируслар; оддий ва мураккаб вируслар; вирус ва хужайрани ўзаро таъсирланиши; вирусларнинг кўпайиши; вирусларнинг РНК ва ДНК бирикмалари, оксиллар синтези, вируслар диагностикаси.

6.5.3.10. Эволюция назарияси

Эволюция назарияси фанининг мазмуни ва асосий тушунчалари. Эволюцион жараёни тадқиқ қилишнинг асосий усуллари: палеонтологик, морфологик, эмбриологик, экологик, генетик, биокимёвий ва

молекуляр биологик. Эволюцион таълимотнинг асосий муаммолари. Эволюцион таълимотнинг назарий ва амалий аҳамияти.

Қадимги дунёдаги табиатни ривожланиши ҳақидаги ғоялар; ўрта асрлар ва уйғониш давридаги табиатшунослик; Марказий Осиёда табиатшунослик, эволюцион қарашларни XVIII-XX асрларда ривожланиши; Ж.Б.Ламаркнинг эволюцион концепцияси; Ч.Дарвиннинг эволюцион назарияси; эволюциянинг синтетик назариясини шаклланиши; дарвинизм ва антидарвинизм; жонлиликнинг асосий хусусиятлари; ерда ҳаётни пайдо бўлиши гипотезалари; ўсимлик ва ҳайвонлар эволюциясининг асосий босқичлари; ўзгарувчанлик ва унинг турлари; мутациялар; мутацион жараён; популяция тўлқинлари ва изоляция; табиий танланиш ва унинг асосий шакллари; адаптация; классификациялари; тур тушунчаси, критерийси, турларнинг пайдо бўлиши; макроэволюция тушунчаси; онтогенез эволюцияси; филогенетик гуруҳларда эволюция; қонунлари; органлар эволюцияси; эволюцион прогресс; антропогенез; Ното авлодининг эволюция босқичлари; онгли одам эволюцияси; одамнинг келажак эволюцияси; экотизмалар эволюцияси; эволюцион таълимот аҳамияти.

6.5.3.11. Ҳаёт фаолияти ҳавфсизлиги

Ҳаёт фаолияти ҳавфсизлигининг назарий асослари. Ҳаёт фаолиятининг асосий шакллари. Одамзодни атроф муҳит билан ўзаро таъсири.

Инсон ва яшаш муҳити: меҳнат физиологияси асослари ва ҳаёт фаолиятининг оптимал шароитлари, антропоген омиллар манбалари, саноат муҳити микроклимати параметрлари, ҳавонинг ифлосланиш манбалари, электромагнит майдонлар ва нурланишлар, электр токи таъсири;

ҳавфсизлик: ҳавфсизлик ва техник тизимларнинг экологиклиги, фавқулотда вазиятлардаги ҳавфсизлик, ҳаёт фаолияти ҳавфсизлигини бошқариш, электр ҳавфсизлиги асослари, саноат санитарияси, ёнғин ҳавфсизлиги.

6.5.3.12. Биотехнология асослари

Биотехнология фанининг мазмуни, тадқиқот усуллари, ривожланиш тарихи. Ген муҳандислиги; мақсад ва вазифалари; янги генларни конструкциялаш ва янги оксиллар олиш; бегона генлар киритиш ва уларнинг махсулотларини олиш; микроорганизмларни янги штаммларини яратиш, генларни ажратиш ва мутациялар ҳосил қилиш, алоҳида генлар функциясини жадаллаштириш ва ўзгартириш;

Хужайра муҳандислиги: биотехнологик жараёнлар; хом-ашё танлаш ва тайёрлаш; хужайраларни ўстириш; ҳаёт фаолиятлари махсулотлари ажратиш, тозалаш ва модификациялаш; хужайра ва ферментларни иммобилизациялаш;

Муҳандислик энзимологияси: ферментлар таъсирида борадиган биотехнологик жараёнлар; ферментларни иммобилизацияси ва стабилизацияси; полифермент тизимлар; каталитик фаол материаллар, уларни олиш ва тиббиётда, саноатда, формация ва бошқа соҳаларда қўллаш;

Экобиотехнология: атроф-муҳитни ҳимоя қилишда биотехнологик жараёнлардан фойдаланиш; оқава сувларни тозалаш; қаттиқ чиқиндиларни қайта ишлаш; қишлоқ хўжалик, тоғ-кон саноати чиқиндиларини қайта ишлаш; ўғит ва пестицидларни биотехнологик усуллар билан олиш.

6.5.3.13. Биофизика

Биофизика фанининг предмети, аҳамияти, мақсад ва вазифалари. Фаннинг тадқиқот умсуллари ва ўрганиш тарихи. Биологик жараёнлар кинетикаси ва термодинамикаси; биологик тизимларни турли даражаларини математик моделлаш; очиқ тизимларни стационар ҳолати, турғунлик шартлари; оддий ферментатив реакциялар кинетикаси; статик, чизикли, чизиксиз термодинамика асослари; очиқ тизим ва унинг энтропияси; эркин энергия ва биокимёвий реакциялар боғланиши; макромолекулалар структура ва функциясининг биофизик асослари; квант биофизикаси элементлари; биологик структураларда энергия миграцияси; эркин радикаллар ва эркин радикал жараёнлар; мембрана ва мембран жараёнлар биофизикаси; моддаларни биологик мембраналардан пассив ва фаол ташилиши; биоэлетрогенез; тинчлик потенциали ва ҳаракат потенциали ҳосил бўлиш механизмлари; ҳаракат потенциалини тарқалиши; хужайра ва тўқималарни электр ўтказувчанлиги; биоэнергетика асослари; биотизимларда энергиянинг трансформацияси ва миграциясини молекуляр механизмлари; кискарувчи, рецептор ва фотобиологик жараёнларни биофизик асослари.

6.5.3.14. Атроф-муҳит кимёси

«Атроф муҳит кимёси» фанининг моҳияти, аҳамияти, мақсад ва вазифалари. Фаннинг ўрганилиш тарихи ва бошқа фанлар билан боғлиқлиги, Атроф-муҳит тўғрисидаги тушунча. Кимёвий элементлар ҳақида тушунча. Кимёвий элементларнинг эволюцияси. Қуеш тизими эволюцияси. Ернинг эволюцияси. Литосфера кимёси. Ер қобиғи тузилиши. Литосферанинг кимёвий таркиби. Литосфера эволюцияси. Гидросфера кимёси. Гидросферанинг кимёвий таркиби. Гидросфера эволюцияси. Сувнинг инсон ҳаётидаги роли. Чучук сув манбалари. Атмосфера кимёси. Атмосферанинг кимёвий таркиби ва тузилиши. Атмосферадаги кимёвий реакциялар ва унинг ҳимоя функцияси. Атмосфера эволюцияси. Биосфера – ернинг ҳаёт қобиғи. Биосферанинг кимёвий таркиби ва тузилиши. В.И. Вернадскийнинг биосфера ҳақидаги таълимоти. Биокимё эволюцияси концепциясини баҳолаш. Атроф муҳитдаги инсон биогеокимёси. Ноосфера концепцияси. Биогеокимё цикллари. Биогеокимё цикллари эволюцияси. Ҳаётнинг келиб чиқиши.

6.5.3.15. Аквакультура

Гидробионтларнинг экологик, биологик, физиологик, генетик хусусиятлари қонуниятларини ўрганиш; уларни сунъий ва табиий шароитларда қўпайтириш методларини ишлаб чиқиш; сув ҳайвонларини

кўпайиш ҳажмини шаклланиши ва уни аниқлаш, ўтлоқларда аквабионтларни ўстириш, кам маблағ сарфлаб максимал сифатли маҳсулот олиш методлари.

Денгиз, шўр ва чучук сув ҳайвонларини ўтувчи ва ярим ўтувчи шакларининг потенциал генератив хусусиятларини ўрганиш; сув ҳавзаларининг биологик захираларидан тежамли фойдаланиш. Сув экологик тизимининг саноатбоп ва озукабоп фауна ва флораси.

6.5.3.16. Минтакалар экологияси

Экологик омиллар таъсирида ер юзида турли минтакаларни келиб чиқиши, турли биомлар.

Горизонтал минтакалар: арктик тундра, тундра, ўрмон тундра, ўрмон-тайга зонаси, ўрмон дашт, дашт, чала чўл ва чўл зоналари.

Минтакаларнинг ўзига хос иқлим шароити, ундаги ўсимлик ва ҳайвонлари. Организмларнинг мослашуви.

6.5.3.17. Экология концепцияси ва тарихи

Экологиянинг предмети, структураси ва бошқа фанлар билан боғлиқлиги. Экологиянинг асосий методлари. Экологиянинг ривожланиш тарихини ўрганиш (Аристотел, Теофраст Эрезиялик, Абу Али Ибн Сино, З.М. Бобур, А.Цезальпин, Д.Рей, Ж.Турнефор, П.Паллас, Ж.Бюффон, Ж.Б.Ламарк, А.Гумбольдт, К.Рулье, Ч.Дарвин, Д.Аллен, В.И.Вернадский, В.Н.Сукачев, В.Шелфорд, А.Тенсли, Ч.Элтон, Ю.Одум); Кашкаров – Коровин Урта Осиё экологик – географик илмий мактабининг экология тарихидаги аҳамияти.

-организмларнинг яшаш муҳитини ўрганиш ва унинг концепцияси;

-организмларнинг ўзгарувчан атроф муҳитга адаптация принципларини ўрганиш ва унинг концепцияси;

-экологик омилларнинг организмга таъсирини ўрганиш ва унинг концепцияси;

-популяция тузилиши, ривожланиши, кўрсаткичларини ўрганиш ва унинг концепцияси;

-биоценоз ва биота хусусиятларини ўрганиш ва унинг концепцияси;

-экотизим тузилиши, ривожланиши, маҳсулдориғини ўрганиш ва унинг концепцияси;

-биосфера эволюцияси ва ҳозирги ҳолатини ўрганиш ва унинг концепцияси.

6.5.3.18. Геоэкология

Геоэкология предмети ва вазифалари; Ернинг қуёш системаси, Коинотда тутган ўрни. Коинот, қуёш системаси ва Ер сайёраси эволюцияси. Ер геосфералари; географик қобик, унинг таркиби, тузилиши ва ўзаро алоқадорликлари; Глобал, регионал ва маҳаллий геоэкологик муаммолар; геосистема ва экосистема, ўхшашлиги ва фарқлари; табиий ва табиий-техноген геосистемалар, геоэкологик тадқиқот услуги; табиий ва табиий-техноген ландшафтлар; ландшафт диагностикаси;

- Орол муаммоси, воҳаларнинг мелиоратив аҳволининг ёмонлашаётгани, текислик, яйловларда чўлланишнинг хуружи, тоғ этаклари ва ён бағирларида яйловлар маҳсулдорлигининг пасайиб бораётганлиги ва бошқа экологик муаммолар атроф муҳит омиллари таъсирига организмларнинг (популяциялар) мосланиши.

6.5.3.19. Гидроэкология

Гидроэкология фанининг ўрганиш объекти, мазмуни ва моҳияти, ўрганилиш тарихи, мақсад ва вазифалари, аҳамияти. Сув объектлари тўғрисида тушунча. Гидроэкологик режим ва жараёнлар. Кўлларнинг физик-географик хусусиятлари, сув ва иссиқлик режими, минералланиш хусусиятлари, муҳофаза қилиш чоралари. Дарёлар, сув омборлари, ботқоқликларнинг гидроэкологик хусусиятлари.

Алоҳида сув объектларининг гидроэкологик хусусиятлари, уларнинг географик тарқалиши ва муҳофаза қилиш чоралари.

Гидробионтларнинг экологик гуруҳлари, улардан фойдаланиш усуллари ва муҳофаза қилиш чоралари.

Ичимлик сув ресурсларининг етишмаслик сабаблари ва уларни ифлослантирувчи манбалар. Муҳофаза қилиш чоралари.

6.5.3.20. Гидробиология

Гидробиология сувдаги ҳаёт тўғрисидаги фан, унинг мақсади ва вазифалари, гидробиологиянинг ривожланиш этаплари, унда рус олимлари К.М.Бэр, И.Л.Данилевский, О.А.Гримм, Н.М.Книпович, К.М.Дерюгин, С.А. Зернов, В.И.Жадин, Г.Г.Винбергларнинг турли денгизлар ва ички сувларда ўтказилган тадқиқот натижалари, Марказий Осиёда ва хусусан Ўзбекистонда А.М.Музаффаров (сув ўсимликлари), А.М. Мухаммадиев (қисқичбақалар), З.Иззатуллаев (сув моллюскалари) А.Эргашев (сув ўтлари), А.А.Амонов ва Ғ.К.Комиловларнинг (балиқлар) ва В.Ф.Гурвичнинг (гидробионтлар) тадқиқотлари хусусида тушунчалар. Гидробиология фанининг мақсади, вазифалари, ривожланиш тарихи ва бошқа фанлар билан алоқаси. Гидробионтларнинг яшаш шароити. Ернинг сув қобиғи. Популяция. Биоценоз, Экотизимлар. Сув мавжудотларининг сув ҳавзаларига мослашуви. Планктон, нейстон, нектон организмлар, бентос организмлар. Сув ҳавзаларидаги ҳаёт, экологик омиллар ва гидробионтларнинг ўзаро муносабати. Гидробионтлар ва сувда эрийдиган тузлар, муаллақ моддалар, кислота етишмаслига мослашиш. Хароратнинг гидробионтлар ҳаётида аҳамияти. Гидробионтлар ҳаётига рН ва нурларнинг таъсири. Гидробионтлар комплекс муҳит омилларининг таъсири ва сув ҳавзаларининг биологик маҳсулдорлиги.

6.5.3.21. Популяциялар экологияси

Экологияда популяция тушунчаси. Популяциянинг статик кўрсаткичлари. Популяциянинг умумий сони ва зичлиги, биологик (ёш ва жинсий) тузилиши. Особь ва популяцияларнинг фазо бўйича тарқалиши.

Хайвонлар популяциясининг этологик тузилиши. Популяциянинг асосий динамик таъриф, тугилиш, нобуд булиш. Популяциянинг узиши, узиш темпи. Популяциянинг доимийлиги, гомеостаз.

6.5.4. Ихтисослик фанлари

6.5.4.1. Саноат ва шаҳар экологияси

Саноат ва шаҳар экологияси ўқув курсининг мақсад ва вазифалари. Саноат экологияси. Саноат экологияси тушунчаси, таснифланиши ва ўзига хос хусусиятлари. Саноат зоналарини экологик вазиятини яхшилаш. Саноатлашув ва унинг экологик оқибатлари. Саноат чиқиндилари ва уларни қайта ишлаш. Саноат ва шаҳар экологияси. Шаҳар ва саноат зоналарини кўкаламзорлаштириш. Техноген ландшафтларни оптимизациялаш. Саноат корхоналари чиқиндиларининг рухсат этилган меъёрий кўрсаткичлари.

Саноат корхоналарида ишлаб чиқаришни, қишлоқ хўжалигида ва энергетика соҳасини экологиялаштириш зарурияти, иқтисодий экологиялаштириш орқали экологик зиддият, инқирозларни бартараф этиш, саноат корхоналарида кам чиқиндили ва табиий ресурсларнинг тежамкорлигини таъминлайдиган технологияларни ривожлантириш; Саноат корхоналарида хом-ашёлардан фойдаланишнинг комплекс режасини шакллантириш ва уларни бошқариш;

Шаҳар экологияси. Шаҳар тушунчаси, таснифланиши ва ўзига хос хусусиятлари. Шаҳарсозликда экологик талаблар. Шаҳарларни турли экологик зоналарга ажратиш. Урбанизация жараёни ва унинг оқибатлари. Шаҳарларни ривожлантиришнинг экологик жиҳатлари. Шаҳарлар атмосфераси, суви, тупроқларининг ифлосланиши ва уларни муҳофаза қилиш чора-тадбирлари. Атмосфера хавосининг ифлосланиши ва муҳофазаси. Шовқин. Шаҳар тупроқларининг ифлосланиши ва уларни муҳофаза этиш. Сув муаммолари ва улардан оқилона фойдаланиш. Маиший чиқиндилар ва уларни утилизация қилиш. Шаҳарда экологик муносабатларни тартибга солиш.

6.5.4.2. Экологик лойиҳалаш ва экологик экспертиза

«Экологик лойиҳалаш ва экологик экспертиза» фанининг табиатни асраш, уни муҳофаза қилиш ва барқарор ривожланишдаги ўрни ва роли; Экологик лойиҳалаш ва экологик экспертиза фанининг мақсади ва вазифалари, ривожланиш тарихи. Экологик экспертизанинг асосий принциплари, ошкоралиги, мустақиллиги. Экологик экспертиза буюртмачисининг ҳуқуқлари, мажбуриятлари. Экологик экспертизани молиялаш. Давлат экологик экспертиза объектлари. Давлат экологик экспертизаси соҳасидаги махсус ваколатли давлат органи, давлат экологик экспертизасини ўтказишнинг мажбурийлиги, қўйиладиган талаблар, экспертизани ўтказишда тақдим этиладиган материаллар. Экологик экспертиза ва экологик лойиҳалаш ўтказиш муддатлари. Экологик лойиҳалаш ва экологик экспертиза ҳулосалари, экспертиза ҳулосасининг ижро этишнинг мажбурийлиги. Жамият ва табиат ўзаро алоқаларининг асосий қонуниятлари, табиатдан фойдаланишнинг иқтисодий самарадорлигини, атроф муҳитга экологик таъсир ва етказилган зарарни баҳолаш мезонлари; Табиий ресурслар имконияти ва улардан мақсадга мувофиқ фойдаланиш

6.5.4.3. Атроф-муҳит сифат анализи ва мониторинги

«Атроф-муҳит сифат анализи ва мониторинги» фанининг моҳияти, аҳамияти, мақсад ва вазифалари. Фанининг ўрагини тарихи ва бошқа фанлар билан боғлиқлиги, атроф-муҳитни сифат анализининг моҳияти. Атроф-муҳитни мониторинглаш тўғрисидаги тушунча, атроф-муҳитни ифлослантирувчи манбалар. Атмосфера хавосининг ифлосланиши. Сув ресурслари ва юза сув хавзаларини ифлосланиши, тупроқни ифлослантирувчи манбалар. Зарарли моддалар рухсат этилган миқдори (РЭМ) тўғрисида тушунча. РЭМ ни аниқлаш усуллари. Тирик организмлар тўқималардаги захарли моддаларни аниқлаш. Қишлоқ хўжалигида қўлланиладиган захарли моддалар мониторинги. Радиоактив моддалар мониторинги.

6.5.4.4. Корхоналарнинг атроф-муҳитга таъсирини баҳолаш

«Корхоналарнинг атроф-муҳитга таъсирини баҳолаш» фанининг мақсад ва вазифалари. Фанининг ўрганилиш тарихи унинг табиатни муҳофаза қилиш ва барқарор ривожланишдаги ўрни ва роли. Саноат корхоналарининг турлари. Саноат корхоналаридан чиқадиган чиқиндилар турлари. Саноат корхоналарининг атроф-муҳитга таъсири. Корхоналарнинг атроф-муҳитга таъсирини баҳолаш мезонлари ва принциплари. Саноат корхоналарининг атроф-муҳитга таъсирини камайтириш йўллари. Чиқиндиларни зарарсизлантириш усуллари.

Кам чиқиндили ва табиий ресурсларнинг тежамкорлигини таъминлайдиган технологияларни ривожлантириш. Табиатдан фойдаланишнинг комплекс режасини шакллантириш ва бошқариш.

6.5.4.5. Биология ва экология фанларини ўқитиш услубияти

Ўқитиш методикаси услублари тўғрисидаги асосий тушунчалар ва уларни таснифлаш; методларни ривожлантириш ва уларнинг алоқадорлиги; сўз, кўргазма ва амалий услублар; биология ва экологияни ўқитишда тарбиявий жараён; тарбия элементларининг алоқадорлиги; биологияни ўқитишда ўқув-тарбия системаси; тарбия элементларининг алоқадорлиги; ўқувчиларда дунёқарашни, меҳнат ва меҳнатни севишни, ахлоқ ва эстетик тарбияни шакллантириш;

биологик таълими системаси; мактабда биология ўқитиш йўллари; мактабда биологияни ўрганишда ўқитиш йўллари алоқадорлиги; экологик таълим биологик таълимнинг қисми сифатида; биология дарси; истикбол режа; дарсни тайёрлаш ва ўтказиш йўллари; биология ва экология дарсларини ўтказишда методлар ва методик услубларни тўғри танлаш; экскурсиялар; ўқув жараёнида экскурсияларнинг роли ва аҳамияти; экскурсияларни тайёрлаш ва ўтказиш; табиатга экскурсиялар; ботаника, зоология, анатомия,

умумий биология ва экология бўйича экскурсиялар; табиатни муҳофаза қилиш; уй вазифаси; биологиядан уйда бажариладиган амалий ишлар; уй ишларининг турлари;

дарсдан ташқари иш; биология хонаси ва тирик бурчак; тирик бурчакда ишни ташкил қилиш; биологиядан дарсдан ташқари табиатдаги иш; биология ва экологиядан синфдан ташқари ишлар турлари; якка, гуруҳ ва оммавий; биология ва экологияга қизиқиши бўлган ўқувчилар билан ишлаш; мактабда тўгаракни ташкил қилиш ва шакллантириш; мактаб микросида оммавий тадбирларни ташкил қилиш ва ўтказиш; Сув қуни, Ер қуни, баҳор байрами, ҳосил байрами; факультатив дарсларни ўтказиш методикаси; факультатив дарсларни ўтказиш учун мавзулар танлаш; факультатив дарсларда ўқувчилар фаоллигини ошириш йўллари;

биология ва экологиядан бир қатор мавзуларни ўтишда кўргазмаларни қўйиш; кўргазмаларни қўйиш сони ва турларини тўғри танлаш.

6.5.5. Тупроқ экологияси ва агроэкология

Тупроқ, уни хоссалари; тупроқ морфологияси, тупроқни гранулометрик, минерологик ва кимёвий таркиби, тупроқни эритмаси, тупроқни ишлаш хоссалари, кислотали ва ишқорли хусусияти, тупроқдаги оксидланиш-қайтарилиш жараёнлари, тупроқни радиоактивлиги, тупроқни иссиқлик хоссалари; физик-механик хусусияти; тупроқни ҳосилдорлиги;

тупроқни ҳосил бўлиши; тупроқни ҳосил қилувчи омиллари ва тупроқ минтақалари; тупроқни ҳосил бўлишида биологик модда алмашинуви аҳамияти; тупроқ ҳосил бўлиш режими; тупроқни ҳосил бўлишида биологик модда алмашинуви аҳамияти; тупроқни ҳосил бўлиш режими; тупроқни ҳосил бўлишида моддалар баланси; тупроқни ҳосил бўлиш жараёнини энергетик баланси;

тупроқни турлари; тупроқни келиб чиқиши ва систематикаси, номенклатураси ва таксономияси; асосий таксонометрик бирлиги-бу тупроқ типи; диагностика ва классификация қонунлари; Ўзбекистон тупроқлари мисолида тупроқларни систематик рўйхати;

ердан фойдаланишни асосий қонунлари; тупроқни ҳосилдорлиги ва маданийлиги; тупроқни сув, ҳаво, иссиқлик ва озиқа режимини бошқаришнинг асосий методлари;

ўғитлар; бегона ўтлар ва уларга қарши кураш; алмашлаб экиш; тупроққа ишлов бериш; қишлоқ хўжалик экинларини экиш ва уларни парвариш қилиш; ердан фойдаланиш системаси; ердан фойдаланишни экологик муаммолари;

ғалласимон, мой берувчи, тўқийдиган, ем-хашак экинлари; уларни хўжалик аҳамияти, ботаник ва биологик характеристикаси, сортлари ва агротехникаси.

6.5.6. Экологиянинг ҳуқуқий асослари

Экология ҳуқуқининг тушунчаси, предмети ва тизими, Экология ҳуқуқининг манбалари. Табиий ресурсларга нисбатан мулк ҳуқуқи. Экология соҳасида давлат бошқаруви. Экология назорати ва экспертизасининг ҳуқуқий ҳолати.

Экологик қонунчиликни бузганлик учун жавобгарлик. Ерларни муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишнинг ҳуқуқий ҳолати. Сув ресурсларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишнинг ҳуқуқий ҳолати. Ер ости бойликларининг ҳуқуқий ҳолати. Ўсимлик дунёсидан фойдаланиш ва муҳофаза қилишнинг ҳуқуқий ҳолати. Ўрмонлардан фойдаланиш ва муҳофаза қилишнинг ҳуқуқий ҳолати. Ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишнинг ҳуқуқий ҳолати. Атмосфера шавосини муҳофаза қилишнинг ҳуқуқий ҳолати. Алоҳида муҳофаза этиладиган табиий шудудларнинг ҳуқуқий ҳолати. Антропоген ўзгарган табиий муҳитни ҳуқуқий муҳофаза қилиш.

Атроф табиий муҳитни халқаро ҳуқуқий муҳофаза қилиш

6.5.7. Табиатни муҳофаза қилиш ва ундан оқилона фойдаланиш

Табиат-жамиyat тизими; табиатни муҳофаза қилиш ва табиатдан рационал фойдаланишнинг илмий-методологик асослари; табиат муҳофазасини ҳозирги замон муаммолари;

атмосфера ҳавоси, сув, тупроқлар, қазилма бойликлар, ўсимлик ва ҳайвонот оламини муҳофаза қилиш; биологик хилма-хилликни сақлаш, биосферанинг глобал ифлосланиши ва унга қарши кураш, биосферада қишлоқ хўжалик ифлосланишининг хиллари ва масштаблари, курашнинг биологик усуллари;

транспорт ва саноатни атроф-муҳитга таъсири, биосферани токсик ва радиактив моддалар билан ифлосланиши; чиқиндисиз ва кам чиқиндилар ишлаб чиқариш;

фойдаланмайдиган ва қишлоқ хўжалик оборотидан чиқиб кетган ерларни биосферада экологик мувозанатни сақлаб туришдаги аҳамияти, биосфера кўриқхоналари ва бошқа кўриқланадиган ҳудудлар;

табиатни муҳофаза қилишни ва табиий ресурслардан рационал фойдаланишнинг ҳуқуқий, ташкилий, социал-иқтисодий ва сиёсий аспекти; табиатдан фойдаланишни глобал, регионал ва миллий муаммолари, табиатни муҳофаза қилиш соҳасида халқаро ҳамкорлик, Ўзбекистонда табиатдан оқилона фойдаланиш муаммолари.

6.5.8. Курс иш (лойиха) ларини бажариш

Умумқасбий фанлардан умумий экология фанидан, ихтисослик фанларидан популяциялар экологияси фанидан курс ишлари режалаштирилган. Курс ишлари мавзулари мазкур фан ёки йўналиш бўйича ўқув жараёнининг бошланишида талабаларга тавсия этилади ва кафедра йиғилишида муҳокама этилади; курс ишида бакалавр ушбу фан бўйича мавжуд адабиётлар ва интернет маълумотларидан хабардор бўлган ҳолда курс иши раҳбарининг бевосита раҳбарлиги остида тузилган режага асосан адабиётлар шарҳини, қуйилган мақсадга мувофиқ олинган илмий тадқиқот натижаларини кенг ва атрофлича таҳлил

килиши лозим; курс ишида бакалавр йиғилган материаллар ва утказилган тадқиқотлар бўйича хулосалар чиқариши ва маълум бир малакага эга бўлиши ҳамда кафедрада химоя қилиши лозим.

6.5.9. Малакавий амалиёт

Дала шароитида бакалавр экотизим, геотизим ва биотизимларни ажрата олиши, объектларни карта ёки планларга тушириши; организмларни турларга ажратиши, морфологик ва морфометрик кўрсаткичларига қараб таснифлай ва тавсифлай олиши; организмларни реал шароитга қараб мослашиш, кўпайиш ва ривожланиш хусусиятларини аниқлай олиши; коллекция, гербарий ва геологик намуналарни йиғиш, экологик ҳолатларни чизиш ва расмга олиш, экология ва табиат музейлари учун кўргазмаларни тўплаши; табиий шароитда ўсимлик ва ҳайвон турлари устидан кузатув олиб бориши керак.

Идора, корхона, ташкилот ва муассасаларда, яъни ишлаб чиқариш шароитида экология ва табиатдан фойдаланиш бўйича замонавий тадқиқот методларидан бирини қўллаши, назарий ва амалий жиҳатларни; илмий тадқиқот методларидан фойдалана олиши ва тажриба олиб бориши; тўпланган маълумотларни таҳлил қилиш орқали ўзининг малакавий битирув иши мавзуси учун материал тўплаши лозим.

Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълим муассасаларида экология ва табиат муҳофазаси, биология ва экология фанларидаги тегишли мавзулардан бошқа ўқитувчиларнинг дарсларини таҳлил қилиши; педагогик технологияларни тегишли фанларга қўллаш методикасини билиши; ўқувчилар билан мулоқот қила олиши ва улар билан маърифий-маънавий тадбирларни ўткази олиши; эркин ҳолда кўргазма қуролларини дарсларга тайёрлаши, замонавий интерактив методлар ва ўқитишнинг техник воситаларини қўллаш олиши; ўқувчилар билимини баҳолаш усуллари ва объектив кўрсаткичларни тўплаш йўллари; экология ва табиат муҳофазаси ўқув курслари, биология ва кимё фанларидаги тегишли мавзулардан янги педагогик технологиялар асосида дарсларни ўтиши керак.

6.5.6.1. Ўқув-дала амалиёти

Талабалар иккинчи курс охирида ботаника ва зоология фанлари бўйича дала амалиётига экскурсияга чиқишади. Ўсимлик ва ҳайвонларнинг тик минтақалар бўйича тарқалишини ўрганадилар. Ўсимлик ва ҳайвон турларини идентификация қилиш услубларини қўллаб уларнинг таксономик категорияларга мансублигини аниқлайдилар. Ҳар хил экотизимларни ва уларда ўсимлик ва ҳайвонларнинг иштирокини таҳлил қиладилар. Экотизим, биогеоценоз ва биоценоз тушунчаларининг маъносини амалда қўллашни ўрганадилар. Гербарий ва коллекциялар ташкил этишни ўрганадилар.

6.5.6.2. Ишлаб чиқариш амалиёти

Мутахассислик бўйича мос ЎзР ФА ИТИ ва корхоналари структураси, илмий йўналишлари ҳамда фойдаланишнинг замонавий илмий услубий қурилмалари ҳамда ўрта мактаб, академик лицей ва касб-ҳунар коллежлари структураси, ўқув жараёнини ташкил қилиниши билан танишадилар. Талабалар ихтисосликлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Табиатни муҳофаза қилиш ва Ер ресурслари, кадастр, картография ва геодезия давлат қўмиталарининг идоралари, “Экоҳаракат” бўлимлари, 180 дан ортиқ давлат рўйхатидан ўтган ва лицензияси бор экология ва саломатлик йўналишидаги нодавлат ташкилотлари, ЎзР Халқ таълими ва ОЎМТВ муассасаларида, ЎзР ФА ва тармоқ институтларининг лабораторияларида олиб борилаётган амалий экологик, илмий-тадқиқот ишларида қатнашадилар, олинган натижаларни қайта ишлашда иштирок этадилар, ўзларининг назарий билимларини мустаҳкамлайдилар, таълим муассасаларида ўқув дастури, режаси ва жадвалини тузиш жараёни билан танишадилар.

6.5.6.3. Педагогик амалиёт

Талаба умумий ўрта, ўрта махсус таълим муассасалари ва уларнинг фаолияти билан яқиндан танишади; Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, биология ўқув курслари дастурлари, режалари ва бошқа норматив ҳужжатлари билан танишади, ҳар бир талабага гуруҳларни бириктириш ва таълим корхонаси раҳбарияти, синф (курс, босқич) раҳбари томонидан томонидан уюштирилаётган йиғилишларида иштирок этади; бириктирилган синф (курс, босқич) ва ўқувчилар билан яқиндан танишади, синф раҳбари доимо билан маслаҳатлашиб туради, унинг иш режаси билан танишади; синф раҳбари томонидан ўтказилаётган синф (курс, босқич) соатлари, мажлислари, суҳбатларида иштирок этади; бириктирилган синф дарсларида, предмет ўқитувчиларининг дарсларида иштирок этади ва уларни биргаликда таҳлил қилади; аудитория билан муомала ҳамда дарс ўтиш кўникмаси ва малакасига эга бўлади; фанларни ўқитишда турли хил методлардан фойдаланади, ўқитувчилар билан мулоқот қилишни билиш ҳамда ўқитишнинг ҳозирги замон техник воситаларидан эркин фойдалана олиши; ўтказилган дарсларни эркин таҳлил қила олиши ва якуний амалий иш хулосасини ёзиши керак.

6.5.7. Битирув малакавий иши

Битирув малакавий иш мавзуси таълим муассасасининг мутахассис таёрловчи кафедралари томонидан кадрлар истеъмоличлари талабаларини, шунингдек замонавий фан, техника, технологиялар ютуқларини ҳисобга олган ҳолда белгиланади; талабага битирув малакавий иши топшириғи, одатда, у учинчи курсида берилади. Иш умумқасбий ва ихтисослик фанларни ўрганганлик меъёрига кўра тўртинчи курс мобайнида, шунингдек, мазкур стандартда бажариш учун ажратилган вақт мобайнида бажарилади. Битирув малакавий иш ҳажмини кафедра белгилайди, расмийлаштириш эса ОТМнинг тегишли йўналиш бўйича йўриқномасидан келиб чиққан тарзда амалга оширилади.

7. Бакалавриятнинг асосий таълим дастурларини ўзлаштириш бўйича амалга ошириладиган шароитларга бўлган талаблар

7.1. Бакалавриятнинг асосий таълим дастурлари ўзлаштирилишига белгиланган умумий талаблар

7.1.1. Таълим дастурини ишлаб чиқишда ОТМ республика иқтисодиёти ва ижтимоий тармоқлари, бошқарув ва ҳўжалик юритиш субъектлари учун фундаментал, айниқса, юқори ва инновацион технологиялар бўйича чуқур билим ҳамда амалий кўникмаларга эга бўлган кадрлар эҳтиёжини ҳисобга олиши керак.

Олий таълим муассасалари асосий таълим дастурини фан, техника, маданият, иқтисодиёт, технология ва ижтимоий соҳа ривожланишини ҳисобга олган ҳолда мунтазам равишда янгиллаб туриши лозим.

7.1.2. Таълим дастурини ишлаб чиқишда ОТМ томонидан битирувчиларнинг умуммаданий компетенцияларини (ижтимоий ўзаро таъсир, ўз-ўзини ташкил қилиш ва бошқариш, тизимий-фаолият тавсифидаги компетенцияларни) шакллантиришдаги имкониятлари аниқланган бўлиши керак. ОТМ ўзининг ижтимоий-маданий муҳитини шакллантиришга, шахснинг ҳар томонлама ривожланиши учун зарур бўлган шароитларни яратишга масъул.

ОТМ ўқув жараёнини ижтимоий-тарбиявий ривожлантиришга, талабаларнинг ижтимоий ташкилотлар ишида, спорт ва ижодий тўғаракларда, магистрларнинг илмий жамиятларида иштирокига кўмаклашиши лозим.

7.1.3. Компетентли ёндошувни амалга ошириш ўқув жараёнида машғулотларнинг фаол ва интерфаол (компьютер стимуляторлари, ишбилармонлар ўйини, муайян вазиятларни кўриб чиқиш ва ҳ.к.) шакллари ўтказишни, талабаларнинг касбий кўникмаларини шакллантириш ва ривожлантириш мақсадида аудиториядан ташқари иш билан биргаликда жаҳон педагогик амалиётида қўлланиладиган замонавий педагогик технологиялар, ўқитишнинг самарали стратегиялари, методлари ва услубларини кенг қўллашни назарда тутиши керак.

Фаол ва интерфаол шаклларда ўтказилаётган машғулотларнинг улуши дастурнинг асосий мақсади, ўқиётган контингент хусусиятлари ва муайян фан мазмуни билан аниқланади. Талабаларнинг академик гуруҳлари учун маъруза туридаги машғулотлар аудитория машғулотларининг 50 % идан ортмаслиги керак.

7.1.4. Талабалар ўқув юкламасининг максимал ҳажми асосий таълим дастури ва таълим дастурига ОТМ томонидан қўшимча белгиланадиган факультатив фанларни ўзлаштириш бўйича аудитория ва аудиториядан ташқари (мустақил) таълим билан биргаликда ҳафтасига 54 академик соатдан ошмаслиги керак.

7.1.5. ОТМ талабалар учун ўқиш дастурини, бўлиши мумкин бўлган индивидуал таълим дастурларини ишлаб чиқишни инобатга олган ҳолда, шакллантиришда реал иштирок этиш имкониятини таъминлашга масъул.

7.1.6. Ўқув дастурини шакллантиришда ОТМ талабаларни уларнинг ҳуқуқлари ва мажбуриятлари билан таништиришга, талабалар учун танлов фан (модул, курс) лари мажбурий эканлигини тушунтириши керак.

7.1.7. Талабаларда билим, амалий малака ва кўникмаларни тўлиқ шакллантириш учун ОТМ таълим дастури ўқув фанлари (модуллари) бўйича лаборатория ишлари ва амалий машғулотларни қамраб олиши керак.

7.2. Таълим дастурларининг тадбиқ этилиши

5630100-Экология ва атроф муҳит муҳофазаси (фан ва таълим) таълим йўналиши бўйича бакалаврларни тайёрлаш таълим дастури ривожлантирувчи ўқитиш, ахборот технологиялари ва ўқитишнинг замонавий техник воситаларидан фойдаланилган ҳолда тайёрлашнинг ушбу йўналиши бўйича аккредитация қилинган олий таълим муассасаларида амалга оширилиши керак.

Талабалар хорижий тилларни ўзлаштириши, хорижий тилларни ўқитувчилар ўқитиши ҳамда бунинг учун зарур бўлган шароитлар яратилиши бакалаврларни тайёрлашда бош вазифа бўлиши керак.

Малакавий амалиётлар замонавий корхоналарда, ташкилотларда ва ИТИларда ўтказилади, улар талабаларни амалиёт дастурларида кўзда тутилган иш жойлари билан таъминлашлари керак.

Ўқиш даврида талаба камида иккита Давлат аттестацияларини (гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий ва чет тили фанларидан) топширади ва битирув малакавий ишини ҳимоя қилади. Давлат аттестацияси мос интеграллашган курслар бўйича ўқув жараёни тугаллангандан кейин топширилади.

7.3. Малакавий амалиётларни ташкил этиш талаблари

Амалиётлар бакалаврият асосий таълим дастурининг мажбурий бўлаги ҳисобланади. Амалиётлар ўқув ёки ўқув-ишлаб чиқариш машғулотлари кўринишида бўлиб, талабаларнинг касбий-амалий тайёргарланганлигига бевосита йўналтирилган бўлади. Бакалаврлар тайёрлашнинг таълим дастури – ўқув-танишув, ишлаб чиқариш ва технологик-конструкторлик амалиётларини ўз ичига олади.

Ўқитишнинг биринчи йилида ўқув-танишув амалиёти ўтказилади, мақсад – ўқиётганларни олий таълим муассасаси, ЎзР ФАнинг илмий-тадқиқот институтлари ва бошқа давлат ва нодавлат илмий муассасалари лабораторияларининг мавзулари ва уларда илмий-тадқиқотларни ташкил қилиш ҳамда талабаларни мос йўналишдаги муассасаларга ишга жойлаштириш имкониятлари билан таништирилади. Амалиёт натижаси ва ҳисоботи баҳолаш меъзонлари асосида баҳоланади.

Ўқув танишув амалиёти табиатдан фойдаланишда ресурс тежамкор зарарсиз технологиялардан фойдаланиш ва атроф муҳитга таъсирни баҳолаш ишларининг турларини; ишлаб чиқариш кўникмаларини эгаллашга мўлжалланган.

Амалиётни ўтказиш муддатлари ўқув режаси билан аниқланади. Амалиёт тугагандан сўнг талабалар бажарилган иш ҳақида амалиёт ўқитувчилари-раҳбарлари ва қабул қилувчи ташкилот вакиллари билан таркиб топган комиссия олдида ҳисобот беришади. Баҳолаш шакли ўқув режасида белгиланади.

Ишлаб чиқариш амалиёти талабаларни Малакавий ўқув амалиётлари ботаника, зоология, кимё, геология, гидрология, тупроқшунослик ва деҳқончилик ва атроф муҳитга бўладиган таъсирни баҳолаш фанлари бўйича ўтказилади.

Талабанинг илмий-тадқиқот иши амалиётнинг бир бўлагини ташкил қилиши мумкин. Илмий-тадқиқот иши битирувчиларда касбий компетенцияларни шакллантириш ва мустаҳкамлашга қўмаклашади. У битирувчини 8 семестрда кафедранинг илмий ишида албатта иштирок этишини, курс ишларини касбий (махсус) циклнинг базавий фанлари мавзуси бўйича бажарилиши ва ҳимоя қилинишини, талабаларнинг талабалар илмий жамияти йўналиши бўйича илмий ишда иштирок этишини ва битирув малакавий ишни кафедранинг илмий мавзуси бўйича бажарилишини назарда тутди.

Талабалар илмий-тадқиқот ишининг ташкил қилиниши қуйидагилар билан таъминланиши керак:

- курс ишларининг ҳар йили янгиланадиган мавзулари ҳақида ўқиётганларни ўз вақтида хабардор қилиш;

- чиқарувчи факультет (кафедра)нинг илмий мавзуси бўйича илмий-тадқиқот ишларини бажариши учун лабораторияларда ўқиётганларни иш жойи билан таъминлаш;

- олий таълим муассасасининг ахборот ресурс марказида мустақил илмий-тадқиқот ишни олиб бориш имкониятини тақдим этиш;

- талабалар илмий жамиятининг конференцияларини ташкил қилиш;

- талабалар илмий конференцияси ғолибларига мамлакатнинг бошқа олий ўқув юртларига маърузалар билан чиқиш имкониятларини тақдим этиш.

7.4. Ўқув жараёнини педагогик кадрлар билан таъминлаш бўйича талабалар

Бакалаврият асосий таълим дастурини амалга ошириш ўқитиладиган фаннинг ихтисослигига мос, одатда, базавий таълимга эга бўлган илмий-педагогик кадрлар билан ва тизимий равишда илмий ёки илмий-методик фаолият билан шуғулланаётган кадрлар билан таъминланиши керак.

Ихтисослик фанлари ўқитувчилари ўқитиладиган фан ихтисослигига мос базавий таълимга ёки илмий даражага эга бўлишлари керак. Таълим жараёнига амалдаги тегишли тармоқ ташкилотлари, корхоналари ва муассасаларининг раҳбарлари ва етакчи мутахассислари ўқитувчиликка жалб этилиши зарур.

7.5. Таълим жараёнини ўқув-методик ва ахборот ресурслари билан таъминлаш талаблари

Асосий таълим дастури асосий таълим дастурининг ҳамма ўқув курслари, фанлари (модуллари) бўйича ўқув-методик ҳужжатлар ва материаллар билан таъминланиши керак.

Асосий таълим дастурининг амалга оширилиши ҳар бир талаба асосий таълим дастуридаги фан (модул) ларнинг тўлиқ рўйхати бўйича шаклландиган маълумотлар базаси ва кутубхона фондидан фойдаланиш ҳуқуқи билан таъминланиши керак.

Асосий таълим дастури бўйича ҳар бир ўқиётган ўрнатилган меъёрларга мос равишда таълим дастурига кирувчи касбий циклнинг ҳар бир фани бўйича ўқув ва ўқув-методик чоп этилган ёки электрон нашрлар билан таъминланиши керак.

Ахборот-ресурс марказининг асосий фонди охириги 10 йилда (гуманитар, ижтимоий ва иқтисодий циклнинг базавий фанлари учун – охириги 5 йилда) чоп этилган ҳамма цикларнинг базавий қисми фанлари бўйича ўқув адабиётининг чоп этилган ёки электрон нашрлари билан тўлдирилган бўлиши керак.

Ўқув адабиётидан ташқари қўшимча адабиёт фонди расмий маълумотнома-библиографик ва даврий нашрларни ўз ичига олиши керак.

Таълим дастурини тўлиқ амалга ошириш учун ОТМнинг АРМда таълим йўналишининг ўқув режасида келтирилган фанлар бўйича яратилган ўқув-услубий адабиётлар ва чет элда чоп этилган ҳамда интернет тизимидаги ахборот манбалари ҳар бир талабага етарли даражада бўлиши керак.

Мамлакатимиздаги ва чет элдаги олий таълим муассасалари, корхоналари ва ташкилотлари билан оператив равишда ахборот алмашиш, замонавий касбий маълумотлар базалари, ахборотлар ва кидирув тизимларидан фойдаланиш имконияти билан таъминланган бўлиши керак.

5630100 –*Экология ва атроф муҳит муҳофазаси (фан ва таълим)* таълим йўналиши бўйича бакалаврни тайёрлаш жараёнида асосан қуйидаги педагогик технологиялар ва ўқитиш методларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ:

- ўқитишнинг интерфаол методи,

- муаммоли ўқитиш технологияси,

- ўйинли технологиялар,

- танкидий фикрлаш ривожланишининг педагогик стратегиялари,

- шахсий йўналганлик асосидаги педагогик технологиялар,

- ўқув жараёнини самарали бошқариш ва ташкил қилиш асосидаги педагогик технологиялар,

- ўқитишни дифференциациялаш,

ўқитишни индивидуаллаштириш технологияси,
дастурий ўқитиш технологияси,
ўқитишнинг комплекс методлари (лойихавий метод, тармоқли режалаштириш методи, ақлий хужум, ассоциограммалар методи ва ҳ.к.)

7.6. Ўқув жараёнининг моддий-техника базаси бўйича талаблар

Бакалавр тайёрлашнинг асосий таълим дастурини амалга оширувчи ОТМ ўқув дастурида назарда тутилган ва амалдаги санитар ва ёнғинга қарши қоидалар ва меъёрларга мос келадиган моддий-техника базасига эга бўлиши керак; бу моддий-техник база фанлар ва фанлараро тайёргарликнинг ҳамма турларини, талабаларнинг лаборатория, амалий ва илмий-тадқиқот иши ўтказилишини таъминлаши керак.

Бакалавр дастурини амалга ошириш учун минимал зарур бўлган моддий-техникавий таъминот рўйхати қуйидагиларни ўз ичига олади:

- маъруза (поток ёки гуруҳлар) аудиториялари;
- семинар машғулотлари учун аудиториялар;
- илмий-тадқиқот ишини ўтказиш учун лабораториялар.

Мавжуд моддий база қуйидагиларни таъминлаши керак:

- иллюстратив материалларни намойиш қилиш учун турли аппаратуралар – маърузаларни ўтказиш;
- лаборатория ишлари дастурига мос равишда жиҳозлар – базавий фанлар бўйича лаборатория-амалий ишларни бажариш;
- лабораториянинг амалга оширилаётган илмий мавзусига мос равишда жиҳозлар – ихтисослик (махсус) фанлар бўйича лаборатория ишларини бажариш;
- ҳисобларни бажариш ва ахборот тизимларидан фойдаланиш учун компьютерлар – семинар машғулотларини ўтказиш, лингафонли кабинетлар – хорижий тиллар бўйича машғулотлар.

8. Бакалаврлар тайёлаш сифатини баҳолаш

8.1. Олий таълим муассасаси тайёргарлик даражаси сифатини кафолатли таъминлашга мажбур, жумладан қуйидаги йўллар билан:

- иш берувчилар вакиллари жалб қилган ҳолда битирувчиларнинг тайёргарлик даражаси сифатини таъминлаш бўйича стратегияни ишлаб чиқиш;
- таълим дастурлари мониторингини ўтказиш, уларни даврий тақриз қилдириш;
- талабалар билими ва амалий қўникмалари даражасини, битирувчилар компетенцияларини объектив баҳолаш процедураларини ишлаб чиқиш;
- ўқитувчилар таркибининг компетентлигини таъминлаш;
- иш берувчилар вакиллари жалб қилган ҳолда фаолият (стратегия)ни баҳолаш ва бошқа таълим муассасалари билан таққослаш учун мувофиқлаштирилган мезонлар бўйича мунтазам равишда таҳлил қилишни ўтказиш.

8.2. Бакалаврият йўналишлари бўйича кадрлар тайёрлаш сифатини назорат қилиш қуйидагилардан иборат:

ички назорат – олий таълим муассасаси томонидан амалга оширилади. Ички назорат олий таълимнинг бошқарувчи ваколатли давлат идораси томонидан тасдиқланган назоратнинг рейтинг тизими тўғрисидаги Низом асосида ўтказилади;

якуний давлат назорати давлат таълим стандартига мувофиқ фанлар бўйича давлат аттестациясини ва битирув иши ҳимоясини ўз ичига олади;

давлат-жамоат назорати олий таълимнинг бошқарувчи ваколатли давлат идораси, жамоат ташкилотлари ва кадрлар буюртмачилари томонидан белгиланган тартибда ўтказилади;

ташқи назорат Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест маркази таркибидаги Кадрлар тайёрлаш сифатини назорат қилиш, педагог кадрлар ва таълим муассасалари аттестацияси Бошқармаси томонидан белгиланган тартибда амалга оширилади.

Тайёрланган кадрлар сифатини баҳолаш кадрлар истеъмолчилари томонидан уларнинг меҳнат фаолияти жараёнида амалга оширилади.

8.3 Ҳар бир фан бўйича билимларни жорий ва оралиқ назорат қилишнинг муайян шакли ва ўқув жараёнига тадбиқ этилиши ОТМ томонидан мустақил ишлаб чиқилади ва талабалар эътиборига ўқишнинг биринчи ойи давомида етказилади.

8.4 Талабаларнинг ўзлаштириши жорий назорати ва оралиқ аттестацияси дастурлари уларнинг бўлажак касбий фаолияти шароитларига максимал яқинлаштирилиши учун шароитлар ОТМ томонидан яратилиши керак. Бунинг учун муайян фан ўқитувчиларидан ташқари ташқи экспертлар сифатида иш берувчилар, турдош фанлардан дарс берувчилар ва бошқалар бу жараёнга фаол жалб қилиниши керак.

8.5 Якуний давлат аттестацияси бакалавр битирув малакавий иши ҳимоясини ўз ичига олади.

Битирув малакавий ишининг мазмуни, ҳажми ва тузилмасига бўлган талаблар битирувчиларнинг якуний давлат аттестацияси ўтказиш ҳақидаги амалдаги Низом асосида олий таълим муассасалари томонидан белгиланади.

8.6 Олий таълим муассасаси:

- ушбу стандартдаги талабларга риоя қилиниши ва олий таълим муассасаларининг давлат аттестацияси ва аккредитацияси ҳақидаги Низомда назарда тутилган бакалавр тайёрлашнинг сифати;

-профессор-ўқитувчилар таркиби ва ўқув-ёрдамчи ходимлар малакавий талабларга тўла мос келиши;

-ҳар бир интеграллаштирилган курс фанларининг курс дастурида назарда тутилган ўқув-услубий адабиётлар, ўқув-услубий мажмуалар, шунингдек, мустақил таълим ва мустақил тайёргарлик учун материаллар билан таъминланганлиги;

-ўқув жараёнининг моддий-техникавий таъминланганлиги учун тўла масъулдир.

9. Эслатма

9.1. Олий таълим муассасасига:

-ушбу стандартда назарда тутилган минимал мазмунни таъминлаган ҳолда талабанинг ҳафталик максимал юкламасини оширмасдан ўқув материални ўзлаштиришга ажратилган соатлар ҳажмини ўқув фанлари блоклари учун 5% оралиғида, блокга кирувчи ўқув фанлари учун 10% оралиғида ўзгартириш;

-ўқув фанлари мазмунига фан, техника ва технологияларнинг ютуқларини ҳисобга олган ҳолда ўзгартиришлар киритиш;

-битирув малакавий иш (лойиҳа) мавзусини белгилаш олий таълим муассасаси ректори томонидан расмийлаштирилади.

9.2 Курс ишлари (лойиҳалари) муайян ўқув фаолиятининг бир тури сифатида кўрилади ва ушбу ўқув фанини ўзлаштириш учун ажратилган соатлар чегарасида бажарилади.

9.3 Давлат таълим стандартини билиш профессор-ўқитувчилар таркибини танлов асосида саралаш шартларидан бири ҳисобланади.

10. Давлат таълим стандартининг амал қилиш муддати

10.1. Давлат таълим стандарти ўрнатилган тартибда тасдиқланиб, “Ўзстандарт” агентлигида давлат рўйхатидан ўтгандан кейин амал қилиш муддати – 5 йил.

10.2. Давлат бошқарувининг ваколатли оғранлари томонидан давлат таълим стандартларини ишлаб чиқиш, такомиллаштириш ва жорий этиш тўғрисида янги тартиб-қоидалар қабул қилинса ДТСларнинг амал қилиш муддати ўзгариши мумкин.

Илова

5630100 – Экология ва атроф муҳит муҳофазаси (фан ва таълим) йўналиши бўйича таълим дастурининг тўзилиши

Т/р	Фанлар блоклари ва интеграллаштирилган курслар номи	Умумий юклама ҳажми, соат
1.00	Гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлар	1704
2.00	Математик ва табиий-илмий фанлар	1866
2.01	Олий математика	324
2.02	Информатика ва ахборот технологиялари	272
2.03	Физика	324
2.04	Умумий ва ноорганик кимё	272
2.05	Назарий механика	66
2.06	Экология	66
2.07	Органик кимё	272
2.08	Физик ва коллоид кимё	130
2.09	Аналитик кимё	140
3.00	Умумқасбий фанлар	2164
3.01	Ботаника	130
3.02	Зоология	130
3.03	Цитология ва генетика асослари	98
3.04	Биокимё ва молекуляр биология асослари	98
3.05	Гистология ва индивидуал ривожланиш биология асослари	104
3.06	Одам анатомияси	106
3.07	Одам ва ҳайвонлар физиологияси	170
3.08	Ўсимликлар экофизиологияси	106
3.09	Микробиология ва вирусология асослари	104
d) Populyasiyada avlod yaratishning sof tezligi 1 dan kichik qiyamatga ega bo'lishi kerak

54. Agar avlod yaratishning sof tezligi $R_0=3$ bo'lsa, ...

- a) Populyasiya soni har yili uch marta ko'payadi
- b) Populyasiya soni bitta avloddan keyin uch marta oshadi
- c) Populyasiya soni har soatda uchta individga oshadi
- d) Populyasiyadagi individlar har yili uch marta avlod beradi

55. Populyasiya turg'un holatda bo'lishi, ya'ni yaratilgan avlod oldingi avlodni to'la qoplashi uchun avlod yaratish tezligining qiymati qanday bo'lishi kerak?

- a) $R_0=10$
- b) $R_0=1$
- c) $R_0=2$
- d) $R_0=100$

56. Ekspontensial o'sayotgan populyasiyaning asosiy xususiyatlarini ko'rsating.

1) o'sish tezligi populyasiya zichligiga bog'liq bo'ladi; 2) o'sish tezligi o'zgarmas bo'ladi; 3) yosh tuzilmada yosh individlar hisssasi katta bo'ladi; 4) yosh tuzilmada turli yoshdagi individlar nisbati doimiy bo'ladi; 5) yosh tuzilmada qari individlar hisssasi katta bo'ladi

- a) 1,3 b) 2,4 c) 1,5 d) 2,3

57. Populyasiya soni o'sishining logistik modeli birinchi marotaba kim tomonidan taklif qilingan?

- a) T.Maltus
- b) A.Lotka
- c) L.Slobotkin
- d) P.Ferxyulst

58. Logistik o'sishning asosiy sharti qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

Populyasiyaga hech qanday cheklovchi omil ta'sir etmasligi kerak
 Populyasiya sonining o'sish tezligi o'zgarmas qiymatga ega bo'lishi kerak
 Populyasiya zichligi oshishi bilan o'sish tezligi chiziqli kamayishi kerak
 Populyasiyada avlod yaratishning sof tezligi 1 dan kichik qiymatga ega bo'lishi kerak

59. Avlod umri qancha qisqa bo'lsa, ...

- a) populyasiya shuncha tez o'sadi
- b) populyasiya shuncha sekin o'sadi
- c) populyasiya turg'un bo'ladi
- d) o'sish tezligi avlod umriga bog'liq emas

60. Quyida keltirilgan tenglamalarning qaysi biri logistik tenglamani ifodalaydi?

$$\frac{dN}{dt} = r_{\max} N \left(\frac{K - N}{K} \right)$$

$$r = \frac{\ln R_0}{T}$$

$$\frac{N_t}{N_0} = e^{rT}$$

$$r = \frac{\Delta N}{N \Delta t}$$

61. Populyasiya soni o'sishining logistik modeli qaysi olimlar tomonidan qayta kashf qilingan?

- a) T.Maltus, Ch.Darvin
- b) A.Lotka, P.Ferxyulst
- c) L.Slobotkin, F.Gauze
- d) R.Perl, A.Rid

62. Tabiiy tanlanishning ikki tipi (r- va K – tanlanish) haqidagi konsepsiyani qaysi olimlar taklif qilishgan?

- a) R.Mak-Artur, E.Uilson
- b) A.Lotka, P.Ferxyulst
- c) L.Slobotkin, F.Gauze
- d) R.Perl, A.Rid

63. K – turlarga xos xususiyatlarni ko'rsating

1) yuqori serpushtlikka ega; 2) raqobatbardosh; 3) suksessiyaning dastlabki bosqichlarida ustunlik qiladi; 4) shakllangan, turning yashab qolishi biotik munosabatlar bilan belgilanadigan jamoalarda ustunlik qiladi; 5) hayoti qisqa va jinsiy yetilish tez sodir bo'ladi; 6) populyasiya sonining boshqarilishi populyasiya ichidagi mukammal mexanizmlarga asoslangan.

- a) 1,2,3 b) 4,5,6 c) 1,3,5 d) 2,4,6

64. r – turlarga xos xususiyatlarni ko'rsating

1) yuqori serpushtlikka ega; 2) raqobatbardosh; 3) suksessiyaning dastlabki bosqichlarida ustunlik qiladi; 4) shakllangan, turning yashab qolishi biotik munosabatlar bilan belgilanadigan jamoalarda ustunlik qiladi; 5) hayoti qisqa va jinsiy yetilish tez sodir bo'ladi; 6) populyasiya sonining boshqarilishi populyasiya ichidagi mukammal mexanizmlarga asoslangan.

- a) 1,2,3 b) 4,5,6 c) 1,3,5 d) 2,4,6

65. O'simliklarda hayot strategiyalarini qaysi olimlar ishlab chiqqan

- a) R.Mak-Artur, E.Uilson
b) L.Ramenskiy, Dj.Graym
c) L.Slobotkin, F.Gauze
d) R.Perl, A.Rid

66. Modifikasiya - bu....

- a) O'zgargandan keyin populyasiya sonining boshlang'ich holatga qaytishi
b) Populyasiya sonining doimiyligi
c) Populyasiya sonining tasodifiy o'zgarishlari
d) Populyasiya sonining kamayishi

67. Populyasiya sonini boshqaruvchi mexanizmlar 2 xil bo'lishi mumkin.

- a) Modifikasiya, boshqarilish
b) Inersiyali, inersiyasiz
c) Dominant, modifikator
d) Barqaror, titrovchi

68. Populyasiya dinamikasining asosiy tiplarini ko'rsating

- a) Modifikasiya, boshqarilish, portlovchi
b) Nuqtali, tasodifiy, tekis
c) Barqaror, titrovchi, portlovchi
d) Barqaror, tasodifiy, tekis

69. Chigirtkalarda individlarning yoppasiga ko'payib ketish holatlari kuzatilib turadi. Chigirtkalar uchun populyasiya dinamikasining qaysi tipi xos.

- a) Portlovchi
b) Barqaror
c) Titrovchi
d) O'zgaruvchi

70. Boshqaruvchi omilni ko'rsating

- a) Ozuqa miqdori
b) Harorat
c) Namlik
d) Tur ichidagi va turlararo aloqalar

71. Populyasiyaning tasnifi:

- a) Javoblarni barchasi to'g'ri.
b) Geografik, ekologik.
c) Klonal, lokal.
d) Panmistik, geografik

72. Populyasiyaning guruhli xususiyatlari:

- a) Soni, zichligi, tug'ilishi, nobud bo'lishi
- b) Gomeostazi dinamikasi
- c) Genetik birligi, ko'payishi.
- d) Morfologik, biologik, xulqiy (xatti-xarakat)

73. Populyasiyaning tuzilmasi:

- a) Jins, fazoviy, yosh
- b) Morfologik, fazoviy, yosh.
- c) Fiziologik, anatomik, jins.
- d) Jins, xulqiy (xatti-xarakatlar), yosh.

74. Hayvonlarning birgalikda hayot kechirish shakllari:

- a) Oila, poda, gala, koloniya.
- b) Mikoriza, kaloniya, yolg'iz.
- c) parazit-xujayra, guruxli.
- d) Simbioz, oila, koloniya.

75. Populyasiya dinamikasining asosiy ko'rsatkichlari:

- a) Javoblarni barchasi to'g'ri.
- b) Nobud bo'lish, qurilish, emigrasiya.
- c) Immigrasiya, emigrasiya, o'sish.
- d) Tug'ilish, o'sish, o'sish darajasi.

76. Populyasiyaning gomeostazini o'simliklarda namoyon bo'lishi.

- a) urug' va mevalarni turli yo'llar bilan tarqatilishi.
- b) Urug'larning to'liq hayotchanlikka ega emasligi.
- c) O'z-o'zidan siyraklashish, vegetativ quvvatini oshirish.
- d) Vegetativ, jinssiz, jinsiy usullarda ko'payish.

77. Populyasiyaning gomeostazini hayvonlarda namoyon bo'lishi.

- a) Javoblarni barchasi to'g'ri..
- b) Kimyoviy ta'sir, stress.
- c) Instinktlar, yalpi ko'chib ketish,
- d) O'z bolasini yeb qo'yish

78. Populyasiyani hulqiy tuzilishi ekologiyada nima dyeyiladi.

- a) Etologik
- b) Biologik
- c) Autoboshqarish
- d) Maydonga oid

79. Morfo-biologik tipga asoslab qaysi masshtabdagi populyasiyalarni ajratish mumkin.

- a) Barchasi to'g'ri
- b) Ekologik
- c) Elyemyentlar
- d) Biologik

80. Populyasion ekologiyani boshqacha nima deyilar.

- a) Autoekologiya
- b) Biotik ekologiya
- c) Abiotik ekologiya
- d) Biosfyera ekologiyasi

81. Agar populyasiyada faqat voyaga yetmagan zotlar qolgan bo'lsa uni qanday nomlaydilar?

- a) To'la a'zosiz
- b) Invazion
- c) Normal
- d) Normalsiz

- 82. Agar populyasiyada yoshlar guruhidan bittasi ega bo'lmasa uni qanday nomlaydilar?**
- a) Normalsiz
 - b) Normal
 - c) To'la a'zoli
 - d) To'la a'zosiz
- 83. Populyasiyada zotlarni umumiy o'zgarishi nimadan iborat.**
- a) Zotlarni migrasiyasi
 - b) O'g'it solish
 - c) Zotlarni emigrasiyasi
 - d) Zotlarni imigrasiyasi
- 84. Populyasiya zotlar soning o'sishi atrof muhit omillari bilan chyegaralanmasa, nimadan bog'liq bo'ladi.**
- a) Ekologik vaziyatdan
 - b) Tug'ilish miqdoridan
 - c) O'lim sonidan
 - d) Biotik potensialdan
- 85. Populyasiyadagi zotlar soni geometrik progressiya bilan ko'paysa ko'payishni nima deydlar.**
- a) Eksnonensial
 - b) Biotik
 - c) Ekologik
 - d) Dinamik
- 86. Atrof muhit resurslardan populyasiya oqilona foydalanishi uchun qaysi talablarga javob berish kyerak.**
- a) Zotlar zichligini aniq darajada saqlash.
 - b) Zotlarni maydonda dispersiya tarzida saqlash
 - c) Zotlarni maydonda integrasiya tarzida saqlash
 - d) Zotlarni integrasiya tarzida saqlash
- 87. Populyasiya zotlari o'zaro populyasion munosabatini saqlash uchun qaysi talablarga javob byerish kyerak.**
- a) Zotlarni maydonda dispersiya tarzida saqlash.
 - b) Zotlar zichligini anik darajada saqlash.
 - c) Zotlarni maydonda intyegrasiya tarzida saqlash
 - d) Zotlarni aniq darajada saqlash
- 88. Populyasiya zotlarini optimal zichlik tushunchasi qanaqa tushuncha.**
- a) O'zgaruvchan
 - b) O'zgarmas
 - c) Fuksional
 - d) Doimiy
- 89. Populyasiya zotlarni zichligi tugrisidagi informasiya manbai kanaka bulish mumkin.**
- a) Passiv borligi
 - b) Agryesiv xarakat
 - c) Maydonni markirovia kilish
 - d) Aktiv xarakat
- 90. Populyasiya zotlari asosan qaysi rivojlanish davrda zichligini boshqarishi bilan shug'ullanadi.**
- a) Ko'payish
 - b) Migrasiya
 - c) Voyaga yetmagan
 - d) Voyaga yetgan
- 91. Populyasiya zotlar zichligini qaysi mexanizmlar boshqaradi.**

- a) Hammasi to'g'ri.
- b) Kimyoviy boshqarish.
- c) Xulqiy boshqarish
- d) Tuzilma orqali boshqarish.

92. Stressni boshqacha nima deydlar.

- a) Moslashish kasalligi
- b) Gormonlar kasalligi
- c) Zichlik kasalligi
- d) Rak kasalligi

93. Populyasiyaning guruhli xususiyatlari

- a) Gomyeostazi, finamikasi
- b) Soni, zichligi, tug'ilishi, nobud bo'lishi
- c) Morfologik, biologik hulqiy
- d) O'sish tyezligi, ekologik sig'imi

94. Hayvonlarni birgalikda hayot kyechirish shakllari

- a) Simbioz, oila, koloniya
- b) Parazit - xo'jayin, guruhli
- c) Chala, koloniya, simbioz
- d) Oila, poda, chala, koloniya

95. Populyasiya dinamikasining asosiy ko'rsatkichlari

- a) Tug'ilish, o'sish, o'sish darajasi, nobud bo'lish, qirilish, emigrasiya, o'sish,chiqib kyetish, qutilish.
- b) Tug'ilish, o'sish, o'sish darajasi
- c) Nobud bo'lish, qirilish, emigrasiya, o'sish
- d) Chiqib kyetish, qutilish

96. Populyasiyaning tasnifi

- a) Panmistik, gyeografik,gyeografik, ekologik,klonal, lokal
- b) Panmistik, gyeografik
- c) Gyeografik, ekologik
- d) Klonal, lokal

97. Populyasiyaning tuzilmasi

- a) Jins hulqiy, yosh
- b) Jins, fazoviy yosh
- c) Morfologik, fazoviy yosh
- d) Fiziologik, anatomik, jins

98. Populyasiyaning gomyeostazini usimliklarda nomoyon bulishi

- a) Vyegyetativ ko'payishning tabiiy ko'rinishlaridan foydalanish. Urug'larning to'liq hayotchanlikka ega emasligi
- b) Urug' va myevalarni turli yo'llar bilan tarqatishi
- c) O'z - o'zidan siyraklashish, vyegyetativ quvvatini oshirish
- d) Vyegyetativ, jinssiz va jinsiy usullarda ko'payish

99. Populyasiyaning gomyeostazini hayvonlarda namoyon bo'lishi

- a) Hududiy hatti - harakatlar
- b) O'z bolasini yeb qo'yish
- c) Kimyoviy ta'sir, stress
- d) Instinktlar, yalpi ko'chib ketish

100. Қўйидаги ҳолатларнинг қайси бирида популяцияда индивидлар сонининг ўсишини кузатиш мумкин?

- a) Барчаси тўғри
- b) Жинс тузилмада урғочи индивидлар ҳиссаси катта бўлса

- c) Ёш тузилмада кекса индивидлар ҳиссаси ёш индивидларга нисбатан кичик бўлса
- d) Туғилиш ўлимдан катта бўлса

7.3.ЎЗМА ИШ ВА ОЎЗАКИ НАЗОРАТЛАР САВОЛЛАРИ (вариантлар)

Вариант №1

1. Экологияни ўрганишга экосистемали ёндошиш (Т.И.: экология, популяцион тадқиқот, экосистемали ёндошиш).
2. Популяция тушунчаси (Т.И.: популяция, гемипопуляция, популяциянинг экологик таърифи).
3. Популяциянинг сони ва зичлиги (Т.И.: статик, кўрсаткич, популяция сони, популяция зичлиги).
4. Шахсий майдон тушунчаси (Т.И.: эгаллаган майдон, махсус сигнал, белги қўйиш).

Вариант №2

1. Экологияни ўрганишга популяцияли ёндошиш (Т.И.: популяция, экология, тадқиқ қилиш).
2. Популяцияни мураккаб тузилма эканлиги (Т.И.: генетик таъриф, мажмуа, экологлар).
3. Популяциянинг статик ва динамик кўрсаткичлари (Т.И.: статик, динамик, кўрсаткич, сони, зичлиги, ўлим, туғилиш).
4. Популяциянинг жойда (маконда) тақсимланиши (Т.И.: текис, нуқтали, тасодифий).

Вариант № 3

1. Популяцияни тадқиқ этиш хусусиятлари (Т.И.: популяция, тадқиқот, услуб).

2. Популяцияни тушунишга генетик нуқтаи назар (Т.И.: генетик таъриф, генетиклар, С.Шварц, А.Б.Яблоков).
3. Популяциянинг жинс тузилмаси (Т.И.: жинс тузилма, 1 ламчи, 2 ламчи, 3 ламчи).
4. Ҳайвонлар популяциясида майдонга оид муносабатлар (Т.И.: ҳайвонлар, майдон, ўтрок).

Вариант № 4

1. Популяция тушунчасига экологик нуқтаи назардан ёндошиш (Т.И.: популяция, кўрсаткич, ёндошиш, зичлиги, сони, ўлим, туғилиш).
2. Популяциянинг ёш тузилмаси (Т.И.: ёш, ўсимта, уруғ, авлод, турли ёш).
3. Либихнинг минимум қоидаси ва унинг экологик қоидаси (Т.И.: Либих, минимум қоидаси).
4. Асосий динамик кўрсаткичлар (Т.И.: туғилиш, ўлим, иммиграция, эмиграция).

Вариант № 5

1. Туғилиш ва уни ҳисоблаш формуласи (Т.И.: туғилиш, солиштирма туғилиш).
2. Популяция сонининг экспоненциал ўсиши (Т.И.: экспоненциал ўсиш, авлод яратиш тезлиги).
3. Эколого – ценотик стратегиялар (Т.И.: r ва K - стратегия).
4. Яшовчанлик эгри чизиғи ва унинг типлари (Т.И.: эгри чизиқ, яшаб қолиш, 3 типи).

Вариант № 6

1. Замонавий экологиянинг муаммолари. (Т.И.: популяция, экосистема, глобал, локал, логистик)
2. Популяциянинг мураккаб тузилма эканлиги (Т.И.: генетик, популяция, экология)
3. Популяциянинг ёш тузилмаси (Т.И.: қари, ёш, ўрта).
4. Тўп - тўп ёки агрегацияли (нуқтали) тақсимланиш ва унинг омиллари (Т.И.: нуқтали, пода, оила, гала- гала).

Вариант № 7

1. Экологияни ўрганишга экосистемали ёндошишнинг моҳияти (Т.И.: экология, популяцион тадқиқот, экосистемали ёндошиш).
2. Популяция тушунчаси (Т.И.: популяция таърифи, популяция структураси)
3. Популяцияда туғилиш ва уни ҳисоблаш усуллари (Т.И.: солиштирма туғилиш, популяция)
4. Текис тақсимланиш ва уни сақлаб турувчи омиллар (Т.И.: арча популяцияси, агроценозлар).

Вариант № 8

1. Популяциянинг статик ва динамик кўрсаткичлари. Популяция сони ва зичлиги. (Т.И.: ҳажм, санаш, ўлим, туғилиш).
2. Экологияни ўрганишга популяцияли ёндошиш (Т.И.: популяция, экология, тадқиқ қилиш).
3. Популяция тушунчасига экологик нуқтаи назардан ёндошиш ва популяциянинг экологик таърифи (Т.И.: популяция, экосистема, экология таърифи).
4. Популяциянинг индивидлар мажмуи сифатидаги хусусиятлари (Т.И.: индивид, сони, зичлиги, ўсиш тезлиги).

Вариант № 9

1. Индивидлар тарқалиш имкониятининг чегараланганлиги (Т.И.: индивид, ареал).
2. Популяциянинг жинс тузилмаси (Т.И.: урғочи, эркак, 1 ламчи, 2 ламчи, 3 ламчи).
3. Популяциялар экологиясининг шаклланиши (Т.И.: асос солган олим, тарихи, вазифалари).

4. Популяцияни тадқиқ этишнинг хусусиятлари (Т.И.: популяция, тадқиқот, услуб).

Вариант № 10

1. Ўсимлик популяциясида ёш тузилманинг ифодаланиши (Т.И.: ўсимта, уруғ, ўсимлик)
2. Популяция эгаллаган майдонда индивидларнинг тақсимланиш типлари. Тасодифий тақсимланиш (Т.И.: текис, тасодифий, тўп-тўп)
3. Популяция тарқалишини чегаралашда биотик ва абиотик омилларнинг роли (Т.И.: популяция, биотик, абиотик)
4. Ҳайвон популяциясида майдонга оид муносабатлар. Шахсий майдон тушунчаси (Т.И.: сийдик, панжа излари, дарахт)

Вариант № 11

1. Популяция сони ўсишининг экспоненциал модели, моҳияти, асосий шартлари ва унинг математик тенгламаси (Т.И.: тенглама, тўғри чизиқ)
2. Индивидларнинг жой танлаш хусусияти (Т.И.: озиқ, муҳит, ареал)
3. Раменский-Граймнинг эколого-ценотик стратегиялар системаси (Т.И.: стратегия, популяция, оқимлар)
4. Ю.Либихнинг минимум қонунлари ва унинг экологияга тадбиқи (Т.И.: Либих, минимум, қонун)

Вариант № 12

1. Асосий динамик кўрсаткичлар (Т.И.: ўлим, туғилиш, иммиграция, эмиграция)
2. Популяцияда ўлим ва ҳисоблаш формуллари (Т.И.: ўлим, солиштирама ўлим, формула)
3. Популяция сони ўсишининг экспоненциал ва логистик моделлари (Т.И.: экспоненциал, логистик, модел, S шакли)
4. Яшовчанлик эгри чизиғи ва унинг типлари (яшаб қолиш жадвали, эгри чизиқ).

Вариант № 13

1. Популяциянинг авлод яратишнинг соф тезлиги ва ўсиш тезлиги (Т.И.: r ва R топиш, формула, жадвал)
2. Экспоненциал ўсиш тўхташининг турли ҳолатлари (Т.И.: бактерия фағи, эксперимент)
3. Турли эколого-ценотик стратегиялар (Т.И.: r ва K - стратегия)
4. Логистик ёки S шаклидаги ўсиш, унинг асосий шартлари ва математик ифодаси (Т.И.: логистик, S шакл, формула)

Вариант № 14

1. Табиий танланишнинг икки типи ҳақидаги фикрлар. (Т.И.: табиий, танланиш)
2. r - ва K –ҳаёт стратегиялари ҳамда уларнинг хусусиятлари (Т.И.: r - ва K , стратегия)
3. Популяция сонининг бошқарилиши (Т.И.: модификация, бошқарилиш)
4. Ўз-ўзини бошқариш концепцияси ва унинг моҳияти (Т.И.: концепция, моҳият, популяция)

Вариант № 15

1. Популяцияда модификация ва бошқарилиш, уларни юзага чиқарувчи омиллар. (Т.И.: модификация, бошқарилиш)
2. Стресс-механизм ва унинг юзага чиқиши (Т.И.: Стресс, механизм)
3. Популяциянинг статик ва динамик кўрсаткичлари (Т.И.: статик, динамик, кўрсаткич, сони, зичлиги, ўлим, туғилиш).
4. Популяциянинг жойда (макonda) тақсимланиши (Т.И.: текис, нуқтали, тасодифий).

Вариант № 16

1. Зичликнинг мувозанат ҳолати. Регуляционизм ва стохастизм оқимлари (Т.И.: Регуляционизм, стохастизм, зичлик, мувозанат)
2. Зичликка боғлиқ ва боғлиқ бўлмаган омиллар (Т.И.: Зичликка боғлиқ, боғлиқ бўлмаган, омиллар)
3. Эколого – ценотик стратегиялар (Т.И.: r ва k - стратегия).
4. Яшовчанлик эгри чизиғи ва унинг типлари (Т.И.: эгри чизик, яшаб қолиш, 3 типи).

Вариант № 17

1. Популяциянинг ички бошқарувчи омиллари (Т.И.: модификация, бошқарилиш)
2. Популяциянинг сони ва зичлиги (Т.И.: статик, кўрсаткич, популяция сони, популяция зичлиги).
3. Шахсий майдон тушунчаси (Т.И.: эгаллаган майдон, махсус сигнал, белги қўйиш).
4. Бошқарилишнинг генетик механизми. Популяциядаги даврий ўзгаришлар (Т.И.:)

Вариант № 18

1. Популяция сони бошқарилишининг популяция зичлигига ва организмнинг озик занжиридаги ўрнига боғлиқлиги (Т.И.: озик занжири, популяция сони, популяция зичлиги)
2. Популяциянинг жинс тuzилмаси (Т.И.: жинс тuzилма, 1 ламчи, 2 ламчи, 3 ламчи).
3. Ҳайвонлар популяциясида майдонга оид муносабатлар (Т.И.: ҳайвонлар, майдон, ўтроқ).
4. Шахсий майдон тушунчаси (Т.И.: эгаллаган майдон, махсус сигнал, белги қўйиш).

Mavzu: Zamonaviy ekologiya ning muammolari. Populyasiyalar ekologiyasi

1. Ekologiyani o'rganishga ekosistemali yondoshishning mohiyati
2. Ekologiyani o'rganishga populyasiyali yondoshish
3. Populyasiyalar ekologiyasining shakllanishi
4. Populyasiyani tadqiq etishning xususiyatlari

Mavzu: Populyasiya tushunchasi

1. Populyasiyaning murakkab tuzilma ekanligi
2. Populyasiya tushunchasining genetik talqini
3. Populyasiya tushunchasiga ekologik nuqtai nazardan yondoshish va populyasiyaning ekologik ta'rifi
4. Populyasiyaning individlar majmui sifatiga xususiyatlari

Mavzu: Populyasiyaning statik ko'rsatkichlari

1. Populyasiyaning statik va dinamik ko'rsatkichlari. Populyasiya soni va zichligi.
2. Populyasiyaning jins tuzilmasi
3. Populyasiyaning yosh tuzilmasi
4. O'simlik populyasiyasida yosh tuzilmaning ifodalanishi

Mavzu: Populyasiyaning fazoviy tuzilmasi

1. Populyasiya egallagan maydonda individlarning taqsimlanish tiplari. Tasodifiy taqsimlanish
2. To'p-to'p yoki agregatsiyali (nuqtali) taqsimlanish va uning omillari

3. Tekis taqsimlanish va uni saqlab turuvchi omillar
4. Hayvon populyasiyasida maydonga oid munosabatlar. Shaxsiy maydon tushunchasi

Mavzu: Populyasiya tarqalishini chegaralovchi omillar

1. Individlar tarqalish imkoniyatining chegaralanganligi
2. Individlarning joy tanlash xususiyati
3. Populyasiya tarqalishini chegaralashda biotik va abiotik omillarning roli
4. Yu.Libixning minimum qoidasi va uning ekologiyaga tadbiqu

Mavzu: Populyasiyaning asosiy dinamik ko'rsatkichlari

1. Asosiy dinamik ko'rsatkichlar
2. Populyasiyada tug'ilish va uni hisoblash usullari
3. Populyasiyada o'lim va hisoblash formulalari
4. Yashovchanlik egri chizig'i va uning tiplari

Mavzu: Populyasiya soni o'sishining eksponensial va logistik modellari

1. Populyasiya soni o'sishining eksponensial modeli, mohiyati, asosiy sharti va uning matematik tenglamasi
2. Populyasiyaning avlod yaratishning sof tezligi va o'sish tezligi
3. Eksponensial o'sish to'xtashining turli holatlari
4. Logistik yoki S shaklidagi o'sish, uning asosiy sharti va matematik ifodasi

Mavzu: Turli ekologo-senotik strategiyalar

1. Tabiiy tanlanishning ikki tipi haqidagi fikrlar.
2. r- va K –hayot strategiyalari hamda ularning xususiyatlari
3. Ramenskiy-Graymning ekologo-senotik strategiyalar sistemasi

Mavzu: Populyasiya soninig boshqarilishi

1. Populyasiyada modifikasiya va boshqarilish, ularni yuzaga chiqaruvchi omillar
2. Zichlikning muvozanat holati. Regulyasionizm va stoxastizm oqimlari
3. Zichlikka bog'liq va bog'liq bo'lmagan omillar

Mavzu: Populyasiyaning ichki boshqaruvchi omillari

1. O'z-o'zini boshqarish konsepsiyasi va uning mohiyati
2. Stress-mexanizm va uning yuzaga chiqishi
3. Boshqarilishning genetik mexanizmi. Populyasiyadagi davriy o'zgarishlar
4. Populyasiya soni boshqarilishining populyasiya zichligiga va organizmning oziq zanjiridagi o'miga boqliqligi

8.ЎҚУВ МАТЕРИАЛЛАРИ:

8.1.Маъруза матни

Ma'ruza 1 (2 soat)

MAVZU: Hozirgi zamon ekologiyasining muammolari.

Reja.

1. Ekologiyani o'rganishga ekosistemali yondashish.
2. Ekologiyani o'rganishga populyasiyali yondashish.
3. Populyasiyani tadqiq etishning xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: Ekologiya, populyasion tadqiqot, ekosistemali yondashish, populyasion yondashish.

Hozirgi vaqtda ekologiya tushunchasi tobora kengayib bormoqda. Dastlab "Ekologiya" tushunchasi biologlar tomonidan qo'llanilgan va bu fan organizmlarning o'zaro va atrof muhit bilan munosabatlarini o'rganuvchi fan sifatida shakllangan. Lekin hozirgi vaqtda ekologiya so'zi inson va atrof muhitning har qanday munosabatlarini ifodalash uchun ishlatilmoqda. Shuning uchun ekologiya so'zi ijtimoiy va siyosiy ma'noda tobora ko'proq ishlatilmoqda. Albatta bunday qarashlarga qarshilik qilishning hech qanday zarurati yo'q. Chunki hamma holatlarda bu tushunchaning vazifasi tabiatni saqlab qolish, insonning garmonik rivojlanishi, binobarin, biosferaning garmonik rivojlanishiga qaratilgan.

Ekologiya tadqiqot obyektlari juda turli - tuman va ko'p qirralidir. Shuning uchun ekologiyada boshqa aniq fanlar singari umumiy va aniq nazariya yo'q. Shunga qaramay ekologiya mazmuni va uslubi jihatdan bir butun fandir.

Ekologiyada turli yondashishlar mavjud bo'lib, ular bir-biridan o'z diqqatlarini turli obyektlarga yoki tadqiqot obyektlarining turli tomonlariga qaratishlari bilan farq qiladi.

Ekologiya turli yondashishlar orasida eng muhimlari - bu ekosistemali va populyasiyalik yondashishdir. Bu yondashishlar birgalikda butun ekologiyani qamrab olgan, lekin ekosistemali yondashish diqqat markaziga ekosistemani, populyasiya yondashish esa - populyasiyani qo'yadi. Bu ikki yondashish faqat tadqiqot obyektlari bilan farq qilavermaydi. Ba'zan bularning o'rganish obyekti bir xil bo'lsa ham, bu obyektlarni talqin qilish turlicha bo'ladi va tadqiqot usullari bir-biridan farq qiladi. Lekin bu yondashishlarning bittasi to'g'riroq deb aytish mumkin emas.

Ekosistemani ochik ta'riflash bir oz qiyin. Odatda ekosistema deganda birga yashaydigan turli organizmlar yig'indisi hamda ular atrofidagi fizik va kimyoviy komponentlarning birligi tushiniladi. Albatta bunday ta'rifda shu narsa tushuniladiki, ekosistemada o'lik komponentlar bilan birga asosiy biogen elementlarning to'liq aylanishini ta'minlaydigan produsent zvenolarni tashkil qiluvchi tirik organizmlar yig'indisi bo'lishi kerak. Ekosistemalarning chegarasi shartli ravishda belgilanadi. Chunki ekosistemalar orasida har doim modda va energiya almashinishi sodir bo'lib turadi.

Bundan tashkari turli xil elementlarning aylanish doirasi xam bir-biridan farq qiladi. Binobarin, ekosistemaning chegarasi xam turlicha buladi. Biogen elementlarning to'liq aylanish vahti xam turlichadir.

Ekosistemalarning hajmi va chegaralarini aniqlash qanchalik qiyin bo'lmasin, ko'pgina ekologlar aynan ekosistema ekologiyaning o'rganish obyekti deb qarashadi. Masalan, Yu. Odum, o'zining ekologiya darsligini ekosistema doirasida ishlab chiqqan. Shu nuqtai nazar bilan ispan ekolog R. M. Margalef ham qo'llab quvvatlaydi. R. Margalef ekologiyaga "Ekosistemalar biologiyasi" deb ta'rif beradi.

Shuni aytib o'tish kerakki, ekosistemali yondashishning o'zida ham turli yo'nalishlar mavjud. Bu yo'nalishlarning biri ekosistemalarning strukturasini o'rganishga asosiy e'tiborni qaratadigan biogeosenologiyadir. Biogeosenologining markaziy tushunchasi biogeosenozdir, ya'ni ma'lum teritoriyadagi o'zaro bog'langan organizmlar, hamda abiotik muhit komponentlari yig'indisi. Ekosistemalarning strukturasiga asosiy e'tibor beradigan yo'nalishda ekosistemaning tirik komponentlarining tarqalish xususiyatlari, soni asosiy diqqat markazida bo'ladi.

Ekosistemali yondashishning boshqa yo'nalishi ekosistemaning funktsiya qilishiga qaratilgan. Bunda asosiy e'tibor organizmlarning hayot-faoliyati jarayonlariga qaratiladi.

Agar strukturali, yo'nalishda asosiy e'tibor ekosistemaning tirik komponentlariga qaratilsa, funktsiyali yo'nalishda ekosistemaning abiotik komponentlariga ham katta e'tibor beriladi, bunda tadqiqot obyekti ekosistemadagi modda va energiya transformatsiyasi jarayonlari hisoblanadi.

Populyasiyalik yondashish. Populyasiyalarning o'rganishning asosiy xususiyatlari.

O'zining nazariy va amaliy ahamiyati jihatdan, tadqiqot usullarining xilma-xilligi jihatdan populyasiyalik yondashish ekosistemali yondashishdan qolishmaydi. Ekologiyani ekosistemalar haqidagi fan deyish bilan birga uni populyasiyalar haqidagi fan deyish ham mumkin. Populyasiyalik yondashish kanadalik tadqiqotchi Ch. Krebsning ekologiyaga bergan ta'rifida uz aksini topgan: "Ekologiya - organizmlarning tarqalishi va zichligini belgilaydigan munosabatlar haqidagi fandir."

Populyasiya yondashishda diqqat e'tibor ayrim turlarga qaratiladi. Ko'p hollarda - bu turlar xo'jalik ahamiyatga ega bo'lgan turlardir (zararkunandalar, sanoat ahamiyatiga ega organizmlar, kasallik ko'zg'atuvchi organizmlar va xakazo). Bunday tadqiqotda o'rganiladigan obyekt sifatida bir turdagi organizmlar to'dasi, ya'ni populyasiya xizmat qiladi.

Agar Ch. Krebsning ta'rifidan kelib chiqadigan bo'lsak, ekologlar oldida turgan vazifa organizmlarning qayerda tarqalganligi, nima uchun u yoki ularning soni aynan shunaqa, boshqacha emas, ularning soni qanday o'zgaradi degan savollarga javob topishdan iborat. Dastlabki qarashda bunday savollar juda xususiy, ekologiyaning umumiy qonuniyatlarini ochib berish uchun unchalik ahamiyati yo'qdek ko'rinadi. Lekin ekologiya tarixiga nazar tashlasak, aynan shu xususiy hodisalarni tahlil qilish asosida umumiy qonuniyatlarni ochishga erishish

mumkin. Har bir tur populyasiyasining ekosistemada zamon va makonda chegaralangan o'z o'rni bor. Shuning uchun ekosistema tushunchasi turli organizmlar nuqtai nazaridan turlicha bo'ladi. Masalan: shirinchalarning ba'zi turi butun hayotini 1ta daraxtda o'tkazadi. Uning populyasiyasi ko'p yillar shu daraxtda yashashi mumkin shirincha uchun ekosistema shu daraxt va uning yaqin atrofidan iborat. Shu daraxt o'sadigan o'rmonda yashaydagan sut emizuvchi hayvon uchun ekosistema bir necha o'n yoki yuz km² ni tashkil qiladi. Shunday ekan populyasiyalarni o'rganish uchun tadqiqot masshtabi ham turlicha bo'ladi. Turli populyasiyalarda o'tadigan jarayonlarning davomiyligi turlicha bo'lganligi uchun, populyasion tadqiqotlarning davomiyligi ham turlicha bo'lishi kerak. Masalan: o'sha yashirincha partenogenez yo'li bilan ko'payib, bir marta ko'payishda 30-40 ta qiz shirinchalar yuzaga keladi. 2-3 xaftadan bu organizmlar jinsiy yetilib kelgusi avlodni, ular esa yana avlod beraveradi. Bir yilda shirincha soni 100-1000 martaga ko'payadi. O'sha yerdagi sut emizuvchi hayvon bir yilda yoki ikki yilda bitta avlod beradi. Shuning uchun shirinchalar populyasiya o'rganilayotganda tekshirishlar tez-tez o'tkazilib turilishi kerak. Tadqiqotlar davomiyligi esa 1-2 yoki 3 yil bo'lsa kifoya. Sut emizuvchi hayvon populyasiyasi o'rganilganda kuzatishlar siyrakroq o'tkazilishi mumkin (2 - 6 oyda), lekin tadqiqotlar davomiyligi o'nlab yillargacha cho'zilishi kerak.

Populyasiyalarni o'rganishda asosiy e'tibor bir turdagi, kam hollar bir qancha turlarga qaratilar ekan, ekosistemadagi boshqa komponentlarga yashash muhiti komponentlari sifati qaraladi, yashash muhiti komponentlari juda ko'p. Bu komponentlarning hammasini organizmga ta'sirini o'rganish juda qiyin. Lekin atrof muhit komponentlarining ko'pchiligi organizmga juda kuchsiz ta'sir ko'rsatadiki, ularga e'tibor bermasa ham bo'ladi. Masalan, o'simliklar uchun oy yorug'ligining ahamiyati deyarli yo'q. Bundan tashqari, ba'zi komponentlar zurur bo'lsa ham ular xamma vaqt yetarli miqdorda bo'ladi va organizmlarning ko'payishi va tarqalishini cheklamaydi. Masalan, quruqlikda O² miqdori oragnizmning, populyasiyaning tarqalishi va sonining o'sishini chegaralovchi omillar uncha ko'p emas. Shuning uchun ular orasida ko'p va kamroq ahamiyatga ega bo'lgani ajratish mumkin. Shunday ekan tadqiqotchi populyasiyalarning tarqalish mexanizmlarini tushuntirib olish imkoniyatlariga ega.

Ba'zi omillar organizmga to'g'ridan-to'g'ri, ba'zilari bevosita ta'sir qiladi. Populyasiyalarni tadqiq qiluvchi tadqiqotchi oldida turgan asosiy vazifalardan biri muhim bo'lgan omillarni aniqlashdan iborat.

Populyasiyalarni tadqiq qilishda nafaqat u yoki bu hodisani yoritib berish kerak, balki shu hodisalarning sabablarini tushuntirib berish ham muhim. Ko'pincha hodisalarning sabablarini ochib berish reduksion yo'l bilan amalga oshiriladi. Murakkab jarayonlar biroz oddiyroq tarkibiy jinslarga ajratiladi. Masalan, populyasiya dinamikasini mexanizmlarini o'rganishda asosiy ko'rsatkich sifatida sonining o'zgarish tezligi emas, balki uni tashkil etuvchi mexanizmlar tug'ilishi va o'lishdan foydalaniladi. Tug'ilishi dinamikasini tahlil qilishda tadqiqotchi tug'ilish o'zgarishini tashqi muhit faktorlari bilan bog'laydi.

Har bir hodisani (populyasiyada) sababini qidirish turli darajada bo'lishi mumkin. Masalan, bulbullarning kuzda uchib ketishiga necha sabab ko'rsatish mumkin. U yoki bu sababini ko'rsatishdan oldin, ekolog tadqiqot qaysi darajada olib borilayotganini yaxshi tushinish kerak. Masalan, laboratoriyada achitqilar, un qo'ng'izi va sichqonlar ustidagi tajribada, har uch organizm populyasiyada individlar soni ma'lum darajaga yetgandan keyin, kamaya boshlaydi. Bu hodisaning sababi, bir xilga o'xshab ko'rinadi. Lekin achitqilarda - oziq muhitidagi etil spirtning ko'payib ketishi natijasida kannibalizm kuchayadi va o'sish to'xtadi. Sichqonlarda - sonining ko'payib ketishi fiziologik o'zgarishlar yuz beradi va nasl qoldirish qobiliyati pasayadi.

Demak tashqi ko'rinishdan bir hodisaga turli xil mexanizmlar sabab bo'lishi mumkin. Ekologik tadqiqotlarda hodisalarning faqat sabab - oqibat mexanizmlarini ochib berish bilan birga bu mexanizmlarning kelib chiqishini tushunib olish kerak.

Populyasiyalarni tadqiq qilishda shuni nazarda tutish kerakki, ba'zi tadqiqotchilar fikricha populyasiya-yuqori darajada tuzilgan birlik bo'lib, muhit o'zgarishiga ayrim olingan

organizm kabi javob beradi. Boshqa tadqiqotchilar fikricha populyasiya - aniq mavjud birlik emas, balki natijalarimizni qulay ko'rsatuvchi tushuncha (tasavvurimizdagi ideal obyekt).

Bunday qarashlarning mavjudligiga birinchidan tadqiqotchining fikrlash formasi sabab bo'lsa, ikkinchidan - populyasiyalarning xilma-xilligidir, ya'ni ba'zi populyasiyalarda yuqori tuzilgan bo'lib, o'z-o'zini boshqarish xususiyatiga ega bo'lsa, boshqalari yuqori darajada tuzilmagan, Individlar o'zaro ta'siri yaxshi ifodalangan va o'z - o'zini boshqarish mexanizmi rivojlanmagan.

Populyasiyaning ba'zi ko'satkichlari ayrim oldingi individlar orqali aniqlanadi. Masalan, organizmlarning og'irligi o'lchanganda, har bir individ o'lchanib, o'rtacha o'ymat chiqariladi.

Lekin ba'zi ko'satkichlar faqat populyasiyaga xos bo'lib, ayrim individga xos emas: masalan, tug'ilish, o'lish.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Ekologiya suzining mohiyatini qanday tushunasiz?
2. Ekosistemali yondashishning ma'nosini tushuntirib bering?
3. Ekologiyaga populyasiyali yondashishning mohiyati nima?

Ma'ruza 2 (2 soat)

Mavzu: Populyasiya tushunchasi

Reja:

1. Populyasiyaning murakkab tuzilma ekanligi.
2. Populyasiyani tushunishga genetik nuqtai-nazar.
3. Populyasiya tushunchasiga ekologik nuqtai-nazardan yondashish va populyasiyaning ekologik ta'rifi.

Tayanch tushunchalar: Populyasiya, populyasiyaning genetik ta'rifi, gemipopulyasiya, populyasiyaning ekologik ta'rifi. Populyasiya ko'rsatkichlari.

Organizmlarning qanday majmuasini populyasiya deyish mumkinligini ustida xar doim tortishuvlar bulib kelgan. Chunki birinchidan populyasiya tushunchasi fakat ekologlargina emas, balki genetiklar va mikroevolyusiya tadqiqotchilarini ham qiziqtiradi. Binobarin ular populyasiyani turlicha talqin etishadi. Ikkinchidan populyasiya murakkab strukturali bo'lib, u yanada kichikrok birliklarga ajraladi. Ko'p xollarda ekologlar xam populyasiya tushunchasini ma'nosi haqida o'ylamay u yoki bu territoriyada tarqalgan ma'lum tur individlarning yig'indisi deb tushunadilar. Masalan: ekosistemani tahlil qiluvchi ko'pchilik tadqiqotchilar shunday tushunadilar. Populyasiya deganda ular ekosistemaga kirgan bir tur individlarining majmuasini tushunadilar. Populyasiyaning strukturasi geterogenli individlarning xilma - xilligini nazardan chetda qoladi. Lekin populyasiyani o'rganuvchi ekologlar albatta uning strukturasi geterogenligi bir individning boshqasiga o'xshamasligi hisoblanishiga majburdirlar. Populyasiyaning genetik tarkibini bilish individlar sonining o'zgarishi aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Genetiklar odatda populyasiya deganda u yoki bu darajada alohidalashgan o'z - o'zini yarata oladigan o'zaro genetik bog'langan individlavr guruxini tushunadilar. Dastlab genetika erkin chatishish yuz beradigan individlar guruxini populyasiya deb qaraganlar. Lekin keyinchalik bunday individlar majmui tabiatda juda kam uchrashi aniqlandi. Bundan tashkari tabiatda o'z - o'zidan changlangan yoki fakat vegetativ yo'l bilan ko'payadigan turlar ham mavjud. Shuning uchun genetiklar hozirgi vaqtda populyasiyaga ta'rif berganlarida erkin chatishtirish haqida gapirmaydilar.

Ba'zi olimlar masalan: S.Shvars, A.B.Yablokov populyasiya terminini faqat uzoq vaqt boshqa analogik guruxlar bilan aloqasiz yashay oladigan organizmlar majmuiga nisbatan qo'llash mumkin deb talqin qiladilar. Lekin bunday holatni aniqlash juda qiyin chunki tadqiqot va kuzatishlarning bunga uzoq davom ettirishning iloji yo'q. Bundan tashqari populyasiyalar hayoti davomiyligini astronomik vaqt emas, balki biologik soat bilan oddiyroq qilib, avlodlar soni bilan o'lchashimiz kerak.

Genetiklar va mikroevolyusiya mutaxassislari kichik guruxlarini populyasiya deb atashdan o'zlarini tiyadilar, chunki genetik jihatdan bu guruxlarni yetuk deb hisoblamaydilar, xamda bu guruxlar inbriding ta'siriga bardosh bera olmasligi mumkin. Haqiqatdan ham populyasiyalar qanchalik kichik joyda tarqalgan bo'lsa, ularda geterozeggotlik shunchalik kam bo'ladi.

Lekin kichik guruxlar ham ba'zan yetuk populyasiyalar berishi mumkin. Masalan: bir joydan ikkinchi joyga keltirilgan individlar kupincha yetuk populyasiyalarga aylanadi. Bundan tashqari juda kichik genetik o'zgaruvchanlikka ega turlar ham bor. Kichik guruxlarning uzoq vaqt mavjud bo'la olishi yoki olmasligi faqat ularning genetik xilma - xilligiga emas, balki ekologik sharoitiga ham bog'liqdir. Keyingi vaqtlarda kichik guruxlar ham yetuk populyasiyalarga aylanishi mumkinligiga ishonch ancha o'sdi. Chunki har qanday organizm neytral mutasiyalar orqali genetik o'zgarish imkoniyatlariga ega ekanligi aniq bo'lib qoldi.

Ekologiyada ekosistemali yondashadigan ekologlar odatda populyasiya deganda, ekosistema tarkibiga kirgan turning barcha individlari majmuini tushunadilar. Bunday ta'rifning kamchiligi shuki, ekosistema chegarasini aniq aytish qiyin. Lekin ba'zi xollarda bu qarash o'zini oqlaydi.

Populyasiyalarni o'rganuvchi tadqiqotchiga bu tushuncha yetarli emas. Chunki birinchidan shunday holatlar ham borki bir tur individlari bir ekosistemadan boshqasiga o'tib turishi mumkin. Maslan: ninachilarning lichinkasi suvda rivojlanadi, yetuk davri quruqlikda. Bunday turli yashash muxitida hayot faralarini o'tkazadigan bir tur individlari majmuini V.N. Beklemishev gemipopulyasiyalar deb atagan.

Ikkinchidan, bir ekosistemada genetik jihatdan alohidalashgan bir necha populyasiyalr yashashi mumkin va ularning ekologik xususiyatlari turlicha bo'lishi mumkin.

Populyasiyalarni talqin qilishda organizmni barcha hayotiy davridagi e'tibor berish kerak, qaysi ekosistema tarkibiga kirishidan qat'iy nazar. Shundagina populyasiyada yuz bergan hodisalarni tushunib olish mumkin. Masalan: bentos yashaydigan dengiz yulduzi populyasiyasida vaqti-vaqti bilan yoppasiga ko'payish yuz beradi. Ular marjon riflar bilan oziqlanadi. Uzoq va yoppasiga ko'payishning sababi olimlarga qorong'i bo'lib keldi. Dengiz yulduzining lichinka stadiyasini o'rganish natijasida bu savolga javob topildi. Aniqlanishicha uning lichinkalari plankton holatida yashaydi va 3 yil rivojlanadi. Fitoplankton soni yuqori bo'lgan yillarda lichinkalar yaxshi rivojlanar ekan va keyinchalik dengiz yulduzlarining yoppasiga ko'payishi bentosda sodir bo'lar ekan.

Ba'zi hollarda ekologlar populyasiya deb hisoblovchi individlar majmui genetik jihatdan bunday aniqlashga mos kelmaydi, chunki individlar o'rtasida gen almashinish sodir bo'lmaydi. Masalan, kichik suv havzasida yashaydigan dafniyani genetik ta'sir qilish natijasida 5 ta partenogenez yo'li bilan ko'payadigan klonlar aniqlangan. Agar ekologiyani shu havzadagi dafniyaning zichligi, konkurentlar bilan aloqasi qiziqтира, u bu klonlarning hammasini bitta populyasiya deb qarashi mumkin.

Agar populyasiyadagi hodisalarning nozik mexanizmlari aniqlashi kerak bo'lsa, bu majmuaning ichki strukturasi ko'proq e'tibor berish to'g'ri keladi.

Umuman turning arealida bir-biri bilan bog'langan turli guruhlarni ajratish mumkin. Tadqiqotchi oldiga qo'yilgan aniq vazifaga bog'liq holda bu guruxni populyasiya deb qarash yoki qaramaslik mumkin.

Shunday kilib, ekologik jihatdan populyasiyaga quyidagicha ta'rif berish mumkin .

“Populyasiya – o'z - o'zini yaratishga qobiliyatli, shu turning boshqa individlar majmuasidan makonda va zamonda alohidalashgan bir turga mansub individlar majmuasidir”.

Populyasiya individlar majmuasi sifatida ayrim olingan individlardan quyidagi belgilari yoki ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi:

- 1). Populyasiya soni - ajratilgan maydondagi individlarning umumiy soni;
- 2). Populyasiya zichligi - maydon yoki hajm birligidagi individlar soni;
- 3). Tug'ilish - vaqt birligida ko'payish natijasida paydo bo'ladigan yangi indivilar soni;
- 4). O'lim - ma'lum vaqtga nobud bo'lgan individlar sonini ko'rsatadigan ko'rsatkich;

- 5). Populyasiya sonining o'sishi - o'lim va tug'ilish o'rtasidagi farq;
- 6). O'sish tezligi - vaqt birligi ichida populyasiya sonining o'sishi;

Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar.

1. Populyasiyani ta'riflashda turli fanlarning qarashlari bir-biridan farq qiladimi?
2. Populyasiyaning ekologik ta'rifini ayting?
3. Populyasiyaning qaysi ko'rsatkichlari ayrim olingan individ uchun xos emas?

3-Ma'ruza (2 soat)

Mavzu: Populyasiyaning statik ko'rsatkichlari. Populyasiya strukturasi.

Reja:

1. Populyasiyaning statik va dinamik ko'rsatkichlari
2. Populyasiyaning soni va zichligi
3. Populyasiyaning jins tuzilmasi
4. Populyasiyaning jins tuzilmasi

Tayanch tushunchalar: statik ko'rsatkich, dinamik ko'rsatkich, populyasiya soni, populyasiya zichligi, populyasiya tuzilmasi, jins tuzilma, yosh tuzilma, invazion populyasiya, regressiv populyasiya, normal populyasiya.

1. Populyasiya strukturasi deganda - populyasiyani bir- biri bilan bog'langan har qanday tarkibiy qismlarga ajratish tushuniladi. Populyasiyada jins, yosh, genetik va ekologik strukturalar farq qilinadi.

Populyasiyalarni o'rganishda asosan ikki guruh miqdori ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Bularning 1-si statik ko'rsatkichlar bo'lib - populyasiyaning ma'lum vaqtdagi holatini tavsiflaydi. Ikkinchisi dinamik ko'rsatkichlar bo'lib ma'lum vaqt oralig'ida populyasiyada o'tadigan jarayonlarni tavsiflaydi. Statik ko'rsatkichlarga populyasiya soni va zichligi hamda populyasiya strukturasi ko'rsatkichlari (yosh, jins va boshqa strukturalar) kiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, statik ko'rsatkichlar albatta doimiy bo'lmasdan, vaqt davomida o'zgarib turishi mumkin. Lekin bu o'zgarishlar intensivligi dinamik ko'rsatkichlar bilan baholanadi.

2. Populyasiya soni deganda mazkur populyasiyadagi individlar umumiy soni tushuniladi. Tabiatdagi populyasiyalar individlar sonini aniqlash juda qiyin. Lekin, ayniqsa «Qizil kitob»ga kiritilgan turlar uchun bu ko'rsatkichni aniqlash muhim o'rin tutadi. Ko'pchilik hollarda populyasiya soni, oddiy sanash yo'li bilan aniqlanadi. Ba'zan populyasiya sonini aniqlashda individlarga belgi qo'yish usuli qo'llaniladi.

Ko'pchilik hollarda populyasiyadagi individlarning umumiy sonini aniqlash imkoniyatlari bo'lmaydi. Shuning uchun alohida namunalari olinib, bu namunadagi individlar soni aniqlanadi. Bunday holatlarda aniqlanadigan kattalik populyasiya soni emas, balki populyasiyaning zichligidir, ya'ni ma'lum joydagi individlar soni.

Har bir guruh organizm uchun zichlikning o'ziga xos baholash va ifodalash usullari mavjud. Masalan, o'tchil o'simliklar populyasiyasining zichligi to'rtburchak yoki aylana ramkalar yordamida o'lchanadi. Bunda ramka yerga o'rnatilib, uning ichidagi o'simliklar sanaladi. Bentos organizmlar mahsus cho'michlar bilan suv tubi loyqasini ma'lum yuzasini kesib olib sanaladi. Plankton organizmlar esa plankton sutkalar bilan yoki batometr yordamida ma'lum hajmdagi suvni olib aniqlanadi. Quruqlik va bentos o'simlik va hayvonlarning zichligi ko'pincha maydon birligidagi organizmlar sonida ifodalanadi. Plankton organizmlar zichligi esa hajm birligidagi yoki yuza birligidagi organizmlar soni bilan ifodalanadi.

Ba'zan populyasiya zichligi ma'lum yo'nalish bo'yicha organizmlarning uchrashi soni bilan o'lchanadi. Masalan, qushlarni zichligi yoki qishda sut emizuvchilarni qordagi iziga qarab zichligi aniqlanadi.

Ba'zi hollarda populyasiya zichligi bilvosita ifodalanadi, ya'ni zichlik bilan bog'liq ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi. Masalan, baliqlar zichligini ovning hajmiga qarab o'lchash, hayvon zichligini bir yilda tayyorlov sexiga topshirilgan mo'yna miqdoriga qarab aniqlash yoki tutkichlarga tushgan organizmlar soniga qarab zichlikni aniqlash va x.o.

Populyasiyadagi turli jinsdagi, turli yoshdagi hamda morfologik, fiziologik, genetik, ekologik o'z xususiyatlariga ega. Guruhlarning o'zaro nisbati populyasiya strukturasi yoki populyasiya tuzilmasini ifodalaydi. Qisqa qilib aytganda populyasiyada turli sifat darajasidagi guruhlarining nisbati populyasiya strukturasi ifodalaydi.

3. Populyasiyaning jins tuzilmasi deganda populyasiyadagi turli jinsdagi organizmlarning ya'ni erkak va urg'ochi individlar nisbati tushuniladi. Ko'pchilik turlarda individlar jinsi urug'lanish jarayonida jinsiy xromosomalar kombinatsiyasi bilan aniqlanadi. Bu jarayon zigotalar jinsining teng nisbatini ta'minlaydi. Lekin bunday nisbat umuman populyasiya uchun xos deyish to'g'ri emas. Erkak va urg'ochi individ fiziologiyasi, ekologiyasi va xulq-atvori bilan bir-biridan farq qiladi. Natijada turli jinsdagi individlarning yashab qolish imkoniyatlari turlicha bo'ladi, binobarin jinslar nisbati ham o'zgarishi mumkin.

Ba'zi organizmlarda urg'ochi va erkak jinslar o'rtasidagi ekologik va xulq-atvori jihatidan farq kuchli ifodalangan bo'ladi. Masalan, chivinlarning urg'ochisi qon surib oziqlansa, erkagi yetuk davrida oziklanmaydi yoki ba'zi turlari nektar bilan oziqlanadi. Urg'ochi va erkak organizmlarning ko'pchilik fiziologik xususiyatlari bilan farq qiladi. Masalan, o'sish tezligi, jinsiy yetilish vaqti ochlikka va harorat o'zgarishiga chidamliligi va x.o. Albatta, populyasiyaning jins strukturasi populyasiyada turli jinslar mavjud bo'lganda mavjud bo'ladi. Germofrodit va partonegenetik formalar haqida gapirganda jins strukturasi mavjud emasdek tuyuladi. Lekin germofrodit organizmlarda ham o'ziga xos jinsiy jarayon kuzatiladi. Partenogenetik formalarining ko'pchilik populyasiyalarida erkak organizmlar uchrab turadi. Shuning uchun populyasiyaning jins strukturasi ko'pchilik turlar uchun universal xususiyat bo'lib xizmat qiladi.

Ko'p xollarda populyasiyaning 1- lamchi, 2- lamchi, 3- lamchi strukturasi farq qilinadi.

Populyasiyaning 1- lamchi strukturasi meyozi jarayonida jinsiy xromosomalarning hosil bo'lishi va keyinchalik qo'shilishi bilan aniqlanadi, hamda 1: 1 nisbatga yaqin bo'ladi. Lekin xamma vaqt ham bunday nisbat kuzatilmaydi. Masalan, drozofilaning ayrim turlarida asosan X- xromosomal spermatozoidlar hosil qiluvchi populyasiyalar aniqlangan. Bu hodisa X- xromosomada joylashgan ma'lum gen ta'sirida U- xromosomal spermatozoidlarning nobud bo'lishiga asoslanganligidir.

Baliqlarning ayrim turlarida faqat urg'ochi individlardan iborat populyasiyalar aniqlangan.

Populyasiyalarda hayotning keyingi davrlarida shakllanadigan jinslar nisbati 2- lamchi jins strukturasi hosil qiladi. 2- lamchi jins strukturasi yuzaga kelishi turli biologik va ekologik omillarning ta'siriga bog'liq. Birinchi navbatda bu yashab qolish imkoniyatlariga bog'liq. Turli jinsdagi individlarning nobud bo'lishidagi farq embrion taraqqiyot davridayoq yuzaga chiqadi. Masalan, odatda populyasiyalarida tug'iladigan individlar orasida urg'ochilari erkagiga nisbatan 1,5 barobar ko'proq bo'ladi. Pingvinlarning ba'zi turlari populyasiyasida tuxumdan chiqqan qushlarda jins nisbati deyarli teng bo'lsa, 10 yoshli davrida har ikki erkak individga 1 ta urg'ochisi to'g'ri keladi. Ba'zi qo'lqanotlilarda qishki uyqudan keyin urg'ochi individlar miqdori 20 % gacha kamayadi.

Tashqi muhit sharoitlari ta'sirida populyasiyadagi jinslar nisbati o'zgarishi mumkin. Masalan, o'rmon chumolilarida + 20° S dan past haroratda qo'yilgan tuxumlardan erkak individlar rivojlanadi, yuqori haroratda esa - urg'ochi individlar rivojlanadi. Chunki + 20° S dan past haroratda tuxumlar urug'lanmaydi va ulardan erkak organizmlar urug'langan tuxum xromosomalaridan esa urg'ochi organizmlar rivojlanadi.

Tashqi muhit haroratining populyasiya jins tuzilmasiga ta'siri, ayniqsa, jinsiy va partonegenetik avlodlar almashinadigan turlarda yaqqol kurinadi. Masalan, dafniya optimal haroratda partenogenetik yo'li bilan ko'payadi. Haroratning ko'tarilishi va pasayishi natijasida

erkak individlar ham paydo bo'ladi. Shirinchalarda turli jinsdagi individlarning yuzaga kelishiga kun uzunligining o'zgarishi, harorat, individlar zichligi va boshqa omillar sabab bo'lishi mumkin.

Ba'zi turlarda jins dastlab genetik holda emas, balki ekologik omillar ta'sirida aniqlanadi. M-n, Arisama degan o'simlikda bu jarayon tugunakdagi ozik miqdoriga bog'liq. Yirik tugunaklardan urug'li gulli o'simlik, mayda tugunaklardan changchili gulli o'simlik o'sib chiqadi.

Ba'zi hollarda populyasiyaning birlamchi jins tuzilmasi xakida xam gapiriladi. Populyasiyaning 3 - lamchi jins tuzilmasi deganda, jinsiy yetilgan, ko'payadigan individlar orasidagi erkak va urg'ochi individlar nisbati sezilarli ravishda o'zgaradi. M-n, ba'zi sut emizuvchilar va odamlar populyasiyasida katta yoshdagi guruhlarda erkak individlar miqdori kamayadi.

Lekin populyasiyada 3- lamchi jins nisbatini hamma vaqt ham aniqlab bo'lavermaydi. Chunki ba'zi populyasiyalarda jinsiy yetuk organizmlarni aniqlash qiyin bo'ladi. Hali yetilmagan individlar ham ko'payishda ishtirok etishi mumkin.

Shunday qilib populyasiyaning jins tuzilmasi populyasiyaning murakkab xususiyatlaridan biri bo'lib, turli populyasiyalar o'ziga xos, spesifik jins tuzilmasiga egadirlar.

4. Populyasiya har bir individ nafaqat ma'lum jins guruhi tarkibiga, balki ma'lum yoshdagi yoki ma'lum avlod kabi vaqtinchalik gurux tarkibiga ham kiradi. Shuning uchun har qanday populyasiya o'zining yosh tuzilmasiga ham ega. Populyasiyaning yosh tuzilmasi o'z - o'zini yaratish jadalligi, o'lish darajasi, avlod almashinish tezligi kabi muhim jarayonlarni aks ettiradi.

Populyasiyaning yosh tuzilmasi quyidagi usullarda ifodalanishi mumkin.

- 1) turli yoshdagi individlar guruhi nisbati orqali
- 2) turli avlodlar nisbati orqali
- 3) predreproduksion, reproduksion va postreproduksion davrlar doimiyligining nisbati orqali
- 4) individlarning rivojlanish va o'sish xususiyatlari orqali

Individlarning yoshiga bog'liq holda ularning yashash muhitiga va alohida omillarga talabi sezilarli o'zgarib turadi. Ontogenezning turli bosqichlarida organizmlarning yashash muhiti, oziqlanish usuli, harakatlanish xususiyatlari, faolligi almashinib turishi mumkin. Ayrim hollarda bir turga mansub turli yoshdagi guruhlar o'rtasidagi farq turli turlar o'rtasidagi farqlarga nisbatan kuchliroq ifodalangan bo'ladi. M-n, baqalarning yetuk davri va lichinkasi, kapalaklar va ularning lichinkasi va x.o.

Turli yoshdagi guruhlar o'rtasida hayot tarzida farqlar shuncha olib keladiki, ba'zi funksiyalar to'lig'iga rivojlanishning ma'lum bosqichlarida bajariladi. Masalan: hasharotlarning ko'pchiligi yetuk davrida deyarli oziqlanmaydi. Oziqlanish va o'sish lichinka bosqichida amalga oshiriladi. Yetuk davri esa tarqalish va ko'payish vazifasini bajaradi.

Populyasiyada yosh jihatidan bir-biridan farq qilishi populyasiyaning ekologik xilma-xilligini kuchaytiradi, bu esa noqulay tashqi muhit sharoitlaridan turning yashab qolish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'simlik populyasiyalarida yosh tuzilmasi turli yoshdagi individlar nisbatida ifodalanadi. Individlarning yosh holati - uning tashqi muhit bilan ma'lum munosabatlarini tavsiflaydigan Ontogenezning ma'lum bosqichida.

Mustaqil ish topshiriqlari. O'simlik populyasiya yosh tuzilmasida quyidagi guruhlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

O'simta - tuzilishi jihatdan sodda, 2 yo'l bilan oziqlanadigan (urug'dagi zapas oziqa va qisman mustaqil) kichik o'simliklar.

Yosh o'simliklar - mustaqil oziqlanadi, shoxlanmagan yoki shoxlanish boshlangan, barglari unga yirik bo'lmagan o'simliklar.

Yetuk vegetativ o'simliklar - yer usti va yer osti organlari to'liq shakllangan, lekin reproduktiv organlari hali yo'q. Bu o'simliklar keyinchalik gul va meva hosil bo'lishi bilan

generativ bosqichga o'tadi. Generativ bosqichga o'tishda organizm fiziologik va bioximik o'zgarishlar yuzaga keladi. Transpirasiya va fotosintez tezligi oshadi.

Yosh generativ o'simliklar - gullaydi, meva hosil qiladi, o'simlik yetuk shaklga kiradi.

O'rta yoshli generativ o'simliklar - har tomonlama yetuk, eng yuqori o'sish va urug' hosil qilishga qobiliyatli o'simliklar.

Qari generativ o'simliklar - reproduktiv funksiyasi zaiflashgan, shoxlanish va ildiz o'sishi jarayonlari sekinlashgan o'simliklar. Bu usimliklarda yemirilish jarayoni yangilanish jarayonidan ustun.

Qari vegetativ o'simliklarda meva xosil qilishi to'xtagan o'simlik, yemirilish jarayoni ko'payadi, ildiz va shoxlari orasidagi boglanish zaiflashadi.

O'layotgan individlar - o'lchamlari kichiklashgan ko'pchilik hujayralari o'lgan o'simliklar. O'simlik populyasiyasida individlarning yosh holatiga qarab taqsimlanishi yosh spektri deb ataladi. Agar populyasiya yosh spektri faqat urug' va o'simtalardan iborat bo'lsa, bu populyasiya invazion populyasiya deb ataladi. Yosh biosenozda endi shakllanayotgan populyasiyalar shunday populyasiyadir. Bunday populyasiya o'z-o'zini boshqarishga qodir emas. Agar populyasiya barcha yoshdagi guruhlardan iborat bo'lsa, normal populyasiya deyiladi. Bunday populyasiya mustaqil va o'z-o'zini boshqara oladi. Generativ va vegetativ qari individlardan iborat populyasiya regressiv populyasiya deb ataladi. Invazion, normal va regressiv populyasiyalar bir-biriga o'tib turadi.

Senopopulyasiyalar yosh tuzilmasi turning biologik xususiyatlari tomonidan belgilanadi, hamda tashqi muhit sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Senopopulyasiyaning yosh spektri uning holati va o'zgaruvchan yashash muhitiga moslashganlik darajasini aks ettiradi.

Hayvonlarda ko'payish xususiyatlariga qarab individlar bitta yoki turli avlodlarga tegishli bo'lishi mumkin. Agar populyasiyadagi individlar bir avlodga tegishli bo'lsa, ular yosh jihatdan bir - biriga yaqin va deyarli bir vaqtda hayot bosqichlarini o'tadi. Bunday populyasiyalarda turli hayot bosqichlari va ko'payishi muddatlari yilning ma'lum mavsumlariga to'g'ri keladi.

Bir vaqtning o'zida turli avlodlari mavjud bo'ladigan turlarda populyasiya yosh tuzilmasi murakkabroq bo'ladi. Masalan, may qo'ng'izi lichinkalari populyasiyasida 4 ta avlod individlari mavjud bo'ladi.

Yuksak hayvonlarda ko'p marta ko'payish va yetuk individlarning uzoq vaqt yashashi natijasida populyasiyaning yosh tuzilmasi yanada murakkabroq bo'ladi. Bunday populyasiyalar nisbatan doimiy bo'ladi. Ekspluatasiya qilinadigan tabiiy populyasiyalarning yosh tuzilmasini aniqlash juda muhim ahamiyatga ega. Tiklanish imkoniyatlari keng bo'lgan populyasiyalardan soniga zarar yetkazmasdan ko'proq foydalanish mumkin.

Populyasiyalar yosh tuzilmasini tahlil qilish natijasida uning kelgusidagi sonini bashorat qilishi mumkin. Bunday tahlil ayniqsa baliqchilikda keng qo'llaniladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Populyasiyaning statik va dinamik ko'rsatkichlari deganda qanday ko'rsatkichlarni tushunasiz.
2. Populyasiya soni va zichligini tushuntirib bering.
3. Populyasiya tuzilmasi nima.
4. Populyasiyaning jins va yosh tuzilmasiga ta'rif bering.
5. O'simliklardagi invazion, normal va regressiv populyasiyalar bir-biridan qanday farq qiladi.

4-Ma'ruza (2 soat) MAVZU: Populyasiyaning joyda (makonda) taqsimlanishi

Reja:

1. Populyasiya egallagan maydonda individlarning taqsimlanish maydoni

2. Hayvonlar populyasiyasida maydonga oid munosabatlar

3. Shaxsiy maydon tushunchasi.

Tayanch tushunchalar: Joyda taksimlanish, tekis taksimlanish, tasodifiy taksimlanish, nuqtali taksimlanish, xavfning taksimlanish, maydonga oid munosabat, shaxsiy maydon.

Populyasiya egallab turgan joydagi resurslardan to'liq foydalanish nafaqat populyasining soniga, balki populyasiya individlarning joyda taqsimlanish xususiyatlariga ham bog'liq.

Populyasiya individlari joyda taqsimlanishi bir tomondan tashqi muhit sharoitlarining individlarga nisbatan turli - tumanligiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan organizmlarning biologik xususiyatlariga birinchi navbatda ularning harakatchanligi va jinslashganligi bog'liq. Populyasiya zichligini aniqlashda individlarning joyda taqsimlanishi xususiyatlarini bilish katta ahamiyatga ega, chunki tadqiqotchi hamma vaqt tanlangan kichik maydondlarda tadqiqot o'tkazib keyin o'rtacha qiymatni aniqlaydi. Populyasiya individlarining joyda taqsimlanishi turli - tuman bo'lib, ularni asosan uch xil ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Tasodifiy taqsimlanish.

2. Tekis taqsimlanish.

3. Nuqtali yoki agregasiyali taqsimlanish.

Tasodifiy taqsimlanish tabiatda nisbatan kamroq uchrasada, lekin turli sistematik guruhlardagi organizmlarda kuzatish mumkin.

Tasodifiy taqsimlanishda individlar populyasiya egallagan joyda tasodifiy ravishda bir joyda zichroq, ikkinchi joyda siyrakroq, uchinchi joyda umuman uchramasligi mumkin.

Individlarning bunday taqsimlanishiga qanday abiotik va biotik omillar sabab bo'lishini aytish qiyin. Lekin bu omillarning ta'sir kuchi zamon va makonda tasodifiy ravishda o'zgarib turadi. Omillarning populyasiya egallagan joyning u yoki bu qismlarida tasodifiy o'zgarib turishi ko'p uchraydi. Keyingi yillarda diqqat e'tiborni tortayotgan "xavfning taqsimlanishi" konsepsiyasiga binoan, populyasiyada noqulay ta'sir qiluvchi, omillar zamon va makonda tasodifiy taqsimlangan. Binobarin, tasodifga duch kelgan populyasiya yoki populyasiyaning bir qismi noqulay ta'sir natijasida nobud bo'ladi. Demak, arealda individlarning taqsimlanishi yuzaga keladi. Lekin katta maydondagi populyasiyaning o'rtacha zichligi deyarli o'zgarmaydi, chunki ofat hamma joyda birdan sodir bo'lmaydi.

Nuqtali yoki agregasiyalangan taqsimlanish tabiatda ko'proq uchraydi. Bunday taqsimlanish nafaqat quruqlik organizmlariga, balki ko'pchilik suvda yashovchi organizmlar uchun xam xos. Nuqtali yoki agregasiyalangan taqsimlanishda populyasiya tarqalgan maydonning ayrim qismlarida individlar to'p- to'p bo'lib joylashgan bo'ladi. Individlarning to'dalanish va jipslashish darajasi hamda ularning bir-biriga nisbatan joylashishi keng miqyosida o'zgarib turishi mumkin. Ko'pchilik vegetativ ko'payadigan o'simliklar, to'da bo'lib yashaydigan hayvonlar uchun shunday taqsimlanish xosdir. Organizmlarning agregasiyalangan taksimlanishiga sababchi omillar turli tuman. Ular orasida quyidagi asosiylarini ko'rsatib o'tish mumkin: 1) Turli abiotik faktorlar (harorat, yorug'lik, biogen elementlar konsentratsiyasi va hokazo) o'zgarishning yo'nalishi. 2) Ko'payish usuli va yosh individlarning tarqalishi bilan bog'liq bo'lgan omillar. 3) Xulq - atvor xususiyatlari (to'da koloniya hosil qilish va x). 4) Turlar o'rtasidagi o'zaro ta'siriga bog'liq omillar (raqobat, yirtqichlik va x.lar).

Ba'zi hollarda organizmlarning joyda taqsimlanishi tavsifi populyasiyaning rivojlanishiga va populyasiya sonining o'sishi yoki kamayishiga qarab o'zgarib turishi mumkin.

Dastlab tasodifiy taksimlanishga ega populyasiyalarda qulay sharoit bor joylar tez ko'payadi va agregasiyalangan holatga o'tadi. Nuqtali yoki agregasiyalangan taqsimlanish xos populyasiyalarda populyasiya chegarasida bo'sh, individlar uchramaydigan maydonlar uchraydi. Tekis taqsimlanish juda ko'p turlarga xos taqsimlanishdir. Masalan, inson tomonidan yaratilgan mevali bog'lar yoki o'tloqlar ham shunday taqsimlanishga misol bo'ladi. Tabiatda bunday qat'iy tekis tarqalgan populyasiyalarni topish qiyin. Lekin nisbatan tekis taksimlanishga ega populyasiyalar juda ko'p. Bir individning ikkinchi individga juda yaqin joylashish ehtimoli

kam bo'lgan hollarda tekis taqsimlanish kuzatiladi. Boshqacha aytganda, individning bir-biriga nisbatan joylashishida antogonistik munosabatlar mavjud bo'lgan hollarda.

Antogonistik munosabatlar natijasida yuzaga keladigan tekis taqsimlanish ko'p uchraydi. Masalan, bosh oyoqli mollyuskalar ayrim vakillarining o'troq lichinkalari o'z turiga mansub individlarga yaqin joylashmaydi yoki o'simliklarning zichligi kam populyasiyalarda tekis taqsimlanish kuzatiladi. Zichligi yuqori archazorlarda ham daraxtlar bir-biridan ma'lum uzoqlikda joylashib, tekis taqsimlanish hosil qiladi. Bir-biriga juda yaqin joylashgan daraxtlarning bittasi yorug'lik yetishmasligi natijasida rivojlanishdan to'xtaydi.

Cho'l va chalacho'llarda o'sadigan ko'pchilik o'simliklar populyasiyada ham individlar tekis taqsimlangan bo'ladi. U yoki bu darajadagi tekis taqsimlanish hayvonlar orasida ham ko'p uchraydi, ayniqsa o'zlari yashaydigan maydonlarini shu turning boshqa individlaridan himoya qiladigan hayvonlarda. O'zi tarkalgan maydonni qo'riqlash xususiyati keng oziq spektoriga ega bo'lgan o'txo'r hayvonlarda yaxshi ifodalanmagan. Bunday xususiyat asosan yirtqich va bir yoki bir necha tur o'simliklar bilan oziqlanadigan hayvonlarga xosdir.

Oksford atrofidagi katta chittak populyyasiyasinı kuzatish natijasida (Krebs, 1971) bu kushlarning uyasi bir biriga nisbatan bir tekis joylashganligi aniqlangan. 15 ga o'rmondan iborat maydonda joylashgan 16 juft chittakning 6 jufti tadqiqot uchun tutib olingan. Uch kundan keyin bo'shab qolgan joyga 4 juft yangi chittaklar kelib o'mashib qolgan. Bundan tashqari oldin mavjud bo'lgan juftlar o'z egallagan maydonlarda bunday o'zini tutishi populyasiya zichligining oshib ketishi chegaralab turadi. Bunday mexanizm individlarning yetarlicha oziq bilan ta'minlaydi va yirtqichlarga yem bo'lish imkoniyati pasaytiradi. Natijalarni tahlil qilish uyalari orasidagi o'rtacha masofa qanchalik kichik bo'lsa yirtqichlar tomonidan yo'qotiladigan tuxumlar soni shuncha yuqori bo'lgan.

Har qanday aniq vaziyatda individlarning joyda taqsimlanish tiplari moslashishga qaratilgan, ya'ni mavjud resurslardan optimal foydalanishga imkon beradi. Amaliyotda qayd qilib o'tilgan individlarning joyda taqsimlanish tiplarini aniqlashda turli xisoblash usullari qo'llaniladi. Eng oddiy usul kuzatilgan taqsimlanish dispersiyasini aniqlash va uni zichlikning o'rtacha qiymati bilan solishtirishdir. Masalan, o'tlokda ma'lum bir tur o'simlikni olamiz. Populyasiyaning o'rtacha zichligi va joylashishini aniqlash uchun maydonning tasodifiy tanlab olingan qismlarida standart ramka (0,5 m kv) joylashtirib, bu ramkaga tushgan shu tur o'simlikni sanaymiz. Tajribani ko'p marta takrorlaganda keyin, bitta ajratilgan maydonchaga to'g'ri keladigan o'simliklarning o'rtacha sonini hisoblab chiqaramiz. Olingan qiymat populyasiyaning zichligini ifodalaydi. Keyin dispersiyani hisoblab topamiz. Agar individlarning joyda taqsimlanish tasodifiy bo'lsa dispersiya o'rtacha qiymatga teng bo'ladi, ya'ni tekis taqsimlanish dispersiya o'rtacha qiymatdan kichik bo'ladi.

Dispersiyaning o'rtacha qiymatga nisbati individlarning maydonga jipslashganlik darajasi ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Agar u 1 ga yaqin bo'lsa taqsimlanish tasodifiy, 1 dan yuqori bo'lsa, taqsimlanish nuqtali, 1 dan kichik bo'lsa taqsimlanish tekis.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, populyasiya individlarning joyda taqsimlanishi turning biologik xususiyatlariga, shu jumladan harakatiga bog'liq. O'simliklardan farqli ravishda hayvonlarning harakatchanligi yuqori bo'lganligi sababli, ularning maydonga oid munosabatlari turlichadir. Hatto o'troq holda hayot kechiradigan hayvonlar ham maydonga oqilona joylashishga qaratilgan moslanishlarga ega. Masalan, assidiyalar koloniyasi bir-biriga duch kelsa, ikkalasi ham o'sishni to'xtatib, boshqa tomonga qarab o'sa boshlaydi. Agar koloniyalar ko'payib ketsa vegetativ ko'payish to'xtab, jinsiy ko'payish tezlashadi va harakatchan lichinkalar hosil qiladi.

Yuksak hayvonlarda populyasiya ichidagi taqsimlanish instinktlar sistemasi bilan boshqariladi. Bunday hayvonlar uchun shu turning boshqa individlarning joylashishiga resept qilish xususiyati xosdir. Individlarning maydonda tarqalishini mustahkamlab turadigan instinktlar sut emizuvchilar, sudralib yuruvchilar, baliqlar va murakkab nerv sistemasiga ega umurtqasiz hayvonlar (hasharatlar, o'rgimchaklar, krab va osminoglar) da yaxshi ifodalagan.

Umuman makonda foydalanishga qarab barcha harakatchan hayvonlarni o'troq va ko'chmanchi guruhlarga ajratish mumkin.

O'troq yashovchi hayvonlar hayotining ko'p qismini chegaralangan maydonda o'tkazadi. Bunday hayvonlarda o'z maydoniga bog'liqligini ta'minlaydigan instinktlar mavjud bo'lib, o'z maydonidan majburiy chiqarilsa, yana qaytib keladi.

O'trok hayot muxim biologik ustunlikka ega. Yaxshi tanish joyda hayvonlar o'zini erkin tutadi, oziqa topish uchun kam vaqt sarflaydi va dushmandan oson kutiladi. Bundan tashqari ko'pchilik o'troq hayvonlar zahira imkoniyatlar yaratadi, oziqa to'playdi, qo'shimcha uya va inlar quradi. Masalan, olmaxonlarda bolalari o'sgach asosiy in va dushmandan hamda noqulay sharoitda yashiradigan qo'shimcha uyalar mavjud. Ular zahira oziqa ham to'playdi. Agar bunday hayvonlar begona territoriyaga tushib qolsa xulq atvori o'zgaradi, ishonchsiz harakatlar qiladi, qiyinchalik bilan yashirinadigan joylarni topadi, shuning uchun maydon egasiga nisbatan tez nobud bo'ladi. Tanish joyda hayvonlarning yirtqichlar qo'liga tushib qolish imkoniyatlari ham kamroq.

Lekin o'troq hayot populyasiya zichligi yuqori bo'lganda hayot resurslarini taqchilligiga olib keladi. Shuning uchun bunday hayvonlarda yashash muhitni individlar va individ guruppalari o'rtasida taqsimlanganligini ta'minlaydigan xulq atvor xususiyatlari paydo bo'lgan. Populyasiyaning umumiy maydoni har bir individga taqsimlangan, shuning uchun oziqadan foydalanish tartibga solinadi. Har bir individning maydon jihatdan alohidalanganligidan qat'iy nazar, ular o'rtasida turli signal sistemalari bilan va bevosita aloqalari mavjud bo'ladi. Hayvonlarning maydonga oid xulq atvori ikki xil faollikni o'zida birlashtiradi: 1 O'zining mavjudligini ta'minlashga yo'naltirilgan (oziqa qidirish, joyni tekshirish, uya qurish va x.o); 2 Qo'shni individlar bilan aloqa o'rnatishga yo'naltirilgan faollik (egallangan maydonning kattaligi qo'shnilar bilan aloqa buziladigan darajada katta bo'lmaydi). Egallagan maydonning minimal o'lchamlari esa oziqa resurslarining mavjudligiga bog'liq. Individlar joylashishidagi bu qonuniyatlar raqobatni kamaytiradi va yashab qolish va nasl qoldirish imkoniyatlarini oshiradi.

Maydonga egalik qilish hayvonlar tomonidan turli usullarda amalga oshiriladi: 1. Egallagan joy chegaralarini himoya qilish va begona individ bilan jangga kirish; 2. Xavf sezdiruvchi harakatlar bilan; 3. Mahsus signal sistemasi va belgi qo'yish orqali joyning bandligini bildirish orqali.

Individlar o'rtasida joy uchun bevosita olishuv kamdan-kam uchraydi. Odatda jangdan oldin xavfni sezdiruvchi harakatlar qilinadi va bu odatda begona individni chiqib ketishiga olib keladi. Jangda ko'pincha joy egasi g'olib chiqadi, hattoki uning raqibi kuchliroq bo'lsa ham. Masalan yumronqoziq o'z maydoniga kelib qolgan boshqa yumronqoziqlarni quvib chiqaradi. Agar quvib borib, o'zi ikkinchi yumronqoziq territoriyasiga o'tib qolsa, endi ikkinchisi birinchisini quva boshlaydi.

Ko'pchilik hayvonlar kamdan-kam hollarda to'qnashadilar, ular begona territoriyaga kirishda o'zini olib qochadi. Ko'p hayvonlarda joyning bandligini ko'rsatadigan ogohlantiruvchi signallar yaxshi rivojlangan.

Qator yirik hayvonlar ko'z bilan qabul qilinadigan belgilar qo'llashadi. Masalan ayiqlar va yovvoyi mushuklar daraxtlarda chuqur izlar qoldiradilar.

Bunday belgilarga hayvonlarning javob reaksiyasi nasliy jihatdan mustahkamlangan bo'lib, individga biologik jihatdan foyda keltiradi.

Ko'chmanchi hayot tarziga ega hayvonlar aniq territoriyadagi oziqa zahirasiga bog'liq emaslar. Yolg'iz yashovchi hayvonlarning doimo ko'chib yurishi, ularning yirtqichga duch kelish imkoniyatlarini oshiradi. Shuning uchun bu hayvonlar ko'chmanchi hayot tarziga xos emas. Odatda to'da bo'lib yuradigan hayvonlar ko'chmanchi hayot tarziga ega. Ba'zi hollar ko'chmanchi hayvonlar oziqa zahirasi ko'p bo'lganda vaqtinchalik o'troq hayot kechirishi mumkin. Umuman turli xil hayvonlarga hayotini ta'minlash uchun turli kenglikdagi maydon kerak bo'ladi. Hayvonlarning o'lchami qanchalik katta bo'lsa ular egallab turgan maydon ham shunchalik katta bo'ladi. Chunki hayvon qanchalik katta bo'lsa, hayot faoliyati uchun shunalik

ko'p energiya talab qilinadi. Bu energiyani to'plash uchun o'z navbatida katta maydon kerak bo'ladi.

Bir xil o'lchamga ega hayvonlardan yirtqichlari o'txurlarga nisbatan kengroq shaxsiy maydonga ega bo'ladi.

Ko'pchilik hayvonlarda individlarning shaxsiy maydoni oziqa miqdoriga ham bog'liq. Masalan sherlarda oziqa bilan ta'minlanganlik darajasi yuqori bo'laganda shaxsiy maydoni 25-50 km² bo'lsa, oziqa kam sharoitlarda shaxsiy maydon 6-10 barobar katta bo'lgan.

Lekin hayvonlarning o'z maydonini himoya qilish va oziqa topishga sarflanayotgan energiyasi oziqa sifatida qabul qilayotgan energiyadan oshib ketmasliga kerak. Shu nuqtai-nazardan oziqa zichligi kam hollarda maydonga oid xulq atvori ko'rinishlari foydasiz ham bo'lishi mumkin. Bunday vaziyat oziqa ko'p bulgan sharoitda xam kuzatiladi.

Hayvonlarda egallagan maydon ularning o'lchamiga bog'liq ekan, Populyasiyaning zichligi ham o'lchamga bog'liq bo'ladi, ya'ni hayvonning o'lchami qancha katta bo'lsa egallagan maydoni shuncha kengayadi va binobarin zichliga shuncha kichik bo'ladi.

5-Ma'ruza (2 soat) Mavzu: Populyasiya tarqalishini chegaralovchi omillar.

Reja.

1.Tarqalish imkoniyatlarining chegaralanganligi.

2.Individlarning joy tanlash xususiyati.

3.Populyasiya tarqalishini chegaralashda biotik va abiotik omillarning roli. Libixning minimumqoidasi va uning ekologik ta'rifi.

Tayanch tushunchalar: chegaralovchi omil,tarqalishning chegaralanganligi, joy tanlash, minimum qoidasi, chegaralovchi abiotik omil, chegaralovchi biotik omil.

Tirik organizmlarning eng asosiy xususiyatlaridan biri o'ziga o'xshash organizmlar yaratishidir. Lekin populyasiya yoki turga xos genotipning nasllar almashinish jarayonida saqlanib qolish faqatgina nasl yaratish bilan belgilanmaydi. Hosil bo'lgan urug', tuxum, bola yoki lichinka rivojlanish va keyinchalik ko'payishi uchun yetarlicha qulay sharoitga tushishi zarur. Albatta, naslning ma'lum qismi nobud bo'ladi, lekin jinsiy yetiladigan qismining soni ota-ona avlod sonidan yuqori bo'lishi kerak. Har qanday individlar guruhi tasodifiy noqulay - iqlim sharoitlari ta'sirida o'lib ketish ehtimolligiga ega ekanlar, evolyusiya jarayonida albatta naslning tarqalishi, uning maydonda joylashishini ta'minlaydigan moslanishlar paydo bo'lishi zarur.

Fakat ayrim hollarda, tarqalish funksiyasi qat'iy chegaralangan bo'ladi, chunki hatto yaqin maydonlarga tarqalishi organizm uchun halokatli bo'ladi. Masalan: Ch. Darvin ko'rsatgan qanotsiz hasharotlar. Ular orolda yashaydilar va bu yerda ularning tarqalishi cheklangan, chunki shamol uchirib ketish ehtimoli juda katta.

Ko'p xollarda organizmlarning tarqalish imkoniyatlari yuqori bo'ladi. Dengizda o'troq va kamharakat yashaydigan ko'pchilik hayvonlarning lichinkalari plangtonda yashaydi va oqim bilan uzoq masofalarga tarqaladi. Hasharotlarda tarqalish funksiyasini yetuk hasharotlar bajaradi va migrasiya yo'li bilan tarqaladi. Shirinchalarda yetuk urg'ochi individlar qanotsiz bo'ladi va partenogenez yo'li bilan ko'payadi. Lekin populyasiya zichligi oshganda qanotli individlar paydo bo'ladi va uzoq masofalarga tarqaladi

Agar organizmlar ko'p xollarda shunday tarqalish imkoniyatlariga ega ekanlar nima uchun ayrim olingan tur individlari bir joyda uchraydiyu, ikkinchi joyda uchramaydi. Buning bir qancha sabablari mavjud.

Birinchi sabab shuki, organizmlarning tarqalish imkoniyatlari cheklangan. Boshqacha aytganda, ma'lum maydonda organizmlar uchramasligining sababi, shu organizmning o'zi tarqalgan joydan bu maydonga tarqalish imkoniyati yetarli emas. Organizmlarning turli geografik rayonlarga tarqalishini shunday izohlash mumkin. Darhaqiqat, bir qit'adan ikkinchisiga keltirilgan organizmlar tez ko'payib ketish holatlari bunga misoldir. Bu

organizmlarning inson ishtirokisiz boshqa qit'aga tarqalish imkoniyatlari yo'q. Masalan, Yevropa maynasining Shimoliy Amerikaga, andatraning Yevroosiyoga kolorado qo'ng'izining Yevroosiyoga tarqalib ketishi bunga misoldir.

2. Agar organizmlarning tarqalishi geografik masshtabda emas, balki ekologik darajada, yani bir-biriga o'xshash landshaftlarda ko'rib chiqilsa, organizmlarning tarqalish imkoniyatlarining cheklanganligi hal qiluvchi omil bo'la olmaydi. Bunday holatlarda organizmlarning aktiv joy tanlash xususiyatlari muxim rol o'ynaydi. Joy tanlash xususiyati juda ko'pchilik organizmlar uchun xosdir. Masalan, eshaqqurtlar namlik yuqori joyni tanlaydi, quruq joylardan tezda o'tib ketadi. Nam joyda ularning harakat aktivligi kamayadi. Yashirin joylarda ham ularning harakat aktivligi past bo'ladi.

Normal hayot faoliyati uchun joy tanlash xususiyati ko'pincha hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan: lososimonlar va osyotrsimonlarning ikra tashlash uchun migrasiyasi, kapalaklarning o'simlik bargiga tuxum qo'yishi va hokazolar. Yana bir misol, karam pashshasi tuxum qo'yish uchun bir necha karam o'simligi ildiz atrofi qismini tekshirib ko'radi va namlik qaysi o'simlik atrofida yuqori bo'lsa, o'sha o'simlik atrofida tuxum qo'yadi. Chunki namlik qanchalik yuqori bo'lsa, tuxumlarning qurib qolish ehtimoli shuncha kam bo'ladi. (Halimov F., 1995).

Qushlar va sut emizuvchi hayvonlarda joy tanlash xususiyati murakkab xulq-atvor mexanizmlariga asoslangan. Odamlar tomonidan u yoki bu yashash muhitini tanlash, odatda populyasiya zichligiga bog'liq. Populyasiya zichligi kam bo'lganda barcha individlar eng qulay yashash muhitida yashaydilar. Zichlikning o'sishi bilan hayvonlar yangi yashash muhitiga o'ta boshlaydi, hatto bu muhit unchalik qulay bo'lmasa ham.

3. Organizmlarning u yoki bu maydonda uchramasligi faqat yuqoridagicha sabablarga bog'liq emas. Bu yerda o'sha joyni organizm yashashi uchun yaroqsiz bo'lishiga sabab bo'luvchi tashqi muhit xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Bu olimlarni shartli ravishda boshqa organizmlarning aktivligi bilan bog'liq bo'lgan biotik va shu muhitning fizik - ximik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan biotik omillarga ajratish mumkin.

Biotik omillar, birinchi navbatda yirtqichlar va raqobatchilarning ko'pligi, oziq yetishmasligi populyasiyalarning aniq yashash muhitlarida tarqalishini cheklaydigan omillardir. Masalan, bir materikdan boshqasiga keltirilgan hayvonlar ko'p hollarda rivojlanib ketolmaydi. Lekin ularni orollarga olib kelinganda yashab ketgan. Chunki orollar biosenozlarida yirtqichlar, parazitlar va raqobatchilarining soni kam bo'lgan. Plangton bilan oziqlanadigan baliqlarning suv havzasiga kelib joylashishi yirikroq plangton qisqichbaqasimonlarning butunlay yuqolishiga olib keladi. Shvesiyadagi 50 taga yaqin ko'llarni tekshirish natijasida shu narsa aniqlandiki, plangton bilan oziqlanuvchi baliqlar bor joyda dafniyalar umuman yo'q ekan. Avstraliyada dingo itining soni yuqori bo'lgan joylarda qizil kenguri umuman uchramas ekan.

Ba'zan organizmlarning o'zaro foydali munosobatlari ham, populyasiya tarqalishini cheklashi mumkin. Masalan, Kaliforniyaga keltirilgan anjir ko'paya olmagan, chunki bu o'simlik faqat bitta turlari tomonidan changlatiladi.

Oziqning yetishmasligi ham organizmlarning ba'zi yashash muhitida uchramasligiga sabab buladi. M-n Kanadaning tog'dagi ko'llarida plangton suvo'tlar konsentrasiyasining pastligiga bog'liq ekan. Yashash muhitidagi muhim biogen elementlarning (N_2 , P va x.o.) konsentrasiyasi ham organizmlar tarqalishini cheklovchi omil bo'lishi mumkin. M-n, diatom suvo'ti fragillariyasi 0,05 mk mol/ l va undan ortiq suvo'tlaridan Sinedra filiformis (Synedra filiformis) populyasiyasi esa 0,02 mk mol/ l bo'lgandagina. Agar diatom suvo'tlar uchun muhim bo'lgan kremniy elementini olsak, fragillariya uchun uning konsentrasiyasi kamida 1,0 mk mol/ l bo'lishi kerak. Sinedra uchun 5,7 mk mol/ l bo'lishi zarur (t. b man, 1981). Bunday misollar tabiatda juda ko'p. Bu yerda agrotexnik Libixning minimum qoidasini eslasak kifoya. Bu qoida quyidagicha: organizmlarning miqdoriy rivojlanishi atrof - muhitda eng kam bo'lgan element bilan aniqlanadi. Qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi tuproqdagi azot, fosfor, K va boshqa elementlar bilan belgilanishi mumkin. Organizmda bunday elementlarning o'rnini boshqa elementlar bosa olmaydi.

Ba'zi olimlarning fikricha ko'ra oziq tarkibida ba'zi elementlarning, jumladan natriy yoki fosforning yetishmasligi o'sishiga va tarqalishiga to'sqinlik qiladi. Xuddi shu fikr yordamida ba'zi kemiruvchi va tovushqonsimonlarning sonini siklik o'zgarishlari tushuntirib berilmokda.

Yuqorida keltirilgan Libixning minimum qoidasini ekologik nuqtai nazardan quyidagicha ta'riflash mumkin. Turlarning tarqalishi tashqi muhitning shunday omillari bilan boshqariladiki, bu omillarga nisbatan organizm eng tor moslashishi chegarasiga ega.

Hayvonlar va o'simliklar tarqalishini cheklaydigan omillarga turlararo raqobat ham kiradi. M-n archa boshqa daraxtlar bilan qoplangan o'rmonlarda o'sa olmaydi. O'troq yoki substratga yopishib hayot kechiradigan hayvonlarda maydon uchun raqobat yaqqol namoyon bo'ladi. M-n, Angliya qirg'oqlarida yashovchi ikki tur qisqichbaqasimonlar misolida joy uchun raqobatni Dj. Konell (Conell, 1961) yaxshi ko'rsatib bergan. Birinchi tur Xtamalyus faqat yuqori yarusda yashaydi. Yuqori qatlamda bollyanusdan uchramasligi, bu turning haroratning ko'tarilishiga va qurib qolishlarga chidamasligi bo'lsa, xtamalyusning pastki qatlamlarda uchramasligiga raqobat sabab bo'ladi. Pastki qatlamlarda xtamalyusning lichinkalari bemalol yashay oladi. Konell pastki yarusda bamyanus uyalarini yo'qotish yo'li bilan bu qatlamlarda xtamalyusning bemalol yashay olishini ko'rsatib berdi. Binobarin konkurensiya Xtamolyusning pastki tarqalish chegaralarini belgilab beradi.

Organizmlarning u yoki bu joyda uchramasligining yana bir sababi abiotik faktorlardir, ya'ni organizm shu joyning fizik va ximik xususiyatlariga moslasha olmaydi, shuning uchun bu joyda tarqalish imkoniyatiga ega emas. Abiotik omillarning organizmlarning yashab qolishi va tarqalishiga ta'siri haqida juda ko'p tadqiqotlar qilingan. Bu yerda faqat umumiy qoidalarni ko'rsatib o'tamiz:

1. Har bir tur organizm uchun tashqi muhit fizik va ximik omillarining chegaraviy (maksimal va minimal) qiymatlari mavjud. Bu qiymatlar shu turning shu omilga nisbatan tolerantlik zonasini chegaralab turadi.

2. Tolerantlik zonasida shu omilning organizm uchun u yoki bu darajada qulay qiymatlari mavjud. Eng qulay qiymat optimum deb ataladi.

3. Turning turli rivojlanish davrlari uchun tolerantlik zonasi va optimal qiymat uzgarib turadi. Yosh organizm uchun bu chegaralar torroq, tinch davrdagi organizm uchun kengroq bo'ladi.

4. Bitta turning turli populyasiyalari tolerantlik chegarasi bilan ham, optimum holati bilan ham bir- biridan keskin farq qilishi mumkin.

5. Omillar o'zaro ta'sirda bo'ladi. Agar organizm uchun bir omil tolerantlik chegarasiga yaqin bo'lsa, shu organizmning boshqa omillarga nisbatan tolerantlik zonasi torayadi.

Shunday qilib, populyasiya individlarining tarqalishini belgilaydigan omillar quyidagilar: tarqalishning chegaralangan imkoniyatlari, aniq yashash muhitini tanlash, biotik va abiotik omillar.

Aniq vaziyatlarda biz u yoki bu omilning ahamiyati haqidagi gipotezani ilgari surib va uni inkor qilib, turning tarqalishini belgilovchi omilni aniqlashimiz mumkin.

Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar:

1. Tarqalishning chegaralanganligi deganda nimani tushunasiz?
2. Populyasiya taqalishini chegaralaydigan asosiy omillarni ko'rsating?
3. Tarqalishni chegaralovchi biotik omillarga qaysi omillar kiradi?
4. Libixning minimum qoidasini ekologik ta'rifini ayting?

6- Ma'ruza (2 soat) Mavzu: Populyasiyaning asosiy dinamik ko'rsatkichlari

Reja:

1. Asosiy dinamik ko'rsatkichlar
2. Tug'ilish va uni hisoblash formulasi
3. O'lim va uni hisoblash formulasi
4. Yashab qolish jadvali

5. Yashab qolish egri chizig'i va uning tiplari

Tayanch tushunchalar: Tug'ilish, o'lim, immigrasiya, emmigrasiya, solishtirma tug'ilish, solishtirma o'lim, yashab qolish jadvali, yashab qolish egri chizig'i, populyasiyaning o'sish tezligi.

1. Populyasiya - nafaqat makonda, balki zamonda ham mavjud bo'lgan, bir butunlikka ega bulgan individlar yig'indisidir. Populyasiyada hamma vaqt avlodlar almashinishi sodir bo'lib turadi. Binobarin, populyasiyaning yashash davri hamma vaqt alohida individ hayotiga nisbatan ancha uzoq bo'ladi.

Populyasiyada sodir bo'ladigan jarayonlarning jadalligini baholaydigan ko'rsatkichlar populyasiyaning dinamik ko'rsatkichlari deyiladi. Dinamik ko'rsatkichlarga tug'ilish, o'lish, individlarning immigrasiyasi va emmigrasiyasi kiradi. Shu ko'rsatkichlar populyasiya sonining o'zgarishini belgilaydi. Bunday jarayonlarning odatdagi ifodasi ularning tezligidir. Masalan, tug'ilish tezligi yoki tug'ilish - vaqt birligi ichida populyasiyada tug'iladigan individlar sonidir.

Populyasiya sonining o'zgarishi asosan quyidagi jarayonlarning munosabati bilan aniqlanadi.

$$\begin{array}{ccccc} \text{Populyasiya soni} & & (\text{tug'ilish} & & (\text{o'lim} \\ \text{ning o'zgarish} & = & + & - & + \\ \text{tezligi} & & \text{immigrasiya} & & \text{emmigrasiya} \\ & & \text{tezligi}) & & \text{tezligi}) \end{array}$$

Populyasiya sonining o'zgarishida emmigrasiya va immigrasiya jarayonlarining ahamiyati uncha katta emas. Asosiy ahamiyatga ega bo'lgan jarayonlar tug'ilish va o'limdir.

2. Ma'lum vaqt oralig'ida populyasiyadagi individlar tomonidan yuzaga keltiriladigan yangi individlar soni tug'ilishni ifodalaydi. Ko'pincha absolyut va solishtirma tug'ilish farq qilinadi. Ma'lum vaqtda yuzaga kelgan individlarning umumiy soni absolyut tug'ilishni ifodalaydi. Solishtirma tug'ilish bitta individ hisobiga olingan tug'ilishdir, yoki tug'ilgan individlar sonining individlar umumiy soniga nisbati solishtirma tug'ilish deyiladi.

Populyasiyada tug'ilishni quyidagicha hisoblash mumkin

$$v = N_n / t$$

Bu yerda v - tug'ilish; N_n - tug'iladigan individlar soni; t - vaqt oralig'i. Agar solishtirma tug'ilish aniqlanayotgan bo'lsa, formulamiz quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

$$v = N_n / t$$

bu yerda N - vakt oralig'ining boshlanishidagi individlarning umumiy soni. Tug'ilishni o'lchash uchun olingan vaqt birligi tekshirilayotgan organizmlarning ko'payish intinsivligiga bog'liq. Masalan, bakteriyalar uchun soat ba'zi suvo'tlar uchun - sutka, ko'pchilik hasharotlar uchun - hafta yoki oy, yirik sut emizuvchilar uchun yil. Misol: Bakteriya har soatda bo'linadi. 5 soat oralig'ida 100 ta yangi bakteriya hosil bo'lgan. Populyasiyada bakteriyalarning boshlang'ich soni 150 ta edi. Demak,

$$v_{\text{abs}} = 100 / 5 = 20$$

Demak absolyut tug'ilish 20 ga teng. Lekin populyasion tadqiqotlarda ko'pincha solishtirma tug'ilish o'lchanadi. Bunda:

$$v_{\text{sol}} = 100 / 150.5 = 20 / 150 = 0,13$$

Tug'ilish ijobiy yoki nolga teng kattalik bo'lishi mumkin. Populyasiyadagi tug'ilish kattaligi ko'plab omillarga bog'liq. Masalan, shu vaqtdagi ko'payishga qobiliyatli individlar soni muhim ahamiyatga ega. Bu esa populyasiyaning jins va yosh tuzilmasi tomonidan belgilanadi. Tug'ilish generasiyalarning takrorlanish tezligiga ham bog'liq. Yiliga bir generasiya (avlod) beradigan turlar monovoltin ko'p avlod beradiganlari polivoletin turlar deyiladi. Ko'payish davrining soniga qarab turlarni monosiklik va polisiklik turlarga ajratish mumkin. Jinsiy yetuk davri qisqa

davom etadigan turlar monosiklik turlar deyiladi. Masalan, kupchilik hasharotlar, losossimon baliqlar va x.o. Qayta - qayta ko'payishga layoqatli turlar polisiklik turlar deyiladi. Ko'pchilik umurtqali ba'zi umurtqasiz hayvonlar. O'simliklar hayotida bir marta ko'payadigan - monokarpik va ko'p marta ko'payadigan polikarpik turlar ajratiladi.

3. O'lim tug'ilishga qarama - qarshi jarayon bo'lib, vaqt oralig'ida o'lgan individlar sonini ifodalaydi. Solishtirma o'lim xuddi tug'ilish kabi topiladi.

$$d = N_m / N_t,$$

d - o'lim, N_m - o'lgan individlar soni N - vaqt oralig'ining boshlanishidagi individlarning umumiy soni; t - vakt oralig'i. O'lim d-ijobiy yoki nolga teng kattalikdir. Ekologik tadqiqotlarda populyasiyadagi o'lim deganda populyasiyadagi barcha o'lgan individlar nazarda tutiladi: Hoh qarib o'lgan bo'lsin, hoh yirtqichdan yoki parazitdan, hoh ximikatdan o'lgan bo'lsin. O'lim o'rganilayotgan vaqtda odatda nazarda tutilgan omil ta'sir kuchi tezligi bilan o'lim ko'rsatkichi o'rtasida korrelyasiya aniqlanadi.

Tug'ilish va o'lim o'rtasidagi farq populyasiya soni o'zgarishining tezligini ifodalaydi. Binobarin populyasiya soni o'zgarishini quyidagicha ifodalash mumkin.

$r = v - d$; r-populyasiya sonining o'zgarish tezligi; v- tug'ilish; d- o'lim. Agar tug'ilish o'limga teng $v=d$ bo'lsa, populyasiya soni doimiy bo'ladi, ya'ni populyasiya turg'un holatda bo'ladi. Populyasiya sonining o'zgarish tezligi ijobiy, salbiy va nolga teng kattalik bo'lishi mumkin.

Populyasiya soni o'zgarish tezligini tug'ilish va o'limning farqi sifatida emas, vaqt oralig'ida populyasiya sonining o'zgarishini o'lchab ham aniqlash mumkin. Bu holda populyasiya soni o'zgarish tezligini quyidagicha ifodalash mumkin.

$$r = N / N_t$$

N - populyasiya sonining o'zgarishi; N - oralig'ining boshlanishidagi individlarning umumiy soni; t - vakt oralig'i. Ko'pchilik hollarda olingan natijalardan populyasiya soni o'zgarishining tezligini va tug'ilishni oson aniqlash mumkin. Lekin o'limni aniqlash bir oz qiyinchilik tug'diradi. Bunday hollarda o'limni tug'ilish va populyasiya sonining o'zgarish tezligi orasidagi farq sifatida aniqlash mumkin.

$$d = v - r$$

Populyasiyadagi o'lim bir qancha omillarga boqliq. Masalan, individlarning genetik va fiziologik sifatliiligiga, tashqi muhit omillarining ta'siriga va x.o.

Har tur organizm uchun umr uzoqligining mumkin bo'lgan maksimal qiymati bor. Lekin tabiatda faqat juda kam individlarga umrning maksimal uzoqligigacha yashay oladi. Turli turlarda umrning maksimal uzoqligi turlichadir. Odatda yirik hayvon va o'simliklarda umr uzoqligi kattaroq, kamroq organizmlarda kamroq bo'ladi. Umr uzoqligi hayot sharoitlariga bog'liq ravishda o'zgarishi mumkin. Masalan, poykiloterm hayvonlar past haroratda ko'proq yashaydi (albatta harorat chidamlilik darajasidan chiqmagan holatda). Dafniyada oziq normal bo'lganda umrning maksimal uzoqligi yuqoriroq, oziq ko'p holatda va juda kam bo'lganda pastroq bo'ladi. Ko'pgina ekologik tadqiqotlarda umrning maksimal uzoqligi emas, balki o'rtacha uzokligi muhimroq.

4. Hayotning turli davrlarida individlarning o'lish ko'rsatkichlari turlicha bo'ladi. O'limning turli yoshdagi guruhlar orasida taqsimlanishi ko'rsatish uchun yashab qolish jadvali tuziladi. Odatda yashab qolish jadvalini tuzish uchun qisqa vaqt ichida tug'ilgan individlar guruhini ma'lum vaqt oralig'ida kuzatish olib boriladi. Bunda individlarning yoshi va o'limi nazorat qilib boriladi. Jadvalning 1- grafasida individlar yoshi, aniqrogi yosh intervali, 2- grafada yashab qolgan individlar soni ko'rsatiladi. Qolgan grafalarda ma'lum yoshgacha yashab qolgan individlar soni, har bir yosh oralig'idagi solishtirma o'lim va har bir yosh uchun umrning o'rtacha uzoqligi ko'satiladi.

Boshlang'ch yosh tadqiqot maqsadiga qarab, shartli ravishda olinishi mumkin. Masalan, qushlar o'rganilayotgan bo'lsa boshlang'ich yosh tuxum qo'yilgan vaqt, yoki qushlarning tuxumdan chiqqan vaqti, yoki uyadan uchib chiqish vaqti ham olinishi mumkin. Yosh guruhlari o'rganilayotgan organizmlar umri uzoqligi va hayot siklining xususiyatlariga bog'liq ravishda

olinadi. Masalan, odam uchun 5 yillik interval, mayda kemiruvchilar uchun bir necha oy, hasharotlar uchun hafta olish mumkin. Ba'zan yoshga ajratishda astronomik vaqt emas, balki fiziologik yosh olinishi mumkin. Masalan, hasharotlarda tuxum, lichinka, qo'g'irchoq va imago davrlari.

Yashab qolish jadvaliga misol kilib, J. Konnelning balanusi qisqichbakasi uchun tuzgan jadvalini ko'rib chiqish mumkin. Kuzatishlar 10 yil mobaynida olib borilgan. 1- grafada individlar yoshi - X ko'rsatilgan (ayni holatda bu interval 1 yilga teng). 2- grafada X interval boshlanishida yashab qolgan individlar soni - n_x , 3- grafada X yoshgacha yashab qolgan individlar hisssasi- l_x , 4- grafada X intervalda o'lgan individlar soni- d_x , 5-grafada X intervaldagi solishtirma o'lim- q_x , 6-grafada X intervalgacha yashab qolgan individlarning kutilayotgan o'rtacha umr uzoqligi- ye_x , balanusi glandula qisqichbakasi populyasiyasining yashab qolish jadvali (Konnell ma'lumoti, 1970 y).

Yoshi, yil, X	kuzatish paytida tirik bo'lgan indi vidlar soni	X yosh oralig'i ning boshlani shida yashab qolgan individlar hissasi, l_x	X va $X+1$ yosh oralig'ida o'lgan individ lar soni, d_x	X vaqt oralig'i dagi solishtirma o'lim, q_x	X vaqt oralig'i boshigacha yashab qolgan individlarning o'rtacha umr uzoqligi ye_x
0	142	1,000	80	0,56	1,58
1	62	0,44	28	0,45	1,97
2	34	0,24	14	0,41	2,18
3	20	0,14	4,5	0,225	2,35
4	15,5	0,11	4,5	0,29	1,89
5	11	0,08	4,5	0,41	1,45
6	6,5	0,05	4,5	0,69	1,12
7	2	0,014	0	0,00	1,5
8	2	0,014	2	1,0	0,5
9	0	0,0	-	-	-

Bunda $n_{x+1} = n_x - d_x$

$q_x = d_x / n_x$; $ye_x = n_x / n_0$

n_0 - boshlang'ich yoshdagi individlar soni. Kutilayotgan umr uzoqligini topish uchun X va $X+ye_x$ yosh oralig'ida tirik bo'lgan individlarning o'rtacha soni topiladi. Bu ye_x kattalik quyidagicha topiladi:

$$L_x = n_x + n_{x+1} / 2$$

Keyin barcha yoshlar uchun L_x ning summasini topamiz:

$\sum L_x = T_x$, ya'ni yig'indini T_x deb belgilab olamiz. So'ngra kutilgan umr uzoqligi - ye_x ni quyidagicha topamiz:

$$ye_x = T_x / n_x$$

Hamma vaqt ham 1 ta guruh organizmlarni kuzatib yashab qolish jadvalini tuzish qiyin. Yuqoridagi Konnell tajribasidagi qisqichbaqalar o'troq holda yashaydi. Harakatchan yoki uzoq yashaydigan organizmlarni bunday kuzatish ba'zan imkoniyatsiz. Shuning uchun ko'pincha bir vaqtning o'zida turli yoshdagi alohida guruhlarda kuzatish olib boriladi.

5. Agar individlar yashab qolishining yoshga bog'liqligini grafik asosida tasvirlasak yashab qolish egri chizig'i hosil bo'ladi. Yashab qolish egri chizig'i haqidagi tushunchasini 1920 yillarda ekologiyaga R. Perl kiritgan va uni 3 ta asosiy xilini ajratib ko'rsatgan. Hozirgi vaqtda turli tuman organizmlar uchun yashab qolish egri chizig'i aniqlangan va bu ma'lumotlar Perl fikrini tasdiqlaydi. Albatta bu uch xil egri chiziqlar o'zaro turli darajada oraliq holatlar bilan bog'langan.

I - tipdagi yashab qolish egri chizig'i shunday holatda hosil bo'ladiki, bunda hayotning katta qismida o'lim juda kam bo'ladi va keyin tez ko'tariladi. Barcha individlar qisqa vakt ichida

nobud bo'ladi. O'limning bunday taqsimlanishini drozofillarda, kunlilarda va boshqa hasharotlarda kuzatish mumkin. Bu hasharotlar g'umbakdan chiqib, bir qancha vaqt o'tgandan keyin tuxum qo'yishga kirishadi. Bu jarayon tugagandan keyin yoppasiga o'ladi. Rivojlangan mamlakatlardagi odamning yashab qolish egri chizig'i va yirik sut emizuvchilarning egri chizig'i ham I- tipga yaqin bo'ladi.

III- tip yashab qolish egri chizig'ida individlarning yoppasiga o'lishi o'lishi hayotning dastlabki davriga to'g'ri keladi. Hayotning keyingi davrlarida o'lim past darajada bo'ladi. Ko'pchilik plangton organizmlarda, umuman yuqori serpushtlikka ega va nasli haqida qayg'urmaydigan barcha organizmlar egri chiziq III- tipdagi egri chiziq xosdir.

II- tipdagi yashab qolish egri chizig'i hayot davrida o'lim yoshga bog'liq bo'lmagan holda, doimiy bo'lganda kuzatiladi. Barcha yoshlarda o'lim darajasi bir xil tarzda bo'ladi. Yoshga bog'liq bo'lmagan ehtimoldan yiroqroq bo'lsada, haqiqatda tabiatda II- tip egri chiziqqa ega organizmlar ko'p uchraydi. Qushlar, baliqlar, sudralib yuruvchilar, ko'p yillik o'tchil o'simliklarda bunday tipga ega organizmlar ko'p. Albatta, bunday holatlarda kuzatish hayotning eng boshlang'ich va nozik davri o'tgandan keyin boshlanadi. Masalan, qushlarda bunday kuzatishlar halqalash odatda qushlar uyasidan uchib chiqish paytida o'tkaziladi. Demak, tuxumlar va dastlabki tuxumdan chiqqan qushchalarning o'limi hisobdan tushib qoladi.

Tabiatda real kuzatiladigan yashovchanlik egri chizig'i yuqorida ko'rsatilgan asosiy tiplarning ma'lum darajadagi uyg'unligidan iborat bo'ladi. Masalan, yirik sut emizuvchilar uchun xos bo'lgan I-tip yashab qolish egri chizig'i har doim boshlanishida keskin pastga qarab tushadi. Bu tug'ilishdan keyingi qisqa davrda o'limning ancha yuqori bo'lishini ko'rsatadi. Hattoki odamlarning rivojlangan mamlakatlardagi populyasiyasida ham hayotning birinchi yilida o'lim yuqori bo'ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Absolyut va solishtirma tug'ilish deganda nimani tushunasiz?
2. Absolyut va solishtirma o'lim nima?
3. Yashab qolish jadvali qanday tuziladi?
4. Yashab qolish egri chizig'i nima?

7-Ma'ruza (2 soat) Mavzu: Populyasiya soni o'sishining eksponensial modeli. O'sish tezligini aniqlash

Reja:

1. Populyasiya sonining eksponensial o'sishi va uning matematik tenglamasi
2. Avlod yaratish tezligi va populyasiyaning o'sish tezligini aniqlash

Tayanch tushunchalar: eksponensial o'sish, populyasiyaning o'sish tezligi, avlod yaratish tezligi, avlod umri.

1. Agar hych qanday cheklovchi omil ta'sir qilmasa har qanday populyasiya nazariy jihatdan cheksiz o'sishi mumkin. Bunday fazoviy holatda populyasiyaning o'sish tezligi turning biotik potensialiga bog'liq bo'ladi.

Faraz qilaylik infuzoriya har 2 soatda bo'linadi. 2 soatdan keyin uning soni 2 taga, 4 soatdan keyin 4 ga, 6 soatda - 8 ga; - 8 soatda 16 ga va x.o.

Agar biz bu holatni grafik tarzida ifodalasak tezda ko'tarilib, cheksizlikka intilgan egri chiziqqa ega bo'lamiz. Bunday egri chiziq eksponensial egri chiziq deyiladi. Populyasiya sonining bunday o'sishi eksponensial holda o'sish deyiladi. Eksponensial o'sishga binoan ma'lum vaqt holatidagi populyasiya soni quyidagi holatda bo'ladi $N_t = N_0 \cdot e^{rt}$, bu yerda N_t - ma'lum vaqt holatidagi (t) populyasiya soni, N_0 - boshlang'ich vaqtdagi (t_0) populyasiya soni, e - natural logarifm asosi = 2,7182; r -populyasiya individlarining ko'payish tezligi. Populyasiya sonining eksponensial o'sishi davom etishi uchun r ning qiymati doimiy bo'lishi kerak. Yuqorida biz populyasiya sonining lahzali solishtirma o'sishini $r = dN/dt$ holatida ifodalagan edik. Bu formulani $dN/dt = rN$ shaklida ham yozish mumkin. Agar $r = \text{const}$, populyasiya sonining o'sishi

eksponensial qonuniyat asosida bo'ladi. Agar populyasiya sonining ko'rsatkichlari logarifmlarda hisoblansa, grafik to'g'ri chiziq ko'rinishiga ega bo'ladi. (kesik chiziq bilan ko'rsatilgan). Eksponensial o'sish logarifmlik shaklda quyidagicha bo'ladi.

$$e_n N_t = e_n N_0 + rt.$$

Ko'pchilik adabiyotlarda populyasiya sonining eksponensial o'sishi faqat mahsus optimal sharoitlarda, cheklovchi omillar mavjud bo'lmagan sharoitlardagina mavjud bo'lishi mumkin deb aytiladi. Aslida eksponensial o'sishning yagona sharti - r qiymatining doimiy bo'lishidir, ya'ni organizmlar ko'payish tezligining doimiy bo'lishidir. Masalan, bir hujayrali organizmning turli haroratlarda populyasiya soni o'sishini kuzatsak, turli haroratlarda hujayralarning bo'linish tezligi turlicha bo'ladi. Lekin barcha holatlarda o'sish eksponensial xarakterga ega bo'ladi. Eksponensial o'sishning matematik formulalari 1920 yillarda A. Lotka tomonidan keltirilgan. Lekin eksponensial o'sishning mavjudligi, yoki geometrik progressiya asosida o'sishning mavjudligini J. Byuffan va K. Linney lar xam ta'kidlaganlar. Odamlar sonining geometrik progressiya asosida o'sishi haqida Temas Maltus ham yozgan edi. Organizmlarda eksponensial qonuniyat bo'yicha sonining cheksiz o'sishi Ch. Darvinning tabiiy tanlanish nazariyasida ham qayd qilingan. Ch. Darwin hisoblashicha juda keskin ko'payadigan 1 juft filning avlodi 750 yilda 19 mln ga yetishi mumkin. Agar tez ko'payadigan organizmda eksponensial o'sishning mumkin bo'lgan natijasi hisoblansa, fantastik qiymatga erishishi mumkin.

Lekin tabiatda eksponensial o'sish yoki qisqa vaqt ichida kuzatilib, keyin populyasiya sonining pasayishi yoki turg'un holatga o'tishi kuzatiladi, yoki eksponensial o'sish umuman uchramaydi. Albatta bu yerda tabiatda uchramaydigan bu jarayonni o'rganishning nima keragi bor? degan savol tugiladi. Populyasiya o'sishining eksponensial modeli, birinchi navbatda populyasiyaning mumkin bo'lgan o'sish imkoniyatlarini tavsiflash uchun ishlatiladi. Eksponensial o'sish natijasidagi populyasiya soni bilan haqiqatda kuzatilgan populyasiya sonini taqqoslab, o'lim intensivligini aniqlash mumkin.

Populyasiya soni o'zgarishi haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun va uning tezligini aniqlash uchun turli yoshdagi individlar orasida o'limning aniqlash bilan birga turli yoshdagi organizmlar o'rtasida tug'ilishning taqsimlanishi va qaysi yoshda organizmlar ko'payishni boshlashini bilish ham muhim. Shuning uchun yashab qolish jadvaliga qo'shimcha grafalar kiritamiz.

Bu grafalarning 1- siga nidiividlar yoshi, 2- siga yashab qolgan individlar hissasi - ye_x (1 ta individ hisobiga). 3- siga shu yoshdagi individlardan tug'ilgan individlarning o'rtacha qismi - m_x (1 ta individ hisobiga), 4- siga yashab qolgan individlar hissasi bilan ularning o'rtacha serpushtligi ko'paytmasi - $ye_x m_x$

Hayvon populyasiyalarida avlod yaratish tezligini xisoblash jadvali

Individlar yoshi, X	Yashab qolgan individlar hissasi, ye_x	X yoshda tug'ilgan individlar= o'rtacha soni, m_x	Yashab qolgan individlar hissasi bilan ular o'rtacha serpushtligining ko'paytmasi, $ye_x m_x$
0	1,0	0	0
1	0,6	0	0
2	0,5	0	0
3	0,45	2,0	0,90
4	0,4	2,5	1,0
5	0,37	1,5	0,55
6	0,33	1,0	0,33
7	0,20	0,5	0,10
8	0,10	0,1	0,01
9	0,05	0	0

10	0,00	0	0
			$\sum e_x m_x = 2,89$

Oxirgi kattalik yig'indisi (jadval bo'yicha) populyasiyadagi avlod yaratish tezligini ifodalaydi: $R_0 = \sum y_e x m_x$, R_0 - avlod yaratishning sof tezligi. R_0 - avlod yaratishning sof tezligi 1 ta avlodda populyasiya soni necha marta oshganligini ko'rsatadi. Agar $R_0 = 1$ bo'lsa, populyasiya turg'un bo'ladi, populyasiya soni doimiy bo'ladi, chunki bo'lajak avlod oldingi avlod o'rnini to'la qoplaydi. R_0 kattalik organizmning turiga va yashash sharoitiga qarab o'zgarib turadi. Masalan, qulay laboratoriya sharoitida dala sichqoni uchun R_0 5,9 ga teng bo'lsa, sholi uzunburuniniki - 113,48 ga teng. Ya'ni, qulay sharoitda dala sichqoni populyasiyasi bir avlod davomida 6 marta ko'paysa, sholi uzunburuniniki 113 marta ko'payadi. Umr uzoqligi turlicha bo'lgan turlarni taqqoslaganda R_0 kattalikdan foydalanish noqulayroqdir. Shuning uchun ko'pincha bunday holatlarda r kattalik, ya'ni populyasiya o'sishining tezligi ishlatiladi.

Bu ikki kattalik orasidagi bog'liqlikni quyidagicha topamiz. Faraz qilaylik, bir avlod umriga teng T vaqt oralig'ida populyasiya eksponensial o'sadi. Bu holda T vaqt oralig'ining oxirida populyasiya soni $N_t = N_0 e^{rt}$ bo'ladi. Bundan $N_t / N_0 = e^{rT}$ bo'ladi.

N_t / N_0 - ikki ketma - ket keladigan avlodlarning nisbatidir yoki, bosh qacha aytganda R_0 kattalikning xuddi o'zi.

Shunday ekan bu formulani $R_0 = e^{rT}$ ko'rinishda yozib, undan r ni topib olamiz.

$$r = \ln R_0 / T$$

T - ya'ni bitta avlod umri qanchalik aniq bo'lsa, r - populyasiya o'sish tezligini hisoblashning yuqoridagi usuli shuncha aniq bo'ladi. Ba'zi hollarda bir avlod umrining uzoqligi oson aniqlanadi. Masalan, ba'zi losossimon baliqlar, ko'pchilik hasharotlar va ba'zi o'simliklar umrining oxirida bir marta ko'payadi. Bular uchun bir avlod umri tuxum qo'yilgan vaqtdan to ko'paygungacha bo'lgan vaqtdir. Lekin ko'pgina hayvonlar va o'simliklarda ko'payish davri ancha cho'ziladi, hamda ko'payish mumkin bo'lgan yoshlarda o'rtacha tug'ilgan individlar soni o'zgarib turadi. Bunday holatlarda avlod umri uzoqligi quyidagicha topiladi.

$$T =$$

Populyasiya sonining o'sishi avlod umri uzoqligiga teskari proporsional ekan ($r = \ln R_0 / T$), organizmlar qanchalik tez ko'payishiga kirishsa, populyasiyaning o'sish tezligi shuncha yuqori bo'ladi. Buni quyidagi faraziy misolda ko'rib chiqaylik. Faraz qilaylik 2 ta odam populyasiyasi eksponensial o'smokda. Birinchi populyasiyada har bir ayolning o'rtacha 5 ta farzandi bor va bu farzandlar 18- 22 yoshlarda tug'iladi. Aytaylik ikkinchi populyasiyada har bir ayolning 10 ta bolasi bor va bu bolalar 30-39 yosh oralig'ida tug'iladi. Bizga shunday tuyuladiki, II - populyasiya 2 marta tez o'sadi. Lekin, r - populyasiya o'sish tezligini hisoblab ko'raylikchi.

Aytaylik qizlar bolalarning yarmini tashkil qiladi. Demak I-populyasiyada 1 ta ayolga 2,5 ta, II- populyasiyada 1 ayolga 5 ta qiz to'g'ri keladi. Qiz avlodning ona avlodga munosabati avlod yaratishning sof tezligi - R_0 ni ifodalaydi. Demak, I- populyasiya uchun $R_0 = 2,5$, II- populyasiya uchun $R_0 = 5$. I- populyasiyada avlod umri - T - 20 yilga, II- populyasiyada 34,5 yilga teng.

I- populyasiya uchun $r_1 = \ln R_0 / T = \ln 2,5 / 20 = 0,03979$ formuladan foydalanib,

$$r_1 = \ln 2,5 / 20 = 0,03979$$

II- populyasiya uchun $r_2 =$

Olingan natijalar deyarli bir xil. Demak populyasiyalar o'sishi deyarli bir xil, ya'ni 18 yoshdan 22 yoshgacha 5 ta bola tugadigan ayol bilan, 30-39 yoshlarda 10 ta boli tugadigan ayolning populyasiya o'sishiga qo'shadigan hissasi deyarli bir xil. Albatta bunday holat ikki populyasiyada ham tug'ilishning yosh buyicha taqsimlanishi saqlanib qolinganda, ya'ni 18 yoshli ayoldan tug'ilgan qiz 18 yoshdan tuga boshlasa, 30 yoshli ayoldan tug'ilgan qiz esa faqat 30 yoshdan tug'a boshlasa to'g'ri bo'ladi.

Yuqoridagi misolga qarab, nima uchun demografik siyosatda turmushga chiqishning pastki yoshini chegaralanganligini tushunish mumkin. Ko'pchilik hayvonlarda jinsiy yetilish

yoshi va ko'payish boshlanadigan yosh yashash sharoitiga qarab o'zgarib turishi mumkin. Noqulay sharoitlarda ko'payish kechroq boshlanadi, natijada populyasiya o'sish tezligi pasayadi.

Ekspontensial o'sayotgan populyasiyaning muhim xususiyati - yosh tuzilmasining barqaror bo'lishidir, ya'ni turli yoshdagi individlar guruhi nisbatining doimiy bo'lishidir. Boshqacha aytganda, agar populyasiyada turli yoshdagi guruhlar nisbati doimiy bo'lsa, bunday populyasiya ekspontensial o'sadi. Albatta, turli tezlikda ekspontensial o'sayotgan populyasiyalarda yosh tuzilmasi turlicha bo'ladi: populyasiya soni qanchalik tez o'ssa, yosh avlod hissasi shuncha yuqori bo'ladi. Vaqt davomi o'z sonini o'zgartirmaydigan, stasionar populyasiyani ham qandaydir ma'noda ekspontensial o'sayotgan populyasiya deb qarashi mumkin. Bunday populyasiyada barqaror yosh tuzilmasi qaror topgan bo'ladi.

Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar

1. Ekspontensial o'sishning mohiyatini tushuntiring.
2. Populyasiya o'sish tezligini qanday aniqlash mumkin.
3. Ekspontensial o'sayotgan populyasiya qanday xususiyatga ega bo'lishi kerak.
4. Populyasiyaning o'sish tezligi avlod umri uzoqligicha bog'liqmi?

8-Ma'ruza (2 soat) Mavzu: Populyasiya soni o'sishining logistik modeli (2 soat)

Reja:

1. Tabiatda ekspontensial o'sishning mavjudligi
2. O'sishning logistik modeli
3. Turli tipdagi ekologik-senotik strategiyalar

Tayanch tushunchalar: Logistik model, ekspontensial o'sish konstantasi, chegaraviy zichlik, muhit sig'imi, ekologik strategiya, r- va k-strategiya, violent, patiyent, eksplerentlar.

Oldingi mavzularda ta'kidlanganidek, har qanday populyasiya nazariy jihatdan ekspontensial o'sishga qodir. Shuning uchun ba'zi hollarda populyasiya soni o'sishining ekspontensial modeli populyasiyaning o'sish imkoniyatlarini baholashda qo'llaniladi.

Lekin ekspontensial model haqiqatda yuz berayotgan jarayonlarni ham tavsiflashda qo'llanilishi mumkin. Albatta, bu shunday paytda mumkinki, qachonki ancha uzoq vaqt populyasiya o'sishini hyech qanaqa omil chegaralamaydi va o'sishning solishtirma tezligi (r) o'zining ijobiy qiymatini saqlab turadi.

Masalan, 1937 yilda Protekshn oroliga (Vashington shtati, AQSh) 2 ta erkak va 6 ta urg'ochi tustovuq keltirilgan. Oldin tustovuqlar bu orolda uchramagan. Shu yilning o'zidayoq tustovuqlar ko'payishga kirishgan va olti yildan keyin sakkiz qushdan iborat populyasiyaning soni 1898 ta individga yetgan. Bu yerda tustovuqlar populyasiyasining o'sishi ekspontensial qonuniyat asosida borgan. Lekin keyinchalik urush harakatlarining boshlanishi natijasiga tadqiqotlar to'xtatilgan va populyasiyaning ko'p qismi qirilib ketgan. 1950-1960 yillarda Britaniya orollarida musicha populyasiyasida ham ekspontensial o'sish kuzatilgan. Bunday o'sish musicha populyasiyasida 8 yil davom etgan.

Populyasiyaning ekspontensial o'sishiga yana misollar keltirish mumkin. Jumladan, Bering dengizidagi Avliyo Petr va avliyo Matviy orollariga introduksiya qilingan Shimol bug'isi populyasiyasi bir necha marta ekspontensial holda o'sganligi aniqlangan. Masalan, 1957 yilda bu populyasiyaning soni 1350 taga, 1963 yilda esa 6 mingtaga yetgan. Lekin keyingi yillarda populyasiya soni keskin kamaygan va 1966 yilda faqat 42 ta individ qolgan. Bunday populyasiya sonining keskin kamayishi qishda ozuqa yetishmasligi sababidan yuz bergan.

Yuqorida keltirilgan misollarda ekspontensial o'sish yangi yuzaga kelgan populyasiyalarda kuzatilgan. Introduksiyaning muvaffaqiyatli chiqishi o'sha orollarda shu organizmlar uchun iqlimning qulayligi va barcha zarur resurslar zahirasining mavjudligi bilan

bog'liq. Barcha zarur resurslar zahirasi mavjudligi populyasiya soni o'sish tezligini ancha vaqt doimiy bo'lishiga olib keladi. Bundan tashqari orollarda yirtqichlar va parazitlarning soni kam bo'ladi.

Laboratoriya sharoitida o'stirilayotgan organizmni zarur resurslar bilan ta'minlab, fizik muhit sharoitini doimiy saqlab populyasiyaning o'sishiga erishish mumkin. Ko'pincha eksponensial o'sishni ta'minlash uchun hayot mahsulotlarini chiqarib turish kerak.

Tajriba orqali kichik organizmlarda eksponensial o'sishni kuzatish oson, lekin yirik organizmlarda bunday tajribalar juda qiyin.

Populyasiya soni eksponensial o'sadigan sharoitlar tabiatda ham mavjud. Buning ustiga faqat orollardagi populyasiyalarda emas, balki boshqa populyasiyalarda ham kuzatilishi mumkin. Masalan, ko'llarda, bahorda muz erigandan so'ng, suvning yuza qatlamlarida plangton organizmlar uchun tanqis bo'lgan biogen elementlarning (fosfor, azot, kremniy) zahirasi ko'payadi. Shuning uchun suv isishi bilan bu yerda diatom va yashil suv o'tlar populyasiyasining eksponensial qonuniyat bo'yicha o'sishi kuzatiladi.

Eksponensial o'sishga yana misollar keltirish mumkin bo'lsada, lekin ular uchun ko'p emas. Ko'rinib turibdiki, populyasiya sonining eksponensial o'sishi tabiatda kuzatilsa ham qisqa vaqt davom etadi. Keyin populyasiya soni yoki kamayadi yoki populyasiya turg'un holatga o'tadi. Eksponensial o'sish to'xtashining bir necha variantlari farq qilinadi.

Birinchi holatda eksponensial o'sishdan keyin populyasiya sonining juda kichik qiymatlarigacha pasayishi kuzatiladi. Populyasiya sonining bunday boshqarilishi sikli qisqa, cheklovchi omillar o'zgarishi yaxshi ifodalangan joylarda yashovchi organizmlar uchun xos. Masalan, kengliklarda yashovchi hasharotlarda. Bunday organizmlar noqulay sharoitni o'tkazish uchun tinch davrlari mavjud.

Ikkinchi variant - eksponensial o'sishning to'xtashi populyasiya sonining turg'un holatga o'tishi bilan almashinadi. Bundan eksponensial o'sish to'satdan to'xtaydi.

Uchinchi holatda populyasiya asta - sekinlik bilan turg'un holatga o'tadi. Bundan populyasiya sonining o'sishi bilan o'sish tezligi doimiy qolmasdan, balki pasaya boshlaydi va populyasiyaning o'sishi S-shaklga ega bo'ladi. Bunday holat laboratoriya sharoitida ham, tabiiy holatda ham ko'p uchraydi.

Populyasiya soni o'sishning S-shaklini tavsivlash uchun turli tenglamalardan foydalaniladi. Lekin ular orasida eng oddiysi - logistik tenglama ko'pchilik olimlar tomonidan qo'llab quvvatlanadi. Logistik modelni birinchi marta 1983 yilda belgiyalik matematik P.F.Ferxylst tomonidan aholi o'sishining modeli sifatida taklif qilingan. Keyinchalik 1920 yilda bu model Amerika olimlari R.Perel va A.Rid tomonidan qayta taklif etiladi. Bir yildan so'ng bu olimlar logistik modeli Feryulst kashf etganini tan oldilar.

Logistik model asosida populyasiya soni o'sishi tezligining populyasiya soni oshishi bilan chiziqli kamayishi yetadi.

Bundan populyasiya soni muhit uchun chegaraviy qiymatga yetganda populyasiyaning o'sish tezligi nolga teng bo'lib qoladi. Bu chegaraviy qiymat K bilan belgilab olinadi. Binobarin $N = K$ bo'lsa $r = 0$ bo'ladi. Logistik tenglama ko'pincha quyidagi ko'rinishda yozildi:

Bunda - eksponensial o'sish konstantasi bo'lib, populyasiya soni o'sishining boshlag'ich nuqtasida kuzatilishi mumkin bo'lgan tezlikdir.

Eksponensial o'sishda r o'zgarimas kattalik, ya'ni doimiy qiymat ($r = \text{const}$) bo'lishi kerak bo'lsa, logistik o'sish yuzaga chiqishi uchun r ning qiymati populyasiya soni o'sishi bilan chiziqli qonuniyat bo'yicha kamayishi kerak. Aytish kerakki, qiymat eksponensial modelda ham, logistik modelda ham solishtirma tug'ilish va solishtirma o'lish o'rtasidagi farqqa teng bo'ladi. Logistik modelda r ning qiymati faqat populyasiya soni 0 ga yaqin bo'lganda r ga teng

bo'ladi, ya'ni tug'ilish (v) maksimal, o'lim d minemal bo'lgan holatda. R kattalikning N qiymati olish bilan chiziqli kamayishi deganda o'lim va tug'ilishning chiziqli o'rganishi tushiniladi.

Populyasiya o'sishining logistik modeli 1920-30 yillar juda ommabop bo'lib qoldi, chunki S- shaklidagi o'sish tabiatda ko'p uchraydi. Lekin tenglama hamma vaqt ham juda aniq bo'lavermaydi.

R. Perl va L.Rid lar ta'kidlashicha AQSh aholisining 1940 yilgacha o'sishi logistik egri chiziq asosida boradi. Lekin o'sha paytda kuzatilgan populyasiya dinamikasi keyingi o'sishni oldindan aytish uchun asos bo'lmaydi. Keyingi yillarda aholi soni logistik kutilgandan ko'ra tezroq o'sib borgan.

Logistik egri chiziq asosida ko'pchilik kichik organizmlarda laboratoriya sharoitida o'rganilgan. Achitqilarning ikki turi bilan o'tkazilgan tajribalarda G.F.Gauze chegaraviy zichlik, ya'ni K kattalik, turli turlarda turlicha bo'lishini ko'rsatadi. Tajribada Saxaromises serevize uchun chegaraviy zichlik Mizosaxaromises refir ga nisbatan ikki marta yuqori bo'lgan bu ikki turning ikki marta ko'proq etil spirti hosil qilish qobiliyati bilan belgilanadi, chunki muhitda spirtning ko'payishi populyasiya o'sishni tormozlaydi. Hayot faoliyati mahsulotlarini chiqarib turilganda yoki u populyasiya o'sishiga to'sqinlik qilmaganda chegaraviy zichligidagi muhitdagi oziq miqdori va uni o'zlashtirish jadvalligi bilan belgilanadi. Dafniya bilan o'tkazilgan labqratoriya tajribalarida L. Slobotkin turli variantlarda turli miqdorda oziq berib, chegaraviy zichlikni o'zgartirish mumkinligini ko'rsatadi. Oziq miqdorning ko'payishi bilan chegaraviy zichlik chiziqli o'sib borgan.

Logistik model organizmning xususiyatlaridan kelib chiqadigan qonuniyatlarga asoslangan. Lekin lekin populyasiya o'sishi logistik egri chiziqqa mos kelishi uchun organizm qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Birinchidan, populyasiyadagi barcha individlar br xil bo'lishi kerak, ya'ni bir xil miqdordagi oziq boshqa resurslarni iste'mol qilishi kerak. Populyasiya zichligi oshganda esa ularning o'lish imkoniyatlari bir xilda ushishi yoki nasl qoldirish imkoniyati bir xilda pasayishi lozim. Ikkinchidan, bu organizmlarning populyasiya zichligining o'sishiiga reaksiyasi, ya'ni tug'ilishning pasayishi, o'limning oshishi tezda sodir bo'lishi kerak. Haqiqatda hyech qanday real organizm bunday xususiyatlarga ega bo'lmasada, sodda hayvonlar, bakteriyalar bunday ideal holatga yaqinroq. Lekin organizmning ideal holatdan farqini aniqlab, logistik modelga ba'zi to'ldirishlar kiritilib, real holatga yaqinlashtirish mumkin.

Logistik modelning asosiy sharti populyasiya soni o'sishining zichlikka bog'liqligidir. Bunday bog'lanishni laboratoriya sharoitida F.Smit (Smit,1963) dafniya ustida o'tkazilgan tajribasida tekshirib ko'rgan. Idish hajmini kengaytirib, F.Smit populyasiya zichligini bir xil darajada ushlab turadi va turli zichlikka o'lish tezligini aniqlaydi. Past zichlikda populyasiya soni tezroq o'sgan yuqori zichlikda esa sekinroq.

Populyasiya o'sishning logistik modeli haqiqatga yaqinroq, jumladan, u populyasiya dinamikasining nafaqat boshlang'ich bosqichlarini, balki butun jarayonni ifodalash uchun har bir populyasiyada kuzatiladigan muhitda bo'ladigan o'zgarishlarga javob reaksiyasining kechikishini ham hisobga olish kerak. Masalan, laboratoriya sharoitida muhitdagi oziq sharoitining qulaylashganiga dafniya partenogenetik tuxumlarni o'o'yishni ko'paytirish bilan javob beradi. Bu reaksiya ancha tez sodir bo'ladi, lekin bir lahzada emas. Bunga 3-4 sutka ketadi. Oziq muhiti qulaylashgan vaqtdan tuxumlardan kichik dafniyalar chiqqungacha o'tgan vaqtda muxitda sezilarli o'zgarishlar kuzatilishi mumkin. Tuxumdan chiqqan dafniyalar mustaqil oziqlana boshlaydi.

Bu vaqtda urg'ochi dafniyalar yana tuxum qo'yishga ulgurgan bo'ladi. Keyingi tuxumdan lichinkalar chiqqanda muhitdagi oziq kamaygan bo'ladi. Endi oziq yetishmasligiga javoban tuxum qo'yi jadalligi pasayadi, o'lim ortadi.

Logistik modelda zichlik o'zgarishiga populyasiya o'sish tezligi reaksiyani kechikishini ham hisobga olish mumkin. Bunday holatda logistik model quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

Bu yerda vaqtdagi populyasiya sonining o'zgarish tezligi, N-t vaqtdagi populyasiya soni, N -t vaqtdan oldingi populyasiya soni, dafniya misolida qaraganimizda tuxumdan lichinkalar chiqmasdan oldingi populyasiya soni.

Amerika olimlari R.Mak – Artur va E. Uilsonlar organizmlardagi tabiiy tanlanishning ikki tipi haqidagi konsepsiyaga asos solib, ularni logistik tenglamadagi «r» va «K» konstantalar bilan atadilar. (Mac – Artur, Wilson, 1967).

Bu konsepsiyaga asosan, turli organizmlarga xos bo'lgan va oxir oqibatida hamma vaqt yashab qolish imkoniyatlarini oshirishga va nasl qoldirishga qaratilgan turli-tuman ekologik strategiyalar orasida ikki asosiy tipni ajratib ko'rsatish mumkin.

r – strategiya shunday tabiiy tanlanishki, bu tanlanish populyasiya soni o'sishining dastlabki bosqichlarida, ya'ni zichlik hali kam va raqobatning tormozlash ta'siri yaxshi ifodalanmagan vaqtda populyasiya soni o'sish tezligini oshirishga qaratilgandir.

K – strategiya yashovchanlikning ko'payishiga, binobarin chegaraviy zichlikning oshirishga qaratilgan bo'lib, bunday tanlanish populyasiya soni barqarorlashgan, tur ichidagi va turlararo raqobat, yirtqichlar ta'siri kuchaygan sharoitlarda amalga oshadi.

Agar r – tanlanish, birinchi navbatda yuqori serpushtlikka, jinsiy yetilishning tez sodir bo'lishiga, hayot siklining qisqa bo'lishiga, yangi muhitga tez tarqalishiga, noqulay sharoitga tinch holatiga o'tishga qaratilgan tanlanish bo'lsa, K- tanlanish raqobatbardoshlikka, yirtqich va parazitlardan himoyalanganlik darajasining oshishiga, naslning yashab qolish imkoniyatlarining oshishiga, populyasiya soni boshqarilishining populyasiya ichidagi mukammal mexanizmlarga asoslanishiga qaratilgan tanlanishdir.

R – turlar, aniqrog'i r – tanlanish natijasida shakllangan turlar, suksessiyasining dastlabki bosqichlarida, yangi yashash muhitini egallashda, hali yosh, turlar soni kam jamoalardan ustunlikka ega bo'ladilar. K- turlar esa yetuk shakllangan biosenozda, har qanday turning yashab qolishi biotik munosabatlar bilan belgilanadigan jamoalarda ustunlikka ega bo'ladilar.

Albatta, turlarni r – va K- turlarga ajratish shartli ravishda olinadi.

Haqiqatda esa har qanday mavjud organizm va r- va K- tanlanishlarning qandaydir birikmasi yoki kombinasiyasini boshidan kechiradi yoki kechirgan, ya'ni tanlanib qolgan organizm ham yuqori serpushtlikka, ham raqobat va yirtqichlar yuqori sharoitda yuqori yashovchanlikka ega bo'lishi kerak.

Lekin, shuni aytish kerakki, organizm har qanday evolyusion yutuq uchun nimadandir voz kechishi kerak. Fiziologik va morfologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda organizm bir vaqtning o'zida hamma tomonlama ustunlikka ega bo'lolmaydi. Masalan, organizm bir vaqtning o'zida juda serpusht va yirik, yaxshi himoyalangan, oziq modda bilan yetarli ta'minlangan nasl qoldirish xususiyatga ega bo'lolmaydi. Naslning miqdori va sifatidan birini tanlashga to'g'ri keladi. Bunday ikki yo'nalish r- va K- strategiyalar uchun boshlang'ich material bo'lib xizmat qiladi. Har qanday jamoalarda organizmlarni r- va K- kattaliklarni aniqlangan holda ularni qaysi ekologik strategiyaga mansubligini aniqlash mumkin.

Hayot strategiyalari yoki boshqacha aytganla ekologosenotik strategiyalar ancha vaqtlardan buyon fitosenolog mutaxassislarni qiziqtirib kelgan 1930- yillardek L.G.Ramenskiy o'simliklarni yashab qolish strategiyasi bo'yicha 3 tipga ajratish taklif qilgan va ularni violiyentlar, pateiyentlar va eksplerimentlar deb atagan.

Violentlar - ko'pincha jamoa qiyofasini belgilaydi, raqobatchilarni tez o'sish va joydan to'lio' foydalanish hisobiga yengish imkoniyatlariga ega bo'lgan turlardir. Violentlar kuchli ildiz sistemasidagi va yaxshi rivojlangan yer ustki qismiga ega bo'ladilar. Ko'pchilik daraxtlar, hamda u yoki bu jamoalarda dominant o'tchil bo'lgan o'simliklar tipik violentlardir.

Patiyentlar - noqulay sharoitlarda, masalan yorug'lik yetishmaydigan namlik yetishmaydigan yoki tuproqda mineral elementlar yetishmaydigan sharoitlarda ko'pchilik turlar yashay olmasada, patiyentlar bemalol yashayveradi. Patiylentlarga ko'pchilik quruqsevar, soyasevar va boshqa o'simliklar kiradi.

Eksplarentlar tez ko'payadigan va tez tarqaladigan, buzilgan biosenozlarda paydo bo'ladigan turlardir. Kesilgan o'rmonlar, yonib ketgan yerlarda paydo bo'ladigan va ko'pchilik begona o'tlar tipik eksplarentlardir. Ko'pchilik eksplarentlar urug'i uzoq vaqt unib chiqish qobiliyatini saqlay oladi. Suksessiyalar jarayonida eksplarentlar odatda violentlar tomonidan siqib chiqariladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, aniq o'simlik turini violentlar, patiyentlar yoki eksplarentlarga kiritish o'simlikning faqat autekologik xususiyatlariga asoslanmasligi kerak. Ekologo-senotik strategiya tipi organizmning jamoadagi o'rnini aks ettiradi. Shuning uchun ayrim olingan turlar turli jamoalar tarkibida mavjud bo'lganda turli ekologo-senotik tiplarga mansub bulishi mumkin. Masalan, qarag'ayzorda qarag'ay tipik violent bo'lsa, botqoqlikda patiyent bo'lishi mumkin.

L.G. Ramenskiy tomonidan taklif qilingan ekologo-senotik strategiyalar sistemasi yaqin vaqtlargacha faqat fotosenologik mutaxassislarga ma'lum edi. Lekin r va K tanlanish juda ommobop bo'lishi bilan, hamda 70 yillarda ingliz tadqiqotchisi Dj. Graym (Grime, 1979) L.G Ramenskiy ishlaridan bexabar holda o'simliklar hayot strategiyasining aynan o'xshash sistemasini taklif etgandan so'ng ko'pchilik ekologlarning diqqatini jalb qildi. Dj. Graym quyidagi tiplarni ajratgan: Raqobatchilar (Violentlarga to'g'ri keladi), stress-tolerantlar (Patiylentlar) va ruderallar (eksplarentlarga mos keladi).

Albatta, r va K strategiyalar kabi, sof holdagi violentlar, patiyentlar va eksplarentlar mavjud emas. Har bir tur turli strategik darajalarning ma'lum nisbatlarini o'zida saqlaydi.

Ramenskiy - Graym sistemasi o'simliklar uchun ishlab chiqilgan. Lekin uni hayvonlarga ham tadqiq etsa ham bo'ladi. Masalan, Yu.E Ramonovski (1989) plankton qisqichbaqasimonlar orasida shunday tiplarni ajratgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Logik modelning mohiyatini tushuntiring?
2. Chegaraviy zichlik deganda nimani tushinasiz?
3. r - strategiyaning mohiyati nima?
4. K - strategiyaning mohiyati nima?
5. O'simliklarda qanday ekologo-senotik strategiyalar mavjud?

9-MA'RUZA (2 soat) Mavzu: Zichlikning muvozanat holati. Populyasiyada o'z-o'zini boshqarish.

Reja:

1. Zichlikning muvozanat holati. Regulasionizm va stoxastizm
2. O'z-o'zini boshqarish konsepsiyasi. Populyasiya sonining davriy o'zgarishi.
3. Populyasiya soni boshqarilishining populyasiya zichligiga va organizmning oziq zanjiridagi o'rniga bog'liqligi.

Tayanch tushunchalar: zichlikning muvozanat holati, regulyasionizm, stoxostizm, zichlikka bog'liq va bog'liq bo'lmagan omillar, o'z - o'zini boshqarish konsepsiyasi, stress holat, genetik mexanizm.

Populyasiya soni o'sishining logistik modeliga asos bo'ladigan nuqtai nazar shuki, har qanday populyasiya uchun aniq yashash muhitida zichlikning muvozanat holati mavjud. Bunday muvozanat holatda tug'ilish o'limga teng bo'ladi va bir avlod davrida populyasiya o'zini o'zi qoplaydi va sonining doimiyligini saqlaydi. Agar populyasiya zichligi muvozanat holatdan oshib ketsa, logistik modelga asosan, populyasiya ichida yokm muhitda shunday o'zgarishlar yuzaga chiqishi kerakki, bu o'zgarish natijasida o'lim tug'ilishga nisbatan ko'proq bo'lib, populyasiya

o'z sonini kamaytirishi kerak. Aksincha, populyasiya sonining muvozanat darajasidan pasayishi populyasiya ichidagi yoki muhitdagi jarayonlar shuncha olib keladiki, tug'ilish o'limdan yuqori bo'ladi va populyasiya soni ortishi kuzatiladi.

Har bir populyasiya populyasiya zichlikning muvozanat darajasiga ega va evolyusiya jarayonida shu zichlikni saqlab qolishga yo'naltirilgan populyasiya ichi mexanizmlar yuzaga kelgan degan tasavvur reguliyasionizm degan yo'nalishning asosini tashkil qiladi.

Reguliyasionizm deb atalgan qarashning shakllanishda avstraliyalik entomotolog A. Nikolson ishlari katta ahamiyatga ega. A. Nikolson fikriga, har qanday populyasiya sonining o'zgarish avtomatik boshqariladigan jarayon bo'lib, populyasiya sonini boshqaradigan omillarning ta'siri shu populyasiyaning zichligi tomonidan boshqariladi.

Reguliyasionizmga qarama - qarshi bo'lgan nuqtai nazar - staxostizm bo'lib, bunday yondashish asosiy e'tiborni tasodifiy ta'sir qiluvchi omillarga, to'g'rirog'i makon va zamonda tasodifiy taqsimlangan omillarga qaratadi. Staxostizm tarafdorlari har qanday chetga chiqish avtomatik ravishda boshqaruvchi mexanizmlarni ishga soladigan va populyasiyani boshlang'ich holatga olib keladigan muvozanat holatining mavjudligini inkor qiladilar. Staxostizm nuqtai nazaridan populyasiya sonining muvozanat holati (ya'ni = 1 bo'lgan holat) bu uzoq vaqt oralig'idagi populyasiya sonining o'rtacha olingan qiymatidir.

“Reguliyasionizm” va “staxostizm” so'zlarini populyasiyaar dinamikasini o'rganishda juda katta hissa qo'shgan sovet olimi G.A. Viktorov taklif qilgan.

Reguliyasionizm va staxostizm tarafdorlari o'rtasidagi tortishuvlar 50-yillarning oxirida, ayniqsa, avstraliyalik tadqiqotchilar G. Andrevlarga va L. Birch tomonidan “Hayvonlar seroblighi va tarqalishi” degan kitobning chiqishi bilan juda keskinlashdi. Ko'p ma'lumotlarni tahlil qilib, Andrevarta va Birch shunday xulosaga keldilar : tabiatda hayvonlar populyasiyasi quyidagilar bilan chegaralangan ; 1) resurslarning yetishmasligi (oziq, uya qurish joyi va hakoza) 2) tarqalishning cheklanganligi tufayli bu resurslarni qo'lga kiritish imkoniyatining yo'qligi; 3) Populyasiya soni o'sish tezligi ® ijobiy qiymatga ega bo'lgan davrning qisqaligi.

Staxostizm tarafdorlari u yoki bu organizmning tarqalishi va populyasiya sonining o'zgarishi bir xil omillar tomonidan belgilanadi yoki chegaralanadi deb ta'kidlasalar, reguliyasionizm tarafdorlari organizmlarning tarqalishi zichlikka bog'liq bo'lmagan abiotik omillar bilan chegaralanadi, populyasiya sonining o'zgarishi esa zichlikka bog'liq bo'lgan biotik omillar bilan chegaralanadi deb hisoblaydilar.

Zichlikka bog'liq omillar deb shunday omillarga aytiladiki, bu omillarning organizmga ta'siri populyasiya zichligi o'zgarishi bilan o'zgarib turadi. Zichlikka bog'liq bo'lmagan omillarning ta'siri populyasiya zichligi o'zgarsa ham bir xilda saqlanadi. Masalan Bug'ular populyasiyasining har yili 30% bo'rilar tomonidan qirilsa, yirtqichlik bunday holatda zichlikka bog'liq bo'lmagan omil hisoblanadi. Chunki yillar bo'yicha bug'ular soni o'zgarishga mos ravishda yirtqichlik natijasida o'lgan bug'ular soni ham o'zgarib turadi, lekin foizda hisoblangan soni o'zgarmaydi.

Agar, aksincha bo'lsa, bug'ular populyasiyasi soni yuqori bo'lganda bo'rilar tomonidan qirilgan bug'ular 50% ni, populyasiya soni kam bo'lganda 5% ni tashkil qilsa yirtqichlik zichlikka bog'liq omil bo'ladi.

Shuni aytish kerakki, aksariyat hollarda yirtqichlik zichlikka bog'liq omil bo'ladi. Parazitlik, epidemiyalar, tur ichidagi oziq uchun raqobat ham zichlikka bog'liq omillar bo'lib, zichlik oshishi bilan ularning ta'siri ham oshib boradi. Abiotik omillarning ko'pchiligi zichlikka bog'liq bo'lmagan omillardir. Ko'p hollarda shunday fikr tug'iladiki, omillarni zichlikka bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan omillarga ajratish ularni biotik va abiotik omillarga ajratish bilan mos keladi. Aslida o'zgarib turadigan iqlim omillari ham zichlikka bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan; agar, qandaydir hasharot qishni yetuk davrida yashirinib o'tkazsayu, yashirinadigan joy

cheklangan bo'lsa, bunday holatda qishlab chiqqan hasharotlar hissasi populyasiya zichligiga bog'liq ravishda o'zgarib turadi. Yuqori zichlikda qishlab chiqqan xasharotlar hissasi kam bo'ladi, past zichlikda yashab qolgan individlar hissasi yuqori bo'ladi.

Zichlikka bog'liq bo'lgan boshqarilish u yoki bu darajada har qanday populyasiyada yuzaga chiqadi. Lekin ularning mukammallik darajasi turlicha bo'ladi. Ba'zi hayvonlarda zichlikning boshqarilish jarayoni murakkab bo'lib, organizmlarning xulq atvori va fiziologiyasini o'zgarish xususiyatiga asoslangan va populyasiya zichligini o'zgarishiga darrov javob beradi. Boshqa hayvonlarda zichlikning boshqarilishi oddiy tarzda amalga oshadi va populyasiya zichligi yuqori bo'lganda individlarning yoppasiga o'sishi bilan tavsiflanadi.

Uzoq muddat mavjud bo'lgan har qanday populyasiyada zichlikka bog'liq chiqarilishning mavjudligi uzoq vaqtdagi populyasiya o'sishining sof tezligi o'rtacha qiymati (R_o) hamma vaqt 1 ga teng bo'lishi bilan isbotlanadi. Angliyalik genetik Dj. Xoldeyning faraziy misoli boshqacha variant bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatadi. Masalan o'z hayot siklini bir yilda tugatadigan va bir marta ko'payadigan qandaydir hasharotning populyasiyada avlod yaratishning sof tezligi 1 ga emas, 1,01 ga teng bo'lsin. Agar bu hasharot populyasiyasi soni n yilda N_n deb belgilasak, u paytda $N_{n+1} = N_n R_o$ bo'ladi. Binobarin $n + 2$ - yilda populyasiya soni $N_{n+2} = N_n + 1 R_o = N_n R_o^2$ bo'ladi. Agar hisoblab chiqsak 1000 yildan keyin bu populyasiya soni 21000 marta ko'payadi. Agar R_o ning o'rtacha qiymati 0,99 bo'lsa 1000 yildan keyin populyasiya soni 0,000 43 ga teng bo'ladi. Ko'pchilik turlar bunday tez o'lmasligini hisobga olsak, shu narsa aniq bo'ladiki avlod yaratishning qator yillardagi o'rtacha qiymati (R_o) 1 ga teng bo'ladi.

Nazariy jihatdan populyasiya soni boshqarilishining zichlikka bog'liq omillar tomonidan yuzaga chiqishning bir necha usullarini ajratib ko'rsatish mumkin. Populyasiya zichligi ortishi bilan, birinchidan, tug'ilish pasayishi mumkin, ikkinchidan, o'lim oshishi mumkin, uchinchidan bir vaqtning o'zida tug'ilish kamayib, o'lim oshishi mumkin.

Populyasiya sonining boshqarilishi mexanizmining tushunib olish uchun populyasiya soni o'zgarishini tahlil qilishdan o'lim va tug'ilishni tahlil qilishga o'tish mumkin. Tug'ilish va o'limni chuqur tahlil qilish, jumladan ularning o'zgarishini tashqi muhit omillarining o'zgarishi bilan solishtirish ko'pchilik populyasiyalar sonining o'zgarishini to'g'ri tushunishga yordam beradi. D.Xell (Holl, 1964) tajribalari bu fikrni tasdiqlaydi. D.Xoll dafniya populyasiyasi soni o'zgarishini tahlil qilib, yil davomida populyasiya soni 2 marta maksimum (bahor oxiri va kuzda) va 2 marta yozda va qishda minimumning sababi suvdagi sovuq harorat va oziq hisoblangan fitoplanktonning yetishmasligi bo'ladi. Yozda esa harorat va oziq miqdori juda qulay bo'ladi. Yozgi populyasiya soni pasayishi, ko'pincha, yuqori haroratning salbiy ta'siri yoki suvo'tlar tomonidan yozda ajratilgan zaharli moddalar ta'siri bilan tushuntiriladi. D.Xoll populyasiyadagi tug'ilish va o'limni tahlil qilib bu muammoni hal qildi. Uning aniqlanishicha, yozda yuqoridagi omillarning noqulay ta'siri va individlarning fiziologik kuchsizlanishi mumkin emas, chunki bu paytda tug'ilish maksimum qiymatga ega bo'ladi. Bu davrda populyasiya sonining pasayishi o'limning tug'ilishga nisbatan yuqori bo'lishi va natijada populyasiya sonining o'zgarishi salbiy qiymatga ega bo'lishidir. O'limning bunday yuqori bo'lishiga yirtqichlar sabab bo'ladi.

Shuni aytish kerakki yuqoridagi misolda dafniya populyasiyasidagi ba'zi mavsumga oid o'zgarishlar sababi ochib berilgan bo'lsada, populyasiyaning mavsumiy yoki yillik o'rtacha qiymati boshqa omil bilan belgilanadi. Dafniyaning vegetasiya davridagi o'rtacha populyasiya asosan bir hujayrali suvo'tlarning mahsuldorligi bilan belgilanadi. Umuman populyasiya sonining mavsumiy yoki bir necha yillardagi o'rtacha qiymati bir xil omillar bilan, bu o'rtacha qiymatga nisbatan populyasiya sonining tebranishi ikkinchi xil omillar bilan belgilanadigan holatlar tabiatda ko'p uchraydi. Masalan, sun'iy uyalar qo'yib qushlar populyasiyasining zichligini oshirish mumkin, lekin yillar bo'yicha zichlikning o'zgarishi oziq miqdori va iqlim sharoitlari bilan belgilanadi.

Yillar bo'yicha populyasiya sonining o'zgarishi barcha populyasiyalar uchun xos bo'lib bu o'zgarish ko'p hollarda iqlim sharoitining o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi. Ko'pchilik organizmlarda populyasiya soni bilan iqlim omillari o'rtasida korrelyativ bog'liqlik aniqlangan. Shuni aytish kerakki, staxostizm tarafdorlari bu korrelyativ bog'liqlikni o'z qarashlarini tasdiqlash uchun, ya'ni populyasiya o'sishi boshqarilishi zichlikka bog'liq bo'lmagan omillarga bog'liq deb talqin qilishadi. Regulyasionizm tarafdorlari esa buni populyasiya soni bilan iqlim omillari o'rtasidagi oddiy bog'lanish, lekin boshqarilish emas deb qaraydilar, boshqarilish populyasiya soni maksimumga yetgandan keyin uning kamayishi vaqtida yuzaga chiqib, zichlikka bog'liqdir deb hisoblaydilar.

Regulyasionizm va staxostizm bir - biridan farq qilsada, bu oqim tarafdorlarining populyasiya soni chegaralashda tashqi muhit omillari masalan oziq yetishmasliga, noqulay ob - havo sharoitlari, asosiy rol o'ynaydi degan fikrlari bir - biriga mos keladi.

Lekin, 60 yillarda o'z - o'zini boshqarish konsepsiyasi taklif etildi. Bu konsepsiyaga asosan, populyasiya zichligining o'sishi nafaqat muhit sifatini balki ko'proq shu populyasiya individlari sifatini o'zgartirdi. Populyasiyaning keyingi o'sishi tormoqlashga qaratilgan individlar xususiyatining bunday o'zgarishi oxir oqibatda pushtlilikning kamayishida, jinsiy yetilish davrining uzayishida, o'lim va migrasiya aktivligini oshishida nomoyon bo'ladi. Bu konsepsiya mualliflaridan biri, ingliz ekologi D.Chetti fikricha har qanday populyasiya o'z sonini yashash muhitidan tiklanadigan resurslarining zo'riktirmaslik darajasida turli tashqi omillar (yirtqichlik, ob - havo sharoitlari)ning aralashivi kerak bo'lmaydigan darajasida boshqarish xususiyatiga ega. O'z - o'zini boshqarish konsepsiyasiga asosan, populyasiya o'sishiga ta'sir qiladigan individlardagi sifat o'zgarishlari ham fenotipik ham genotipik bo'lishi mumkin. Keyingi holatda bu turli genotiplar nisbatining o'zgarishda namoyon bo'ladi. Bu konsepsiyada omillarning zichlikka bog'liq va bog'liq bo'lmagan omillarga ajratish o'z ahamiyatini yo'qotadi.

O'z - o'zini boshqarish konsepsiyasi asosan quruqlik organizmlari ustida tadqiqot olib boruvchi ekologlar tomonidan rivojlantirildi. Bu farazni yaratishga asos bo'lgan natijalar dastlab laboratoriya sharoitida sichqonlar va boshqa kemiruvchilar ustida o'tkazilgan tadqiqotlardan olingan. Bu tadqiqotlarda shu narsa aniqlandiki, populyasiya zichligi oshishi bilan to'qnash kelish holatlari ko'payganda kemiruvchilarda stress holati kuzatiladi. Bu stress holati qator xususiyatlar bilan jumladan buyrak usti bezlari faoliyatining faollashuvi bilan tavsiflanadi. Asab tizimi qo'zg'atish ta'sirida organizmda yuzaga keladigan garmonal o'zgarishlar jinsiy bezlar faoliyatini tormozlaydi va oxir oqibatda jinsiy yetilishning uzayishiga, serpushtlikning kamayishiga, ba'zan ko'payishning butunlay to'xtashiga olib keladi. Bundan tashqari stress holat oqibatida o'lim oshadi, tabiiy sharoitlarda esa individlarning o'lish ehtimoli yuqori bo'lgan yangi yashash muhitga migrasiyasi kuchayadi.

Stress mexanizmining populyasiya boshqarilishidagi roli tabiiy sharoitda boshqa sut emizuvchilarda ham aniqlangan. Bundan tashqari ba'zi kemiruvchilarda populyasiya zichligi bilan shu populyasiya individlardagi stress holatida yuzaga chiqadigan fiziologik va biokimyoviy o'zgarishlar orasida korrelyativ bog'liqlik aniqlanganki, streyes reaksiyaning yuzaga chiqishi uchun ba'zi hollarda zichlikning juda yuqori bo'lishi shart emas ekan. Masalan uy sichqoni urg'ochisiga 1 hafta davomida g'azablangan erkak individni ko'rsatish natijasida buyrak usti bezlari faolligi oshishi kuzatilgan. (Christian, Davis, 1964)

Populyasiyada o'z - o'zini boshqarishni ta'minlaydigan mexanizmlar orasida ayrim individlar xulq atvori bilan bog'liq bo'lgan mexanizmlar muhim o'rin egallaydi. Individlarning xulq atvori organizmdagi fiziologik o'zgarishlar (masalan, yuqoridagi streyes reaksiya) orqali yoki individlarning joyda taqsimlanish o'zgarishi orqali tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadi. masalan o'z maydonini qo'riqlaydigan hayvonlarda zichlik oshib ketsa, ko'pchilik individlarning o'z maydonini qo'riqlashga qurbi yetmaydi va boshqa noqulayroq joyga

migrasiya qiladi. Yangi joyda ko'pincha yirtqichlik va oziq yetishmasligidan yoki noqulay abiotik omillardan o'lish ancha yuqori bo'ladi.

Populyasiya soni oshishini chegaralashda xulq atvor mexanizmlaridan tashqari zichlik o'zgarishiga mos ravishda populyasiya genetik tarkibining o'zgarishi ham muhim tutishi mumkin. Shu narsa aniqki populyasiyada hych bo'lmaganda ikki xil genotiplar mavjud bo'lib, bularning biri zichlik yuqori bulgan sharoitlarda ustunlikni ega bo'lsa, ikkinchisi zichlik past bo'lgan sharoitlarda ustunlikka ega bo'ladi. Tabiatda faqat shunday genetik mexanizmga asoslangan populyasiya boshqarilishini ko'rsatadigan ma'lumotlar hozircha yo'q. Lekin bunday o'zgarishlar mavjudligi va ular zichlik o'zgarishi bilan bog'liqligi haqidagi ma'lumotlar bor. Masalan, Kanada ekologi Ch. Krebs ko'rsatishicha, pensilvaniya dala sichqonida populyasiya soni yuqori bo'lganda boshqa genotip dipressiya, davrida esa boshqa genotip dominantlik qilar ekan. Bir genotip individlari tez ko'payadi, lekin yuqori zichlik odatda asosiy yashash joyidan migrasiya qilib turadi. Ikkinchi genotip individlari esa zichlik yuqori sharoitlarda ustunlikka ega lekin kampushtlilik bilan ajralib turadi. Populyasiya soni boshqarilishining genetik mexanizmi ko'p hollarda boshqa omillar bilan birgalikda amal qiladi.

Individlarning genetik jihatdan turli sifat darajasida bo'lishini juda kuchli ifodalanganligini chigirtkalarda kuzatish mumkin. Chigirtkalarda bir – biri bilan almashib turadigan ikki hayot shakli mavjud. Yakka holda yashovchi va to'da holda yashovchi shakllari. Bu shakllar bir-biridan keskin farq qiladi. Chigirtkaning to'da holatida yashovchi davri, yakka holda yashovchi davridan yuqori harakatchanligi, rangi bilan farq qilmasdan, balki tuxumdan chiqqan individlarning suv va oziq moddalar bilan ta'minlanganligi, yashovchanligi va tez rivojlanish bilan ham farq qiladi. Lekin bu davr kam pushtroq bo'ladi. Chigirtkalarining yakka holda yashaydigan davrida migrasiya qiluvchi individlar kam bo'ladi. Uzoq qurg'oqchilik davridan keyingi yillarda, masalan Qizil chigirtkada, yashovchanlik juda oshib ketadi va populyasiya bir avlodda 100 martagacha o'sishi mumkin. Shunisi qiziqki eng yuqori yashovchanlik oziq o'simliklar kam bo'lgan yillarga to'g'ri keladi. Aftidan uzoq qurg'oqchilik davridan keyin kam sonda kelgan oziq o'simliklar oziq moddalarga boy bo'ladi. Demak, iqlim omillarining muayyan majmuasi migrasiya uchun birinchi turtki bo'ladi. Chunki bu paytda mahalliy populyasiya zichligi oshib dastlab yakka holda yashovchi individlardan iborat populyasiyada to'da hosil bo'la boshlaydi. To'da davridagi individlar tez ko'paygani va to'dalanish xususiyatiga ega bo'lgani uchun populyasiya tez o'sadi, va migrasiya boshlanadi. Migrasiya natijasida chigirtkalar juda katta va uzoq maydonlarga tarqaladi. to'da davri va migrasiya hosil bo'lishining biologik mohiyati kirilib ketishdan saqlanish va ko'payish uchun yangi qulay muhitni topishdir. Shunday qulay joy migrasiya davrida topilsa to'daning o'lchamlari haddan tashqari yuqori darajaga ko'tarilib ketishi mumkin. Masalan, 1957 yilda Somaliga uchib kelgan to'dada individlar soni $1,6 \times 10^6$ taga, og'irligi esa 50,000 tonnaga yetgan. Agar har bir chigirtka sutkasiga o'z og'irligicha teng oziqani ist'mol qilishni nazarda tutsak, ofat chegarasini tasavvur qilish qiyin emas.

O'z - o'zini boshqarish konsepsiyasi yaratilishi bilanoq ko'pchilik kemiruvchilarda xos bo'lgan populyasiya soni davriy o'zgarishlarini tushuntirish uchun qo'llaniladi. Populyasiyaning har bir to'lqinlanish davri 3-4 yil ba'zan 5-6 yilgacha, quyonlarda 10 yilgacha cho'zilib, o'sish maksimum, kamayish va dipressiya davrlarini o'z ichiga oladi. Maksimum davrida populyasiya zichligi dipressiya davridagiga nisbatan yuz martagacha yuqori bo'lishi mumkin. Bunday davriy o'zgarish ayrim turlar va ayrim populyasiyalar uchungina xosdir. Davriy o'zgarishlar haqida ko'pgina ma'lumotlar bo'lsada uning sababi haqida yagona umumiy nuqtai nazar yo'q. Faqat bir qator farazlarga mavjud.

O'z - o'zini boshqarish konsepsiyasi doirasi populyasiya soni o'sishini tormozlaydigan 3 ta faraziy mexanizmni ko'rsatish mumkin. Birinchidan, populyasiya zichligi oshganda va binobarin, individlarning bir-biriga to'qnash kelishi oshganda, stress holatining yuzaga chiqishi imkoniyati oshadiva bu tug'ilishning kamayishiga hamda o'limning keskin oshishiga olib keladi. Ikkinchidan, populyasiya zichligi oshganda individlarning yangi yashash muhitiga migrasiyasi

oshadi. Bu muhitda turli omillarning ta'sirida o'lim yuqori bo'ladi. Uchinchidan, populyasiya zichligi oshganda uning genetik tarkibi o'zgarishi mumkin, jumladan tez ko'payadigan genotip o'rnini sekin ko'payadigan va migrasiyaga qodir genotip egallaydi. Bu mexanizmlarning har biri bir oz kechikishi bilan ishga tushadi va shuning uchun populyasiya sonida tebranishlar sodir bo'lib turadi.

O'z - o'zini boshqarish konsepsiyasidan kelib chiqadigan farazlardan tashqari, populyasiya soni davriy o'zgarishlar populyasiya bilan tashqi muhit omillarining o'zaro ta'siri natijasida boshqariladi degan farazlar ham mavjud. Masalan trofik farazga asosan populyasiya o'sishning to'xtatib keyin pasayib ketishi oziq yetishmasligi yoki oziq sifatining talabga javob bermasligidir, ko'p hollarda oziqning sifati belgilovchi rol o'ynaydi.

Populyasiyaga har doim populyasiya ichi va tashqi muhitning boshqaruvchi omillari ta'sir qilib turadi. Shuning uchun populyasiya sonining boshqarilishi ko'p hollarda boshqaruvchi omillarning birgalikdagi yoki bir bir bilan almashgan holdagi ta'sir natijasida yuzaga chiqadi. Albatta samarali boshqaradigan muayyan omil bilan populyasiya zichligi o'rtasida bog'liq mavjud bo'ladi.

Masalan, xulq atvor mexanizmlari bilan boshqarilishning zichlik juda yuqori bo'lgan holatda yuzaga chiqish ehtimoli ko'proq. Xuddi shunday yuqumli kasalliklar ham zichlik yuqori bo'lgan holatlarda populyasiya soniga sezilarli ta'sir qilishi mumkin. Zichlik kam bo'lgan holatlarda populyasiya sonining o'zgarishi mutaxassislashmagan yirtqichlar tomonidan samarali boshqariladi. O'ljasining soni oshib borishi bilan yirtqich soni ham oshib boradi. Lekin bu holat ma'lum chegaradan oshgandan keyin mutaxassislashmagan yirtqich populyasiya o'sishini to'xtata olmaydi. Bunday vaziyatda o'z sonini ko'paytirib populyasiya o'sishini mutaxassislashgan yirtqichlar va parazitlar to'xtatish mumkin. Demak, populyasiya zichligi oshishi bilan bir boshqarilish usuli ikkinchisi bilan almashinib turadi. Bunday boshqarilishni ayniqsa G.A. Vingorov hasharotlar misolida yaxshi tushuntirib bergan. Populyasiya sonining boshqarilishida turli omillar va mexanizmlar ishtirok etsada turli ekologik guruhlarda u yoki bu boshqarilish usulini ustun turishini kuzatish mumkin. Boshqacha aytganda boshqarilish usuli organizmlarning oziq zanjirida turgan o'rniga ham bog'liqdir. Saprotrof organizmlarda populyasiyani boshqaruvchi mexanizmlar tur ichidagi oziq uchun raqobatdir. Bu organizmlar uchun oziqning kamayishi boshqaruvchi omil bo'lib xizmat qilolmaydi, chunki boshqa organizmlar har doim o'lib turadi va natijada saprotroflar uchun doimo oziq kelib turadi. Saprotroflar uchun oziq resurslarining tugab qolishi kuzatilmaydi.

Fitofaglarning va yirtqichlar uchun vaziyat boshqacha ularda cheksiz ko'payib muhitdagi oziq resurslarini tugatib qo'yishi va yoppasiga o'lishi mumkin. Lekin tabiatda odatda bunday holat kuzatilmaydi. Chunki birinchidan, o'simlik va fitofag boshqa turlar singari yirtqich o'lja munosabatlari orqali bog'langan va uzoq vaqt birgalikdagi evolyusiyasi tufayli o'simliklarda o'zlarini fitofaglardan himoya qiluvchi moslamalar yuzaga kelgan. (himoya qoplamlari, kimyoviy moddalar orqali va x.k) Ikkinchidan o'simlikxo'r va yirtqich hayvonlarda oziq resurslarini kuchsizlantirmaydigan darajadagi zichlikni ushlab turuvchi boshqaruvchi vositalar mavjud.

O'simlikxo'r hayvonlarning soni juda ko'p bo'lsada, o'simliklar biomassasi juda yuqori. Shuning uchun fitofaglar soni oziq yetishmasligi bilan emas, balki boshqa mexanizmlar bilan boshqariladi. Bu mexanizmlar unga yuqori bo'lmagan zichlikda amal qiladi va yirtqichlar va parazitlardan iborat bilan yirtqichlar esa o'z oziq resurslarini tez kamaytirib qo'yishi mumkin, shuning uchun ularda boshqarishning xulq atvor mexanizmlari muhim hisoblanadi.

Shuni aytish kerakki, boshqarilish usulining quruqlik ekosistemalari uchun xosdir. Suv muhitida asosiy produsentlar - mikroskopik planktonlar suvo'tlari - zooplanktonlar tomonidan ko'p miqdorda iste'mol qilinishi mumkin. Shuning uchun uchun zooplankton soni oziq yetishmasligi bilan cheklanib turiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Regulyasionizmning mohiyatini tushuntiring?
2. Populyasiya boshqarilishida staxostizm fikrlari?
3. Zichlikka boglik va boglik bulmagan omillarni tushuntiring?
4. Populyasiya boshqarilishning xulq atvor va genetik mexanizmini tushuntiring?
5. Populyasiya boshqarilish usulining organizmning trofik o'rniga bog'liqligini tushuntiring?

Adabiyotlar

1. Gilyarov A.M. Populyasionnaya ekologiya. M., 1990.
2. Bigon, Dns. Xariner, K. Taunsend. Ekologiya: osobi, populyasii i soobshchestva. Mir, 1989. T.1.
3. Odum Yu. Ekologiya. M., 1980.
4. Yablokov A.V. Populyasionnaya biologiya, M., 1987.
5. Ergashev A. Umumiy ekologiya. T. 2003.
6. To'xtayev A. Ekologiya. T. 1998.

9. АМАЛИЁТ (семинар ва лаборатория) машғулотларининг ишланмалари, уларни ўтказиш ва қўллаш бўйича услубий тавсиялар

Kirish

«Populyasiyalar ekologiyasi» ekologiya va tabiatdan foydalanish yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan muhim fanlardan biridir. Bu fandan ma'ruzalar

kursida talabalarga populyasiya tushunchasi, uning statik va dinamik ko'rsatkichlari, ya'ni zichligi, jins, yosh va makondagi tuzilmalari, tug'ilish, o'lim, populyasiyaning o'zgarishi va boshqarilishi haqida keng nazariy ma'lumotlar beriladi. Ammo, yetishib chiqayotgan ekolog mutaxassislar tabiatdagi mavjud populyasiyalarni, ayniqsa, kamayib borayotgan, noyob yoki zararkunanda organizmlar populyasiyalarini tadqiq qilish uchun amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'lishlari zarur. Bunday ko'nikmalar «Populyasiyalar ekologiyasi» fanidan amaliy mashg'ulot darslarida hosil qilinadi. Amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar populyasiya soni va zichligini aniqlash usullari, jins va yosh tuzilmaning ifodalanishi, populyasiyadagi tug'ilish va o'limni hisoblash, populyasiya soni o'zgarishlarini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar hamda yuqoridagi ko'rsatkichlarni hisoblash uchun zarur bo'lgan matematik amallarni o'zlashtiradilar. Populyasiyaga xos ko'pgina ko'rsatkichlarni auditoriya sharoitida aniqlashning imkoni yo'q. Shuni etiborga olib, amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy ko'rsatmaning ilova qismida ayrim populyasiyalarga oid nazariy ma'lumotlar keltiriladi. Bu ma'lumotlar asosida talabalar yashab qolish jadvali va egri chizig'ini tuzish, populyasiya o'sish tezligini aniqlashning matematik usullarini o'rganadilar.

Uslubiy ko'rsatmada «Populyasiyalar ekologiyasi» fani bo'yicha mo'ljallangan seminar mashg'ulotlarining rejasi ham keltiriladi.

Mazkur uslubiy qo'llanma ekologiya va biologiya mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan hamda «Populyasiyalar ekologiyasi» kursining dasturi asosida tuzilgan.

1-Mavzu: Populyasiya soni va zichligini aniqlash.

Reja:

1. Populyasiya soni va zichligi haqida nazariy ma'lumotlar.
2. Populyasiya sonini va zichligini aniqlash.
3. Mustaqil ish topshiriqlari
4. Testlar

Darsning maqsadi: Talabalarga populyasiyalarning soni va zichligi hamda bu ko'rsatkichlarning o'zgarib turishi haqida nazariy ma'lumotlar berish, amaliyotda populyasiya soni va zichligini aniqlash usullaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

Dars o'tish vositalari: o'quv va uslubiy qo'llanmalar, turli organizm populyasiyasi soni va zichligi ko'rsatilgan jadval, ish daftari, metr o'lchagich, 1m^2 yoki $0,5\text{m}^2$ yuzali to'rtburchak ramka, penset, mikrokalkulyator. Ishning bir qismi dala sharoitida bajariladi.

Dars o'tish usullari: dars takrorlash, suhbat va savol-javob, amaliy topshiriqni mustaqil bajarish hamda olingan natijalarni munozara qilish tarzida olib boriladi. Bunda talabalarning mustaqil, erkin fikrlash va fikrlarni bayon etishga o'rgatish uchun ularga mavzu bo'yicha savollar beriladi, talabalar guruh-guruh bo'lib amaliy ishini mustaqil bajaradilar va natijalarni bayon qiladilar, natijalar o'qituvchi bilan birgalikda tahlil qilinadi.

Darsning mazmuni:

«Populyasiya-o'z-o'zini yaratishga qobilyatli, shu turning boshqa individlari majmuasidan makonda va zamonda alohidalashgan bir turga mansub individlar majmuasidir».

Populyasiya individlar majmuasi sifatida ayrim olingan individlardan quydagi belgilari yoki ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi:

- 1) populyasiya soni- ajratilgan maydondagi individlarning umumiy soni;
- 2) populyasiya zichligi- maydon yoki hajm birligidagi individlar soni;
- 3) tug'ilish- vaqt birligida ko'payish natijasida paydo bo'ladigan yangi individlar soni;

4) o'lim- ma'lum vaqt oralig'ida nobud bo'lgan individlar sonini ko'rsatadigan ko'rsatkich;

5) populyasiya sonining o'sishi- o'lim va tug'ilish o'rtasidagi farq;

6) o'sish tezligi- vaqt birligi ichida populyasiya sonining o'sishi;

Populyasiyalarni o'rganishda asosan ikki guruh miqdoriy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Bularning birinchisi statik ko'rsatkichlar bo'lib, populyasiyaning ma'lum vaqtdagi holatini tavsiflaydi. Ikkinchisi dinamik ko'rsatkichlar bo'lib, ma'lum vaqt oralig'ida populyasiyada o'tadigan jarayonlarni tavsiflaydi. Statik ko'rsatkichlarga populyasiya soni va zichligi hamda populyasiya strukturasi ko'rsatkichlari (yosh, jins va boshqa strukturalar) kiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, statik ko'rsatkichlar, albatta, doimiy bo'lmasdan, vaqt davomida o'zgarib turishi mumkin. Lekin bu o'zgarishlar jadalligi dinamik ko'rsatkichlar bilan baholanadi.

1.1. Populyasiya soni va zichligi haqida nazariy ma'lumotlar

Populyasiya soni deganda mazkur populyasiyadagi individlarning umumiy soni tushuniladi. Tabiatdagi populyasiyalarda individlar sonini aniqlash juda qiyin. Ko'pchilik hollarda populyasiya soni oddiy sanash yo'li bilan aniqlanadi. Ba'zan populyasiya sonini aniqlashda individlarga belgi qo'yish usuli qo'llaniladi.

Ko'pchilik hollarda populyasiyadagi individlarning umumiy sonini aniklash imkoniyatlari bo'lmaydi. Shuning uchun alohida namunalar olinib, bu namunadagi individlar soni aniqlanadi. Bunday holatlarda aniqlanadigan kattalik populyasiya soni emas, balki populyasiyaning zichligidir. Populyasiya zichligi - maydon birligidagi individlar sonidir. Har bir guruh organizm uchun zichlikning o'ziga xos baholash va ifodalash usullari mavjud. Masalan, o'tchil o'simliklar populyasiyasining zichligi turtburchak yoki aylana ramkalar yordamida o'lchanadi. Bunda ramka yerga o'rnatilib, uning ichidagi o'simliklar sanaladi. Bentos organizmlar maxsus cho'michlar bilan suv tubi loyqasining ma'lum yuzasini kesib olib sanaladi. Plangton organizmlar zichligi esa plangton setkalar bilan yoki batometr yordamida ma'lum hajmdagi suvni olib aniqlanadi. Quruqlik va bentos o'simlik va hayvonlarning zichligi ko'pincha maydon birligidagi organizmlar sonida ifodalanadi. Plangton organizmlar zichligi esa hajm birligidagi yoki yuza birligidagi organizmlar soni bilan ifodalanadi.

Ba'zan populyasiya zichligi ma'lum yo'nalish bo'yicha organizmlarning uchrash soni bilan o'lchanadi. Masalan, qushlarni zichligi yoki qishda sut emizuvchilarning qordagi iziga qarab zichligi aniqlanadi. Ba'zi hollarda populyasiya zichligi bilvosita yo'llar bilan aniqlanadi, ya'ni zichlik bilan bog'liq ko'rsatkichlar orqali. Masalan, baliqlar zichligini ovning hajmiga qarab o'lchash, hayvon zichligini bir yilda tayyorlov sexiga topshirilgan mo'yna miqdoriga qarab aniqlash yoki tutqichlarga tushgan organizmlar soniga qarab zichlikni aniqlash va hokazo.

1.2. Populyasiya sonini va zichligini aniqlash.

Populyasiya soni va zichligini aniqlash uchun o'quv binosi yaqinidagi yashil maydon (daraxtzor) tanlanadi. Daraxtlarning turlari aniqlanadi va ularning soni sanab chiqiladi. Olingan ma'lumotlar amaliyot daftariga qayd qilinadi. Bu ma'lumotlar daraxtlar populyasiyasining sonini ifodalaydi. Daraxtlar zichligi 100 m^2 maydondagi individlar sonida ifodalanadi.

O'tchil o'simlik zichligini aniqlash uchun ajiriq, qo'ng'irbosh, bug'doy yoki boshqa o'simlik tanlanadi. 1 m^2 maydon ajratilib, tanlangan turga mansub o'simliklar soni sanab chiqiladi. Bunday namunalar ajratilgan maydonning turli qismlaridan bir necha marta olinadi va o'simliklarning 1 m^2 maydondagi o'rtacha soni aniqlanadi. Olingan natija mazkur o'simlik populyasiyasining zichligini ifodalaydi. Hisoblash ishlari uquv xonasida olib boriladi va natijalar amaliyot daftariga qayd qilinadi.

1.3. Mustaqil ish topshiriqlari

1. Yashash joyingiz atrofidagi daraxt va o'tchil usimlik populyasiyasining zichligini aniqlang va shu populyasiyaning soni haqida xulosa qiling.

2. Populyasiya zichligini hisoblashning bilvosita usullari va ular orqali chiqariladigan xulosalarni bayon eting.
3. Populyasiya soni va zichligini aniqlashning amaliy ahamiyati haqidagi fikrlaringizni bayon eting.

1.4. Testlar

1. «Ekologiya – bu ekosistemalar biologiyasidir». Bu fikr qaysi olimga tegishli?
A) Yu.Odum V) R.Margalef S) S.Krebs D) Ch.Elton
2. «Ekologiya- organizmlarning tarqalishi va zichligini belgilaydigan munosabatlar haqidagi fandir». Bu ta'rif qaysi olimga tegishli?
A) E.Gekkel V) R.Margalef S) S.Krebs D) Ch.Elton
3. Populyasiyalar ekologiyasining asoschisini ko'rsating.
A) Yu.Odum V) E.Gekkel S) Ch.Darvin D) Ch.Elton
4. Ekologiyaga turli yondoshishlarning qaysi birida asosiy e'tibor ayrim turlarga qaratiladi?
A) Populyasiyali yondoshish V) Ekosistemali yondoshish
S) Struktur yondoshish D) Funksional yondoshish
5. Gemipopulyasiya – bu ...
A) Bir ekosistemadagi bitta turga mansub individlar yig'indisi
V) Erkin chatisha oladigan bir turga mansub individlar yig'indisi
S) Bir-biriga morfologik jihatidan o'xshash bo'lgan ikki va undan ortiq turga mansub individlar yig'indisi
D) Hayot fazalarini turli yashash muhitida o'tkazadigan bir turga mansub individlar majmui
6. Nima uchun ekosistemadagi bir turga mansub barcha individlar yig'indisini populyasiya deb qarash yetarli emas?
A) Bir turga mansub individlar bir ekosistemadan boshqasiga o'tib turishi mumkin
V) Ekosistemada juda ko'p turlarga mansub individlar borligi uchun
S) Bir ekosistemada genetik jihatdan alohidalashgan bir necha populyasiyalar yashashi mumkinligi uchun
D) A va S javoblar
7. Populyasiyaning qaysi ko'rsatkichlari ayrim olingan individlarga xos emas?
A) Populyasiya soni V) Populyasiya zichligi
S) Tug'ilish va o'lim D) Barchasi
8. Populyasiyaning dinamik ko'rsatkichlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
1) jins tuzilma; 2) o'lim; 3) populyasiya zichligi; 4) tug'ilish; 5) populyasiya soni; 6) yosh tuzilma
A) 1,3 V) 2,4 S) 4,5,6 D) 1,3,6
9. Populyasiyadagi individlarning umumiy sonini aniqlash imkoniyatlari bo'lmaganda populyasiya soni qaysi ko'rsatkichni aniqlash orqali topiladi?
A) Tug'ilish va o'limni V) Yosh tuzilmani
S) Jins tuzilmani D) Zichlikni
10. Populyasiyaning statik ko'rsatkichlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
1) populyasiya soni; 2) tug'ilish; 3) populyasiya strukturasi; 4) o'lim; 5) populyasiya sonining o'zgarish tezligi; 6) populyasiya zichligi;
A) 1,3,6 V) 1,2,5 S) 2,4,5 D) 4,5,6

Sinov savollari

5. Populyasiyaning statik ko'rsatkichlariga ta'rif bering. Ularning dinamik ko'rsatkichlardan farqini tushintiring.
6. Populyasiya soni deganda nimani tushunasiz va uni qanday usullarda aniqlash mumkin?
7. Populyasiya zichligi deganda nimani tushunasiz va uni qanday aniqlash mumkin?

8. O'tchil o'simliklar yoki mayda hayvonlarda individlar sonini sanab bo'lmaydi. Bunday hollarda populyasiyaning soni qanday aniqlanadi?
9. Quruqlik, bentos va plangton organizmlar uchun ziklikni ifodalash usullari haqida nimalarni bilasiz?
10. Populyasiya soni va zichligini aniqlashning qanday ahamiyati bor?

Adabiyotlar

1. Gilyarov A.M. Populyasionnaya ekologiya. M., 1990. s. 32-39.
2. To'xtayev A. Ekologiya. T., 1998. 74-76b.
3. Ergashev A. Umumiy ekologiya. T., 2003. 72-81b.
4. Yablokov A.V. Populyasionnaya biologiya. M., 1987. 303 s.
5. Chernova N.M., Bylova A.M. Ekologiya. M., 1988. s.101-121
6. Chernova N.M. Laboratornyy praktikum po ekologii. M., 1985. s. 12-14

2-Mavzu: O'simlik populyasiyasining yosh tuzilmasini aniqlash

Reja:

1. Populyasiyaning yosh tuzilmasi haqida nazariy ma'lumotlar.
2. O'simlik populyasiyasining yosh tuzilmasini o'rganish.
3. Mustaqil ish topshiriqlari
4. Testlar

Darsning maqsadi: Talabalarga populyasiyalarning yosh tuzilmasi hamda uning ifodalanishi, yosh tuzilmaning populyasiya hayotidagi ahamiyati haqida nazariy ma'lumotlar berish, amaliyotda populyasiya yosh tuzilmasini aniqlash usullaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

Dars o'tish vositalari: Yantoqning turli yosh holatlarini hisobga olib yig'ilgan gerbariy namunalari. Shuningdek, boshqa o'simliklarning yosh holatlariga oid gerbariyalar. O'simliklarning yosh holatini ifodalovchi jadval va o'quv qo'llanmalar.

Dars o'tish usullari: dars takrorlash, suhbat va savol-javob, amaliy topshiriqni mustaqil bajarish hamda olingan natijalarni munozara qilish tarzida olib boriladi. Bunda talabalarning mustaqil, erkin fikrlash va fikrlarni bayon etishga o'rgatish uchun ularga mavzu bo'yicha savollar beriladi, talabalar guruh-guruh bo'lib amaliy ishini mustaqil bajaradilar va natijalarni bayon qiladilar, natijalar o'qituvchi bilan birgalikda tahlil qilinadi.

Darsning mazmuni:

2.1. Populyasiyaning yosh tuzilmasi haqida nazariy ma'lumotlar.

Populyasiyada turli yoshga mansub individlarning o'zaro nisbati uning yosh tuzilmasini ifodalaydi. Populyasiyaning yosh tuzilmasi o'z- o'zini yaratish jadalligi, o'lish darajasi, avlod almashinish tezligi kabi muhim jarayonlarni aks ettiradi.

Populyasiyaning yosh tuzilmasi quyidagi usullarda ifodalanishi mumkin.

- 1) turli yoshdagi individlar guruhi nisbati orqali;
- 2) turli avlodlar nisbati orqali;
- 3) predreproduktiv, reproduktiv va postreproduktiv davrlar davomiyligining nisbati orqali;
- 4) individlarning rivojlanish va o'sish xususiyatlari orqali.

Individlarning yoshiga bog'lik holda ularning yashash muhitiga va alohida omillarga talabi sezilarli o'zgarib turadi. Ontogenezning turli bosqichlarida organizmlarning yashash muhiti, oziqlanish usuli, harakatlanish xususiyatlari, faolligi almashinib turishi mumkin. Ayrim hollarda bir turga mansub turli yoshdagi guruhlar o'rtasidagi farq turli turlar o'rtasidagi farqlarga

nisbatan kuchliroq ifodalangan bo'ladi. Masalan, baqalarning yetuk davri va lichinkasi, kapalaklar va ularning lichinkasi va boshqalar.

Turli yoshdagi guruhlar o'rtasida hayot tarzida farqlar shunga olib keladiki, ba'zi funksiyalar to'lig'icha rivojlanishning ma'lum bosqichlarida bajariladi. Masalan, hasharotlarning ko'pchiligi yetuk davrida deyarli oziqlanmaydi. Oziqlanish va o'sish lichinka bosqichida amalga oshiriladi. Yetuk davri esa tarqalish va ko'payish vazifasini bajaradi.

Populyasiyada individlarning yosh jihatidan bir-biridan farq qilishi populyasiyaning ekologik xilma-xilligini kuchaytiradi, bu esa noqulay tashqi muhit sharoitlarida turning yashab qolish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'simlik populyasiyalarida yosh tuzilma turli yoshdagi individlar nisbatida ifodalanadi. Individlarning yosh holati-uning tashqi muhit bilan ma'lum munosabatlarini tavsiflaydigan ontogeneznining ma'lum bosqichidir. O'simlik populyasiyasining yosh tuzilmasida quyidagi guruhlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

O'simta- tuzilishi jihatdan sodda, ikki yo'l bilan oziqlanadigan (urug'dagi zapas oziqa va qisman mustaqil) kichik o'simliklar;

Yosh o'simliklar- mustaqil oziqlanadi, shoxlanmagan yoki shoxlanish boshlangan, barglari uncha yirik bo'lmagan o'simliklar.

Yetuk vegetativ o'simliklar - yer usti va yer osti organlari to'liq shakllangan, lekin reproduktiv organlari hali yo'q. Bu o'simliklar keyinchalik gul va meva hosil bo'lishi bilan generativ bosqichga o'tadi. Generativ bosqichga o'tishda organizmda fiziologik va bioximik o'zgarishlar yuzaga keladi. Transpirasiya va fotosintez tezligi oshadi.

Yosh generativ o'simliklar- gullaydi, meva hosil qiladi, o'simlik yetuk shaklga kiradi.

O'rta yoshli generativ o'simliklar - har tomonlama yetuk, eng yuqori o'sish va urug' hosil qilishga qobiliyatli o'simliklar.

Qari generativ o'simliklar - reproduktiv funksiyasi zaiflashgan, shoxlanish va ildiz o'sishi jarayonlari sekinlashgan o'simliklar. Bu o'simliklarda yemirilish jarayoni yangilanish jarayonidan ustun.

Qari vegetativ o'simliklar- meva hosil qilishi to'xtagan o'simlik, yemirilish jarayoni ko'payadi, ildiz va shoxlari orasidagi bog'lanish zaiflashadi.

O'layotgan individlar - o'lchamlari kichiklashgan, ko'pchilik hujayralari o'lgan o'simliklar.

O'simlik populyasiyasida individlarning yosh holatiga qarab taqsimlanishi yosh spektri deb ataladi. Agar populyasiya yosh spektri fakat urug' va o'simtalardan iborat bo'lsa, bu populyasiya invazion populyasiya deb ataladi. Yosh biosenozda endi shakllanayotgan populyasiyalar shunday populyasiyadir. Bunday populyasiya o'z-o'zini boshqarishga qodir emas. Agar populyasiya barcha yoshdagi guruhlardan iborat bo'lsa, normal populyasiya deyiladi. Bunday populyasiya mustaqil va o'z-o'zini boshqara oladi. Generativ va vegetativ qari individlardan iborat populyasiya regressiv populyasiya deb ataladi. Invazion, normal va regressiv populyasiyalar bir-biriga o'tib turadi.

Senopopulyasiyalar yosh tuzilmasi turning biologik xususiyatlari tomonidan belgilanadi, hamda tashqi muhit sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Senopopulyasiyaning yosh spektri uning holati va o'zgaruvchan yashash muhitiga moslashganlik darajasini aks ettiradi.

2.2.O'simlik populyasiyasining yosh tuzilmasini o'rganish.

Yantoq o'simligidan yig'ilgan gerbariy namunalarining tashqi tuzilishini kuzatish orqali hamda o'quv qo'llanma, jadvaldan foydalanib, har bir namunaning yosh holati aniqlanadi. Shuningdek gerbariylar o'simlikning ontogenetik bosqichlari asosida ketma-ket qo'yib chiqiladi. Ish daftoriga har bir yosh individlarning o'ziga xos xususiyatlari bayon etiladi.

Yantoq - ko'p yillik o't o'simlik. Yantoqning urug'i mayda, silliq buyraksimon, to'q qo'ng'ir rangda, urug' pallalari ovalsimon, tuksiz, qisqa bandli. Boshlang'ich haqiqiy barglar 9-13 kundan keyin yoziladi. Ildizi shu vaqtlarda 8-10 sm chuqurga boradi. 40-45 kun ichida novdalarining yoppasiga shoxlanishi kuzatiladi. Shoxlanish xususiyatlaridan biri tikanlarning

shakllanishidir. Bir yillik individlarda dastlabki tikanlar 2-5 bo'g'nlarda 22-27 kunlari rivojlanadi. Vegetativ davrining oxirida (5 oylik) yantoqning to'liq shakllanganligi va ko'p sonli barglarga ega bo'lishi kuzatiladi. Ikkinchi yili vegetasiya boshlanishi bilan yillik novdalarda 2-turdagi barglar hosil bo'ladi: ostki tangachasimon va haqiqiy fotosintez qiluvchi barglar.

Yantoq madaniy holda o'stirilganda generativ davrga ikkinchi yili vegetasiya qiluvchi o'simliklarning 60% i o'tadi. Voyaga yetgan virgil individlar jinsiy voyaga yetgan individlardan ancha yirik barglari va mayda tikanlari bilan ajralib turadi. Ikkinchi yilgi o'simlik ildizpoyasidan shakllangan 2-3 ta yer ustki novdalar tashqi ko'rinishi bilan ona o'simlikdan farq qilmaydi va ular gullab meva beradi.

Uchinchi yil vegetasiyasidagi o'simlik 86% gacha gullab meva hosil qiladi.

Tabiiy yantoqzorlarda ko'pincha meva hosil qilmaydigan individlar uchraydi. Ular qarigan bosqichdagi o'simliklardir.

2.3. Mustaqil ish topshiriqlari

1. Yashash joyingiz atrofidagi bog'dan turli yoshdagi mevali daraxtlarni kuzating, ulardagi hosil miqdorini tahlil qiling va natijalarni yosh tuzilmaga bog'lab tushuntiring.
2. O'simlik populyasiyasining yosh spektrini tavsiflab bering.
3. Daraxtlarning yoshini aniqlash usulini tushintirib bering.

2.4. Testlar

1. Populyasiya strukturasini – bu ...
 - A) Populyasiyada turli sifat darajasidagi guruhlarining o'zaro nisbati
 - V) Populyasiyada turli jinsga mansub individlarning o'zaro nisbati
 - S) Vaqt birligi ichida individlarning ko'payib yoki kamayib turishi
 - D) Maydon birligidagi individlar soni
2. Populyasiya yosh tuzilmasi qanday usulda ifodalanadi?
 - A) Turli yoshdagi individlar guruhi nisbati orqali
 - V) Predreproduktiv, reproduktiv va postreproduktiv davrlarning nisbati orqali
 - S) Turli avlodlar nisbati orqali
 - D) Barcha javoblar to'g'ri
3. O'simliklarda invazion populyasiya deganda qanday populyasiya tushiniladi?
 - A) Yosh spektri faqat urug' va o'simtalardan iborat populyasiya
 - V) Barcha yoshdagi individlardan iborat populyasiya
 - S) Generativ va vegetativ qari individlardan iborat populyasiya
 - D) Yosh tuzilmasini keskin o'zgartirib turadigan populyasiya
3. Regressiv populyasiya – bu ...
 - A) Yosh spektri faqat urug' va o'simtalardan iborat populyasiya
 - V) Barcha yoshdagi individlardan iborat populyasiya
 - S) Generativ va vegetativ qari individlardan iborat populyasiya
 - D) Yosh tuzilmasini keskin o'zgartirib turadigan populyasiya
4. Normal populyasiya – bu ..
 - A) Yosh spektri faqat urug' va o'simtalardan iborat populyasiya
 - V) Barcha yoshdagi individlardan iborat populyasiya
 - S) Generativ va vegetativ qari individlardan iborat populyasiya
 - D) Yosh tuzilmasini keskin o'zgartirib turadigan populyasiya
5. Yosh individlar hissi qari individlarga nisbatan yuqori bo'lsa, populyasiyani keleshda qanday o'zgarishlar kutadi?
 - A) Populyasiyaning barcha ko'rsatkichlari barqaror saqlanadi
 - S) Populyasiyaning jins tuzilmasi o'zgaradi
 - V) Populyasiya soni ortadi
 - D) Populyasiya zichligi kamayadi
6. Individlarning populyasiya egallagan maydonda tarqalishi populyasiyaning qanday tuzilmasini ifodalaydi?

- A) jins tuzilma V) yosh tuzilma
 S) joy tuzilma D) ekologik tuzilma
7. Populyasiyada individlarning asosiy taqsimlanish tiplarini ko'rsating.
 A) invazion, normal, regressiv V) tekis, tasodifiy, nuqtali
 S) tekis, normal, regressiv D) tasodifiy, regressiv, normal
8. Vegetativ ko'payadigan o'simliklar uchun taqsimlanishning qaysi tipi xos?
 A) tekis V) tasodifiy S) nuqtali D) tekis, tasodifiy

Sinov savollari

8. Populyasiyaning statik ko'rsatkichlariga qaysi ko'rsatkichlari kiradi?
 9. Populyasiyaning yosh tuzilmasi deganda nimani tushunasiz?
 10. Populyasiyaning yosh tuzilmasi qanday usullarda ifodalanadi?
 11. Invazion populyasiyaga ta'rif bering.
 12. Regressiv va normal populyasiyaga ta'rif bering.
 13. Populyasiyaning yosh spektriga qarab, uning kelajakdagi hayotini bashorat qilish mumkinmi?
 14. Yosh tuzilmani o'rganishning qanday ahamiyati bor?
- Adabiyotlar**
1. Gilyarov A.M. Populyasionnaya ekologiya. M., 1990. s. 39-43.
 2. To'xtayev A. Ekologiya. T., 1998. 76-80b.
 3. Ergashev A. Umumiy ekologiya. T., 3003. 81-89b.
 4. Yablokov A.V. Populyasionnaya biologiya. M., 1987. 303 s.
 5. Chernova N.M., Bylova A.M. Ekologiya. M., 1988. s.121-124

3- Mavzu: Hayvonlar populyasiyasining yosh va jins tuzilmasi

Reja:

1. Hayvon populyasiyasining jins va yosh tuzilmasi haqida nazariy ma'lumotlar
2. Jins va yosh tuzilmani o'rganish
3. Mustaqil ish topshiriqlari
4. Testlar

Darsning maqsadi: Talabalarga hayvon populyasiyalrining jins va yosh tuzilmasi haqida nazariy ma'lumotlar berish, amaliyotda jins va yosh tuzilmani aniqlash va u asosida populyasiyaning kelajagi haqida xulosalar qilish ko'nikmalarini shakllantirish

Dars o'tish vositalari: Turli hasharotlardan tayyorlangan kolleksiyalar, o'quv qo'llanmalari va jadvallar. «Tirik burchak»dan olib kelingan erkak va urg'ochi quyonlar. Tarozi, chizg'ichlar, tasmali metr o'lchagich.

Dars o'tish usullari: dars takrorlash, suhbat va savol-javob, amaliy topshiriqni mustaqil bajarish hamda olingan natijalarni munozara qilish tarzida olib boriladi. Bunda talabalarning mustaqil, erkin fikrlash va fikrlarni bayon etishga o'rgatish uchun ularga mavzu bo'yicha savollar beriladi, talabalar guruh-guruh bo'lib amaliy ishni mustaqil bajaradilar va natijalarni bayon qiladilar, natijalar o'qituvchi bilan birgalikda tahlil qilinadi.

Darsning mazmuni:

3.1. Hayvon populyasiyasining jins va yosh tuzilmasi haqida nazariy ma'lumotlar

Hayvonlarda ko'payish xususiyatlariga qarab individlar bitta yoki turli avlodlarga tegishli bo'lishi mumkin. Agar populyasiyadagi individlar bir avlodga tegishli bo'lsa, ular yosh jihatdan bir biriga yaqin va deyarli bir vaqtda hayot bosqichlarini o'taydi. Bunday

populyasiyalarda turli hayot bosqichlari va ko'payishi muddatlari yilning ma'lum mavsumlariga to'g'ri keladi.

Bir vaqtning o'zida turli avlodlari mavjud bo'ladigan turlarda populyasiya yosh tuzilmasi murakkabroq bo'ladi. Masalan, may qo'ng'izi lichinkalari populyasiyasida 4 ta avlod individlari mavjud bo'ladi.

Yuksak hayvonlarda ko'p marta ko'payish va yetuk individlarning uzoq vaqt yashashi natijasida populyasiyaning yosh tuzilmasi yanada murakkabroq bo'ladi. Bunday populyasiyalar nisbatan doimiy bo'ladi. Ekspluatasiya qilinadigan tabiiy populyasiyalarning yosh tuzilmasini aniqlash juda muhim ahamiyatga ega. Tiklanish imkoniyatlari keng bo'lgan populyasiyalardan soniga zarar yetkazmasdan ko'proq foydalanish mumkin.

Populyasiyalar yosh tuzilmasini taxlil qilish natijasida uning kelgusidagi sonini bashorat qilishi mumkin. Bunday tahlil, ayniqsa baliqchilikda keng qo'llaniladi.

Populyasiyaning jins tuzilmasi deganda populyasiyadagi turli jinsga mansub organizmlarning, ya'ni erkak va urg'ochi individlar nisbati tushuniladi. Ko'pchilik turlarda individlar jinsi urug'lanish jarayonida jinsiy xromosomalar kombinatsiyasi bilan aniqlanadi. Bu jarayon zigotalar jinsining teng nisbatini ta'minlaydi. Lekin bunday nisbat umuman populyasiya uchun xos deyish to'g'ri emas. Erkak va urg'ochi individlar fiziologiyasi, ekologiyasi va xulq-atvori bilan bir-biridan farq qiladi. Natijada turli jinsdagi individlarning yashab qolish imkoniyatlari turlicha bo'ladi, binobarin, jinslar nisbati ham o'zgarishi mumkin.

Ba'zi organizmlarda urg'ochi va erkak jinslar o'rtasidagi ekologik va xulq atvori jihatidan farq kuchli ifodalangan bo'ladi. Masalan, chivinlarning urg'ochisi qon so'rib oziqlansa, erkagi yetuk davrida oziqlanmaydi, yoki ba'zi turlari nektar bilan oziqlanadi. Urg'ochi va erkak organizmlar bir-biridan ko'pchilik fiziologik xususiyatlari bilan farq qiladi. Masalan, o'sish tezligi, jinsiy yetilish vaqti, ochlikka va harorat o'zgarishiga chidamliligi va hokazo. Albatta, populyasiyaning jins strukturasi populyasiyada turli jinslar mavjud bo'lganda mavjud bo'ladi. Germofrodit va partonegenetik formalar haqida gapirganda jins strukturasi mavjud emasday tuyuladi. Lekin germofrodit organizmlarda ham o'ziga xos jinsiy jarayon kuzatiladi. Partenogenetik formalarning kupchilik populyasiyalarida erkak organizmlar uchrab turadi. Shuning uchun populyasiyaning jins strukturasi ko'pchilik turlar uchun universal xususiyat bo'lib xizmat qiladi.

Hayvon populyasiyasi yosh tuzilmasini hasharotlarda o'rganish ancha qulay. Hasharotlar to'liqsiz va to'liq o'zgarish orqali rivojlanadi. To'liqsiz o'zgarish bilan rivojlanuvchi hasharotlar uch rivojlanish davrini (tuxum, lichinka va yetuk) o'tkazadi. Bunday hasharotlarning lichinkalari tashqi ko'rinishi bilan yetuk davriga o'xshaydi, ammo ular kichikligi va qanotlarining taraqqiy etmaganligi, tana bo'g'imlari miqdorining kamligi va boshqa bir qator belgilari bilan farqlanadi. Lichinka katta bo'lgan sari qanot paydo bo'lib, tanasi yiriklashadi, bo'g'imlarining miqdori ortib, umumiy gavda ko'rinishi borgan sari yetuk individga o'xshab boradi. To'liqsiz o'zgarish bilan rivojlanuvchi hasharotlarga chigirtkalar, qandalalar, suvaraklar va shira bitlari misol bo'ladi.

3.2. Jins va yosh tuzilmani o'rganish

Hasharotlardan yig'ilgan kolleksiya asosida to'liqsiz va to'liq o'zgarish bilan rivojlanuvchi hasharotlar populyasiyasining yosh tuzilmasini aniqlash. Buning uchun chigirtkalar kolleksiyasini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chigirtkalarining urg'ochisi yozda tuxum qo'yib, nobud bo'ladi. Bahorda tuxumdan lichinkalar chiqadi. Lichinkalar rivojlanish davomida 4-5 marta tullaydi, ya'ni 4-5 yoshni o'taydi. Tullash jarayonida lichinkalar o'sib, yetuk hasharotga o'xshab boradi.

Lichinkalarni diqqat bilan kuzatib, har bir tullash davri aniqlanadi, turli yosh lichinkalarining tana o'lchamlari, qanotlarining rivojlanish darajasi va tana bo'g'imlarining soni aniqlanadi. Olingan natijalar asosida 1-jadval to'ldiriladi.

Populyasiyadagi jinslar o'rtasidagi morfologik farqni o'rganish uchun erkak va urg'ochi quyonlarning og'irligi o'lchanadi. Bunda ularning tanasi, dumi va quloqlarining uzunligi, miya qutisi, yuz va ko'z tuzilishidagi farqlar aniqlanib, olingan natijalar 2-jadvalda qayd qilinadi.

1-jadval

Chigirtkaning turli rivojlanish bosqichidagi morfologik o'zgarishlar

Morfologik o'zgarishlar	1-yosh lichinka	2-yosh lichinka	3-yosh lichinka	4-yosh lichinka	5-yosh lichinka	Yetuk davri(imago)
Tanasining o'lchami						
Qanotining rivojlanish darajasi						
Tana bo'g'imlari miqdori						

2-jadval

Turli jinsdagi quyonlarning morfologik farqlari

Ko'rsatkichlar	Urg'ochisi	Erkagi
Tanasining og'irligi (kg) Tanasining uzunligi (sm) Dumining uzunligi (sm) Qulog'ining uzunligi (sm) Miya qutisining ulchami (sm)		

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Demografik ma'lumotlar asosida odamlar populyasiyasidagi jinslar nisbati haqida ma'lumotlar tuplang va xulosalar qiling.
2. Jinslar nisbatining tashqi muhit omillariga bog'liqligini tushintirib bering.
3. Urug'lanish jarayonida jinslar nisbatining yuzaga kelishini tushintiring.

Testlar

1. Qaysi javobda birlamchi jins tuzilma ifodalangan?
 - A) Ko'payishga layoqatli individlar orasidagi erkak va urg'ochi organizmlar nisbati
 - V) Hayotning keyingi davrlarida shakllangan jinslar nisbati
 - S) Xromosomalar kombinasiyasi bilan aniqlanadigan jinslar nisbati
 - D) O'lgan individlardagi jinslar nisbati
2. Ikkilamchi jins tuzilma – bu ...
 - A) Ko'payishga layoqatli individlar orasidagi erkak va urg'ochi organizmlar nisbati
 - V) Hayotning keyingi davrlarida shakllangan jinslar nisbati
 - S) Xromosomalar kombinasiyasi bilan aniqlanadigan jinslar nisbati
 - D) O'lgan individlardagi jinslar nisbati
3. Uchlamchi jins tuzilma – bu ...
 - A) Ko'payishga layoqatli individlar orasidagi erkak va urg'ochi organizmlar nisbati
 - V) Hayotning keyingi davrlarida shakllangan jinslar nisbati
 - S) Xromosomalar kombinasiyasi bilan aniqlanadigan jinslar nisbati
 - D) O'lgan individlardagi jinslar nisbati
4. Qaysi organizmda 20⁰S dan past haroratda qo'yilgan tuxumlardan erkak individlar rivojlanadi?

- A) Suvaraklarda V) O'rmon chumolilarida
S) termitlarda D) Baqalarda
5. Arisama o'simligida tugunakdan rivojlanadigan organizmning jinsi nimaga bog'liq?
A) Tugunakdagi oziq miqdoriga V) Tugunakning hosil bo'lish vaqtiga S) Hovo haroratigi D) Tuproq namligiga
6. Jins tuzilmada urg'ochi individlar hissasi katta bo'lsa, populyasiya ...
A) kamayadi V) o'sadi S) turg'un bo'ladi D) areali torayadi

Sinov savollari

3. Populyasiyaning statik ko'rsatkichlariga qaysi ko'rsatkichlari kiradi?
4. Populyasiyaning jins tuzilmasi deganda nimani tushunasiz?
5. Populyasiyaning yosh tuzilmasi qanday usullarda ifodalanadi?
6. Populyasiyada jinslar nisbati ekologik omillarga bog'liqmi?
7. Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi jins tuzilmalarni tushintiring.
8. Populyasiyaning yosh va jins tuzilmasiga qarab, uning kelajakdagi hayotini bashorat qilish mumkinmi?
9. Jins tuzilmani o'rganishning qanday ahamiyati bor?

Adabiyotlar

1. Gilyarov A.M. Populyasionnaya ekologiya. M., 1990. s. 39-43.
2. Rahmonqulov U. va boshqalar. Ekologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari. Jizzax, 2005. 34b.
3. To'xtayev A. Ekologiya. T., 1998. 76-80b.
4. Ergashev A. Umumiy ekologiya. T., 2003. 81-89b.
5. Yablokov A.V. Populyasionnaya biologiya. M., 1987. 303 s.
6. Chernova N.M., Bylova A.M. Ekologiya. M., 1988. s.121-124
7. Chernova N.M. Laboratornyye praktikum po ekologii. M., 1985. 68s.

4- Mavzu: Yashovchanlik jadvalini tuzish

Reja:

1. Populyasiyaning dinamik ko'rsatkichlari haqida nazariy ma'lumotlar
2. Yashovchanlik jadvalini tuzish
3. Mustaqil ish topshiriqlari
4. Testlar

Darsning maqsadi: Talabalarga populyasiyaning dinamik ko'rsatkichlari haqida nazariy ma'lumotlar berish, populyasiyadagi o'limni yoshlar bo'yicha taqsimlanishini o'rganish va yashovchanlik jadvalini tuzish ko'nikmalarini hosil qilish.

Dars o'tish vositalari: sinf doskasi, yashab qolish jadvaliga oid plakatlar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, mikrokalkulyator, ish daftari.

Dars o'tish usullari: dars takrorlash, suhbat va savol-javob, amaliy topshiriqni mustaqil bajarish hamda olingan natijalarni munozara qilish tarzida olib boriladi. Bunda talabalarning mustaqil, erkin fikrlash va fikrlarni bayon etishga o'rgatish uchun ularga mavzu bo'yicha savollar beriladi, talabalar yakka tartibda amaliy ishni mustaqil bajaradilar va natijalarni bayon qiladilar, natijalar o'qituvchi bilan birgalikda tahlil qilinadi.

Darsning mazmuni:

Populyasiya - nafaqat makonda, balki zamonda ham mavjud bo'lgan, bir butunlikka ega bo'lgan individlar yig'indisidir. Populyasiyada hamma vaqt avlodlar almashinishi sodir bo'lib turadi. Binobarin, populyasiyaning yashash davri hamma vaqt alohida individ hayotiga nisbatan ancha uzoq bo'ladi.

Populyasiyada sodir bo'ladigan jarayonlarning jadalligini baholaydigan ko'rsatkichlar populyasiyaning dinamik ko'rsatkichlari deyiladi. Dinamik ko'rsatkichlarga tug'ilish, o'lim, individlarning immigrasiyasi va emmigrasiyasi kiradi. Shu ko'rsatkichlar populyasiya sonining o'zgarishini belgilaydi. Bunday jarayonlarning odatdagi ifodasi ularning tezligidir.

Populyasiya sonining o'zgarishida emmigrasiya va immigrasiya jarayonlarining ahamiyati uncha katta emas. Asosiy ahamiyatga ega bo'lgan jarayonlar tug'ilish va o'limdir.

4.1. Populyasiyaning dinamik ko'rsatkichlari haqida nazariy ma'lumotlar

Ma'lum vaqt oralig'ida populyasiyadagi individlar tomonidan yuzaga keltiriladigan yangi individlar soni tug'ilishni ifodalaydi. Ko'pincha absolyut va solishtirma tug'ilish farq qilinadi. Ma'lum vaqtda tug'ilgan individlarning umumiy soni absolyut tug'ilishni ifodalaydi. Solishtirma tug'ilish bitta individ hisobiga olingan tug'ilishdir. Boshqacha aytganda, tug'ilgan individlar sonining individlar umumiy soniga nisbati solishtirma tug'ilish deyiladi. Populyasiyada tug'ilishni quyidagi formula asosida hisoblash mumkin:

$$b = \frac{\Delta N_n}{\Delta t}$$

Bu yerda b - tug'ilish; ΔN_n - tug'ilgan individlar soni; Δt - vaqt oralig'i. Agar solishtirma tug'ilish aniqlanayotgan bo'lsa, formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

$$b = \frac{\Delta N_n}{N \Delta t}$$

bu yerda N - vaqt oralig'ining boshlanishida individlarning umumiy soni.

Tug'ilish ijobiy yoki nolga teng kattalik bo'lishi mumkin. Populyasiyadagi tug'ilish kattaligi ko'plab omillarga, jumladan, shu vaqtdagi ko'payishga qobiliyatli individlar soniga bog'lik. Bu esa populyasiyaning jins va yosh tuzilmasi tomonidan belgilanadi. Tug'ilish generatsiyalarning takrorlanish tezligiga ham bog'liq. Yiliga bir generatsiya (avlod) beradigan turlar monovoltin, ko'p avlod beradiganlari polivoltin turlar deyiladi. Ko'payish davrining soniga qarab turlarni monosiklik va polisiklik turlarga ajratish mumkin. Jinsiy yetuk davri qisqa davom etadigan turlar monosiklik turlar deyiladi. Masalan, ko'pchilik hasharotlar, losossimon baliqlar va boshqalar. Qayta- qayta ko'payishga layoqatli turlar polisiklik turlar deyiladi. Bunday turlarga ko'pchilik umurtqali va ba'zi umurtqasiz hayvonlar kiradi. O'simliklarda hayotida bir marta kupayadigan - monokarpik va ko'p marta ko'payadigan polikarpik turlar ajratiladi.

O'lim tug'ilishga qarama- qarshi jarayon bo'lib, ma'lum vaqt oralig'ida o'lgan individlar sonini ifodalaydi. Solishtirma o'lim xuddi tug'ilish kabi topiladi.

$$d = \frac{\Delta N_m}{N \Delta t},$$

d - o'lim, ΔN_m - o'lgan individlar soni, N - vaqt oralig'ining boshlanishidagi individlarning umumiy soni, Δt - vaqt oralig'i. O'lim ijobiy yoki nolga teng kattalikdir.

Tug'ilish va o'lim o'rtasidagi farq populyasiya soni o'zgarishining tezligini ifodalaydi. Binobarin, populyasiya soni o'zgarishini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$r = b - d$$

r -populyasiya sonining o'zgarish tezligi; b - tug'ilish; d - o'lim. Agar tug'ilish o'limga teng ($b = d$) bo'lsa, populyasiya soni doimiy bo'ladi, ya'ni populyasiya turg'un holatda bo'ladi. Populyasiya sonining o'zgarish tezligi ijobiy, salbiy va nolga teng kattalik bo'lishi mumkin.

Populyasiya soni o'zgarish tezligini tug'ilish va o'limning farqi sifatida emas, vaqt oralig'ida populyasiya sonining o'zgarishini o'lchab ham aniqlash mumkin. Bu holda populyasiya soni o'zgarish tezligini quyidagicha ifodalash mumkin.

$$r = \frac{\Delta N}{N \Delta t}$$

ΔN - populyasiya sonining o'zgarishi; N - vaqt oralig'ining boshlanishidagi individlarning umumiy soni; Δt - vaqt oralig'i. Ko'pchilik hollarda olingan natijalardan populyasiya soni o'zgarishining tezligini va tug'ilishni oson aniqlash mumkin. Lekin o'limni aniqlash bir oz qiyinchilik tug'diradi. Bunday hollarda o'limni tug'ilish va populyasiya sonining o'zgarish tezligi orasidagi farq sifatida aniqlash mumkin.

$$d = b - r$$

Populyasiyadagi o'lim bir qancha omillarga bog'lik. Masalan, individlarning genetik va fiziologik sifatliiligiga, tashqi muhit omillarining ta'siriga va hokazo.

Har bir tur organizm uchun umr uzoqligining mumkin bo'lgan maksimal qiymati bor. Lekin tabiatda faqat juda kam individlarga umrning maksimal uzoqligigacha yashay oladi. Turli turlarda umrning maksimal uzoqligi turlichadir. Odatda yirik hayvon va o'simliklarda umr uzoqligi kattaroq, kichikroq organizmlarda kamroq bo'ladi. Umr uzoqligi hayot sharoitlariga bog'liq ravishda o'zgarishi mumkin. Masalan, poykiloterm hayvonlar past haroratda ko'proq yashaydi (albatta, harorat chidamlilik darajasidan chiqmagan holatda). Dafniyada oziq normal bo'lganda umrning maksimal uzoqligi yuqoriroq, oziq ko'p holatda va juda kam bo'lganda pastroq bo'ladi. Ko'pgina ekologik tadqiqotlarda umrning maksimal uzoqligi emas, balki o'rtacha uzoqligi muhimdir.

4.2. Yashovchanlik jadvalini tuzish

Yashovchanlik jadvali o'limning turli yoshdagi guruhlar orasida taqsimlanishi ko'rsatish uchun tuziladi. Odatda, yashovchanlik jadvalini tuzish uchun qisqa vaqt ichida tug'ilgan individlar guruhi ma'lum vaqt oralig'ida kuzatib boriladi. Bunda individlarning yoshi va o'limi nazorat qilib boriladi. Jadvalning 1- grafasida individlar yoshi, aniqrog'i yosh intervali, 2-grafada yashab qolgan individlar soni ko'rsatiladi. Qolgan grafalarda ma'lum yoshgacha yashab qolgan individlar soni, har bir yosh oralig'idagi solishtirma o'lim va har bir yosh uchun umrning o'rtacha uzoqligi ko'rsatiladi (1-jadval).

Boshlang'ich yosh tadqiqot maqsadiga qarab, shartli ravishda olinishi mumkin. Masalan, qushlar o'rganilayotgan bo'lsa, boshlang'ich yosh tuxum qo'yilgan vaqt, yoki qo'shlarning tuxumdan chiqqan vaqti, yoki uyadan uchib chiqish vaqti ham olinishi mumkin. Yosh guruhlari o'rganilayotgan organizmlar umri uzoqligi va hayot siklining xususiyatlariga bog'lik ravishda olinadi. Masalan, odam uchun 5 yillik interval, mayda kemiruvchilar uchun bir necha oy, hasharotlar uchun hafta olish mumkin. Ba'zan yoshga ajratishda astronomik vaqt emas, balki fiziologik yosh olinishi mumkin (masalan, hasharotlarda tuxum, lichinka, g'umbak va imago davrlari).

Yashovchanlik jadvalini tuzish uchun zarur dastlabki ma'lumotlarni amaliyot darslarida to'plashning imkoni yo'q. Shu sababli, mazkur uslubiy ko'rsatmaning ilova qismida har bir talaba uchun turli populyasiyalarga oid ma'lumotlar alohida variantlar shaklida keltirilgan. Talaba shu variantlardan birini tanlab oladi va mustaqil ravishda jadvalni to'ldiradi. Talaba 3-jadvalni ish daftoriga chizadi va ilovadan tanlangan variantdagi ma'lumotlarni jadvalga o'tkazadi. Jadvalning qolgan ustunlarini quyida keltirilgan formulalardan foydalanib to'ldiradi.

Solishtirma o'lim - q_x quyidagicha topiladi:

$$q_x = \frac{d_x}{n_x}$$

Har bir yoshda yashab qolgan individlar hissi - l_x quyidagicha topiladi:

$$l_x = \frac{n_x}{n_0}$$

bunda n_0 - boshlang'ich yoshdagi individlar soni.

Kutilayotgan umr uzoqligini topish uchun X va $X+1$ yosh oralig'ida tirik bo'lgan individlarning

o'rtacha soni topiladi. Bu L_x kattalik quyidagicha topiladi:

$$L_x = \frac{n_x + n_{x+1}}{2}$$

Keyin barcha yoshlar uchun L_x ning summasini topamiz:

$$\sum L_x = T_x,$$

ya'ni yig'indini T_x deb belgilab olamiz. So'ngra kutilgan umr uzoqligi - ye_x ni quyidagicha topamiz:

$$ye_x = \frac{T_x}{n_x}$$

Olingan natijalar asosida jadval to'ldiriladi va dars yakunida amaliyot o'qituvchisiga ko'rsatiladi.

3-jadval

Populyasiyada o'limni turli yoshlar bo'yicha taqsimlanishini ifodalovchi yashovchanlik jadvali

Yoshi , yil (haf- ta), x	Kuzatish paytida tirik bo'l-gan indivd-lar soni, n_x	x yosh orali- g'ining bosh- lanishida yashab qolgan individlar hissasi, l_x	x va $x+1$ yosh oralig'ida o'lgan individ lar soni, d_x	x vaqt oralig'i-dagi solishtir-ma o'lim, q_x	x vaqt oralig'i boshigacha yashab kolgan individ-larning o'rtacha umr uzoqligi, ye_x
0					
1					
2					
3					

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Populyasiyada tug'ilish va o'limni aniqlash usullarini tahlil qiling.
2. Tug'ilish va o'limning turli nisbatlarida populyasiyadagi o'zgarishlarni tushintiring.
3. Populyasiyadagi o'limga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qiling

Testlar

1. Quyidagi formulalarning qaysi biri populyasiyadagi solishtirma tug'ilishni ifodalaydi?

A) $r = \frac{\Delta N}{N\Delta t}$

V) $d = \frac{\Delta N_m}{N\Delta t}$

S) $b = \frac{\Delta N_n}{N\Delta t}$

D) $b = \frac{\Delta N_n}{\Delta t}$
2. Quyidagi formulalarning qaysi biri populyasiyadagi solishtirma o'limni ifodalaydi?

A) $r = \frac{\Delta N}{N\Delta t}$

V) $d = \frac{\Delta N_m}{N\Delta t}$

S) $b = \frac{\Delta N_n}{N\Delta t}$

D) $b = \frac{\Delta N_n}{\Delta t}$
3. Bir yilda bitta avlod beradigan turlar qanday nomlanadi?

A) monovoltin

V) polivoltin

S) monosiklik

D) polisiklik
4. Bir yilda ko'p avlod beradigan turlar qanday nomlanadi?

A) monovoltin

V) polivoltin

S) monosiklik

D) polisiklik
5. Hayotida bir marta ko'payadigan o'simlik turlari qanday nomlanadi?

A) polikarpik

V) monosiklik

S) polisiklik

D) monokarpik
6. Quyidagi munosabatlarning qaysi birida populyasiya turg'un holatda bo'ladi?

A) $b = d$

V) $b < d$

S) $b > d$

D) $r = \text{const}$
7. Bakteriya populyasiyasida 200 ta individ bor. 5 soat davomida bu populyasiyada 700 ta yangi bakteriya paydo bo'lgan. Populyasiyadagi solishtirma tug'ilish qanday qiymatga ega?

A) 1000 V) 0,7 S) 70 D) 140

Sinov savollari

1. Populyasiyaning dinamik ko'rsatkichlariga qaysi ko'rsatkichlari kiradi?
2. Populyasiyadagi tug'ilishga ta'rif bering.
3. Solishtirma tug'ilish deganda nimani tushunasiz?
4. Populyasiyadagi o'limni qaysi formula asosida topish mumkin?
5. O'simliklardagi monokarpik va polikarpik turlarga ta'rif bering.
6. Populyasiya sonining o'zgarishi haqida qaysi ko'rsatkichlarga qarab xulosa chiqarish mumkin?
7. Yashovchanlik jadvali nima uchun tuziladi?

Adabiyotlar

1. Gilyarov A.M. Populyasionnaya ekologiya. M., 1990. s. 53-60.
2. Rahmonqulov U. va boshqalar. Ekologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari. Jizzax, 2005. 34b.
3. To'xtayev A. Ekologiya. T., 1998. 87-94b.
4. Ergashev A. Umumiy ekologiya. T., 2003. 105-130b.
5. Yablokov A.V. Populyasionnaya biologiya. M., 1987. 303 s.
6. Chernova N.M., Былова A.M. Ekologiya. M., 1988. s.127-130
7. Chernova N.M. Laboratornyye praktikum po ekologii. M., 1985. 68s.

5- Mavzu: Yashovchanlik egri chizig'ini tuzish

Reja:

1. Yashovchanlik egri chizig'i haqida nazariy ma'lumotlar
2. Yashovchanlik egri chizig'ini tuzish
3. Mustaqil ish topshiriqlari
4. Testlar

Darsning maqsadi: Talabalarga yashovchanlik egri chizig'i haqida nazariy ma'lumotlar berish, populyasiyadagi o'limni yoshlar bo'yicha taqsimlanishini o'rganish va yashovchanlik egri chizig'ini tuzish ko'nikmalarini hosil qilish.

Dars o'tish vositalari: sinf doskasi, yashovchanlik egri chizig'iga oid plakatlar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, chizgich, ish daftari.

Dars o'tish usullari: dars takrorlash, suhbat va savol-javob, amaliy topshiriqni mustaqil bajarish hamda olingan natijalarni munozara qilish tarzida olib boriladi. Bunda talabalarning mustaqil, erkin fikrlash va fikrlarni bayon etishga o'rgatish uchun ularga mavzu bo'yicha savollar beriladi, talabalar yakka tartibda amaliy ishni mustaqil bajaradilar va natijalarni bayon qiladilar, natijalar o'qituvchi bilan birgalikda tahlil qilinadi, turli organizmlarning yashovchanlik egri chiziqlari solishtiriladi.

Darsning mazmuni:

5.1. Yashovchanlik egri chizig'i haqida nazariy ma'lumotlar


Agar individlar yashab qolishining yoshga bog'liqligini grafik asosida tasvirlasak yashovchanlik egri chizig'i hosil bo'ladi. Yashovchanlik egri chizig'i haqidagi tushunchani 1920- yillarda ekologiyaga R. Perl kiritgan va uni 3 ta asosiy xilini ajratib ko'rsatgan. Hozirgi vaqtda turli-tuman organizmlar uchun yashovchanlik egri chizig'i aniqlangan va bu ma'lumotlar R.Pearl fikrini tasdiqlaydi. Albatta bu uch xil egri chiziqlar o'zaro turli darajadagi oraliq holatlar bilan bog'langan.

I- tipdagi yashovchanlik egri chizigi shunday holatda hosil bo'ladiki, bunda hayotning katta qismida o'lim juda kam bo'ladi va keyin tez ko'tariladi. Barcha individlar qisqa vaqt ichida nobud bo'ladi. O'limning bunday taqsimlanishini drozofillalarda, kunlilarda va boshqa hasharotlarda kuzatish mumkin. Rivojlangan mamlakatlardagi odamning yashovchanlik egri chizig'i va yirik sut emizuvchilarning egri chizig'i ham I- tipga yaqin bo'ladi.

III- tip yashovchanlik egri chizig'ida individlarning yoppasiga o'lishi hayotning dastlabki davriga to'g'ri keladi. Hayotning keyingi davrlarida o'lim past darajada bo'ladi. Ko'pchilik plankton organizmlar, parazitlar, umuman, yuqori serpushlikka ega va nasli haqida qayg'urmaydigan barcha organizmlar uchun III- tipdagi egri chizik xosdir.

II- tipdagi yashovchanlik egri chizig'i hayot davrida o'lim yoshga bog'liq bo'lmagan holda, doimiy bo'lganda kuzatiladi. Barcha yoshlarda o'lim darajasi bir xil tarzda bo'ladi. Yoshga bog'liq bo'lmagan ehtimoldan yiroqroq bo'lsada, haqiqatda tabiatda II- tip egri chiziqqa ega organizmlar ko'p uchraydi. Qushlar, baliqlar, sudralib yuruvchilar, ko'p yillik o'tchil o'simliklarda bunday tipga ega organizmlar ko'p. Albatta, bunday holatlarda kuzatish hayotning eng boshlang'ich va nozik davri o'tgandan keyin boshlanadi. Masalan, qushlarda bunday kuzatishlar halqalash orqali, odatda, qushlar uchsidan uchib chiqish paytida o'tkaziladi. Demak, tuxumlar va dastlabki tuxumdan chiqqan qushchalarning o'limi hisobdan tushib qoladi.

Tabiatda real kuzatiladigan yashovchanlik egri chizig'i yuqori ko'rsatilgan asosiy tiplarning ma'lum darajadagi uyg'unligidan iborat bo'ladi. Masalan, yirik sut emizuvchilar uchun xos bo'lgan I-tip yashab qolish egri chizig'i har doim boshlanishida keskin pastga qarab tushadi. Bu tug'ilishdan keyingi qisqa davrda o'limning ancha yuqori bo'lishini ko'rsatadi. Hattoki odamlarning rivojlangan mamlakatlardagi populyasiyasida ham hayotning birinchi yilida o'lim yuqori bo'ladi.



Rasm 1. Yashovchanlik egri chizig'ining turli tiplari.

5.2. Yashovchanlik egri chizig'ini tuzish

Talabalar yuqoridagi nazariy ma'lumotlar bilan tanishib chiqadilar va yashovchanlik egri chizig'i haqida tushunchaga ega bo'ladilar. So'ngra 4-mashg'ulot davomida tuzilgan yashab qolish jadvalidagi ma'lumotlar asosida o'zlari tekshirayotgan populyasiya uchun yashovchanlik egri chizig'ini tuzadilar. Natijalar ish daftariga qayd qilinadi. Hosil bo'lgan yashovchanlik egri chizig'i tahlil qilinadi va xulosalar ish daftariga qayd qilinadi.

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Amaliyot darsida tuzilgan yashovchanlik egri chizig'iga asoslanib shu organizmning biologik va ekologik xususiyatlari haqida xulosalar qiling.
2. Yashovchanlik egri chizig'ining tiplarini tavsiflab bering.

3. Parazit organizmlarning yashovchanlik egri chizig'ini tahlil qiling.

Testlar

1. Yashovchanlik egri chizig'i haqidagi tushunchani qaysi olim fanga kiritgan?
A) Ch.Krebs V) Ch.Elton S) R.Perl D) R.Rid
2. Yashovchanlik egri chizig'ining nechta tipi farq qilinadi?
A) 2 V) 3 S) 4 D) 5
3. Serpusht va nasl haqida qayg'urmaydigan organizmlar uchun yashovchanlik egri chizig'ining qaysi tipi xos?
A) 2 V) 3 S) 4 D) 1
4. Uchinchi tip yashovchanlik egri chizig'i uchun quyidagilarning qaysi biri xos?
A) Hayotning dastlabki davrida individlarning asosiy qismi qiriladi, keyinchalik o'lim darajasi past bo'ladi
V) Hayotning dastlabki davrida o'lim darajasi juda past bo'ladi, hayotning oxirida individlarning yoppasiga o'limi kuzatiladi
S) O'lim barcha yoshlar bo'yicha bir xil taqsimlangan bo'ladi
D) Har doim o'lim tug'ilishdan katta bo'ladi
5. Ikkinchi tip yashovchanlik egri chizig'i uchun quyidagilarning qaysi biri xos?
A) Hayotning dastlabki davrida individlarning asosiy qismi qiriladi, keyinchalik o'lim darajasi past bo'ladi
V) Hayotning dastlabki davrida o'lim darajasi juda past bo'ladi, hayotning oxirida individlarning yoppasiga o'limi kuzatiladi
S) O'lim barcha yoshlar bo'yicha bir xil taqsimlangan bo'ladi
D) Har doim o'lim tug'ilishdan katta bo'ladi
6. Birinchi tip yashovchanlik egri chizig'i uchun quyidagilarning qaysi biri xos?
A) Hayotning dastlabki davrida individlarning asosiy qismi qiriladi, keyinchalik o'lim darajasi past bo'ladi
V) Hayotning dastlabki davrida o'lim darajasi juda past bo'ladi, hayotning oxirida individlarning yoppasiga o'limi kuzatiladi
S) O'lim barcha yoshlar bo'yicha bir xil taqsimlangan bo'ladi
D) Har doim o'lim tug'ilishdan katta bo'ladi
7. Qushlar, baliqlar, sudralib yuruvchilar, ko'p yillik o'tchil o'simliklarda yashovchanlik egri chizig'ining qaysi tipi kuzatiladi?
A) 2 V) 3 S) 4 D) 1

Sinov savollari

8. Yashovchanlik egri chizig'i nimani anglatadi?
9. Yashovchanlik egri chizig'i haqidagi tushunchani qaysi olim fanga kiritgan?
10. Yashovchanlik egri chizig'ining nechta tipi farq qilinadi?
11. Uchinchi tip yashovchanlik egri chizig'iga ta'rif bering.
12. Tabiatda kuzatiladigan real yashovchanlik egri chizig'i qanday bo'ladi?
13. Birinchi tip yashovchanlik egri chizig'iga ta'rif bering.
14. Odam populyasiyasi uchun yashovchanlik egri chizig'ining qaysi tipi xos?

Adabiyotlar

1. Gilyarov A.M. Populyatsionnaya ekologiya. M., 1990. s. 63-72.
2. Rahmonqulov U. va boshqalar. Ekologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari. Jizzax, 2005. 34b.
3. To'xtayev A. Ekologiya. T., 1998. 104-115b.
4. Ergashev A. Umumiy ekologiya. T., 2003. 135-158b.
5. Yablokov A.V. Populyatsionnaya biologiya. M., 1987. 303 s.

6. Chernova N.M., Былова А.М. Экология. М., 1988. с.127-130
7. Chernova N.M. Лабораторные практикум по экологии. М., 1985. 68с.
8. Шаров А.А. Принципы анализа взаимовоздействия факторов динамики численности насекомых. Журн. Общ. Биол. 1985. Т. 46, №5. с.590-595.

6-mavzu: Populyasiyada avlod yaratish tezligini aniqlash

Reja:

1. Populyasiya sonining o'sish tezligi va avlod yaratish tezligi haqida nazariy ma'lumotlar
2. Populyasiyada avlod yaratish tezligini aniqlash
3. Mustaqil ish topshiriqlari
4. Testlar

Darsning maqsadi: Talabalarga populyasiya sonining o'sish tezligi va avlod yaratish tezligi haqida nazariy ma'lumotlar berish, avlod yaratish tezligini aniqlash usulini o'rgatish.

Dars o'tish vositalari: sinf doskasi, o'sish tezligiga oid plakatlar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, mikrokalkulyator, ish daftari.

Dars o'tish usullari: dars takrorlash, suhbat va savol-javob, amaliy topshiriqni mustaqil bajarish hamda olingan natijalarni munozara qilish tarzida olib boriladi. Bunda talabalarning mustaqil, erkin fikrlash va fikrlarni bayon etishga o'rgatish uchun ularga mavzu bo'yicha savollar beriladi, talabalar yakka tartibda amaliy ishini mustaqil bajaradilar va natijalarni bayon qiladilar, natijalar o'qituvchi bilan birgalikda tahlil qilinadi, turli organizmlarning avlod yaratish tezligi solishtiriladi.

Darsning mazmuni:

6.1. Populyasiya sonining o'sish tezligi va avlod yaratish tezligi haqida nazariy ma'lumotlar

Populyasiya soni o'zgarishi haqida to'liq tasavvur hosil qilish va uning o'sish tezligini aniqlash uchun turli yoshdagi individlar orasida o'limning taqsimlanishini aniqlash bilan birga turli yoshdagi organizmlar o'rtasida tug'ilishning taqsimlanishi va qaysi yoshda organizmlar ko'payishga kirishishini bilish ham muhim. Shuning uchun yashab qolish jadvaliga qo'shimcha ustunlar kiritiladi.

Bu ustunlarning 1- siga individlar yoshi, 2- ustunga yashab qolgan individlar hisssasi - l_x (1 ta individ hisobiga), 3- ustunga shu yoshdagi individlardan tug'ilgan individlarning o'rtacha soni - b_x (absolyut tug'ilish), 4-ustunga solishtirma tug'ilish, ya'ni bitta individ hisobiga olingan tug'ilish - m_x , 5-ustunga yashab qolgan individlar hisssasi bilan ular o'rtacha serpushtligining ko'paytmasi - $l_x m_x$ ko'rsatiladi.

Oxirgi kattalik yig'indisi (jadval buyicha) populyasiyadagi avlod yaratish tezligini ifodalaydi, ya'ni

$$\sum l_x m_x = R_0 \quad R_0 - \text{avlod yaratishning sof tezligi.}$$

4-jadval

Hayvon populyasiyacida avlod yaratish tezligini hisoblash jadvali

Individlar yoshi, x	Yashab qolgan individlar hisssasi, l_x	X yoshda tug'ilgan individlar soni (absolyut tug'ilish), b_x	X yoshda tug'ilgan individlarning o'rtacha soni (solishtirma tug'ilish), m_x	Yashab qolgan individlar hisssasi bilan ular o'rtacha serpushtligining ko'paytmasi, $l_x m_x$
0	1	2	3	4

0				
1				
2				

Avlod yaratishning sof tezligi (R_0) bir avlodda populyasiya soni necha marta oshganligini ko'rsatadi. Agar $R_0 = 1$ bo'lsa, populyasiya turg'un, ya'ni uning soni doimiy bo'ladi, chunki bo'lajak avlod oldingi avlod o'rnini to'la qoplaydi. R_0 kattalik organizmning turiga va yashash sharoitiga qarab o'zgarib turadi. Masalan, qulay laboratoriya sharoitida dala sichqoni uchun $R_0 = 5,9$ bo'lsa, sholi uzunburuniniki - 113,48 ga teng. Ya'ni, kulay sharoitda dala sichkoni populyasiyasi bir avlod davomida 6 marta ko'paysa, sholi uzunburuniniki 113 marta ko'payadi.

6.2. Populyasiyada avlod yaratish tezligini aniqlash

Talabalar yuqoridagi nazariy ma'lumotlar bilan tanishib chiqadilar va avlod yaratish tezligi haqida tushunchaga ega bo'ladilar. So'ngra 4-jadvalni amaliyot daftariga chizib olishadi hamda uni to'ldirishadi. Jadvalning 1- va 2-ustunlari oldingi mashg'ulotda tuzilgan yashab qolish jadvalidagi ma'lumotlar bilan to'ldiriladi. 3-ustun ilovadan tanlab olingan variantda keltirilgan ma'lumotlar bilan to'ldiriladi. 4-ustunni to'ldirish uchun solishtirma tug'ilish hisoblab chiqiladi.

Solishtirma tug'ilish quyidagi formula bilan topiladi:

$$m_x = \frac{b_x}{n_x}$$

bunda m_x - x yoshdagi solishtirma tug'ilish; b_x - x yoshdagi absolyut tug'ilish; n_x - x yoshdagi individlar soni.

Endi har bir yosh uchun yashab qolgan individlar hisssasi bilan ular o'rtacha serpushtligining (solishtirma tug'ilishning) ko'paytmasi ($l_x m_x$) hisoblab chiqiladi va jadvalning 5-ustuni to'ldiriladi. 5-ustundagi ma'lumotlarning yig'indisi hisoblanib, avlod yaratish tezligining qiymati topiladi. Natijalar asosida populyasiyaning o'sishi haqida tegishli xulosalar qilinadi. Olingan ma'lumotlar boshqa talabalar natijalari bilan solishtiriladi va turli populyasiyalarning o'sish tezligidagi farqlar o'qituvchi yordamida tahlil qilinadi. Bajarilgan barcha amallar va xulosalar amaliyot daftariga qayd qilinadi.

6.3. Mustaqil ish topshiriqlari

1. Populyasiya sonining eksponensial o'sishini tushintiring.
2. Tabiatda eksponensial o'sish mavjudligi haqida xulosalar qiling.
3. Avlod yaratish sof tezligining mohiyatini tushintiring.

6.4. Testlar

1. Eksponensial o'sishning matematik formulalari birinchi bo'lib qaysi olim tomonidan keltirilgan?
A) T.Maltus V) A.Lotka S) L.Slobotkin D) P.Ferxyulst
2. Eksponensial o'sishning asosiy sharti qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Populyasiyaga hyech qanday cheklovchi omil ta'sir etmasligi kerak
V) Populyasiya sonining o'sish tezligi o'zgaras qiymatga ega bo'lishi kerak
S) Populyasiya zichligi oshishi bilan o'sish tezligi chiziqli kamayishi kerak
D) Populyasiyada avlod yaratishning sof tezligi 1 dan kichik qiymatga ega bo'lishi kerak
3. Agar avlod yaratishning sof tezligi $R_0=3$ bo'lsa, ...
A) Populyasiya soni har yili uch marta ko'payadi
V) Populyasiya soni bitta avloddan keyin uch marta oshadi
S) Populyasiya soni har soatda uchta individga oshadi
D) Populyasiyadagi individlar har yili uch marta avlod beradi
4. Populyasiya turg'un holatda bo'lishi, ya'ni yaratilgan avlod oldingi avlodni to'la qoplashi uchun avlod yaratish tezligining qiymati qanday bo'lishi kerak?
A) $R_0=10$ V) $R_0=1$ S) $R_0=2$ D) $R_0=100$

5. Eksponensial o'sayotgan populyasiyaning asosiy xususiyatlarini ko'rsating.
1) o'sish tezligi populyasiya zichligiga bog'liq bo'ladi; 2) o'sish tezligi o'zgarmas bo'ladi; 3) yosh tuzilmada yosh individlar hisssasi katta bo'ladi; 4) yosh tuzilmada turli yoshdagi individlar nisbati doimiy bo'ladi; 5) yosh tuzilmada qari individlar hisssasi katta bo'ladi
A) 1,3 V) 2,4 S) 1,5 D) 2,3

Sinov savollari

1. Avlod yaratishning sof tezligi nimani anglatadi?
2. Eksponensial o'sishning matematik formulalarini yozib bering.
3. Eksponensial o'sayotgan populyasiya qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak?
4. Populyasiyada solishtirma tug'ilish qanday topiladi?
5. Populyasiya sonining tabiatda kuzatiladigan real o'sishi eksponensial o'sishga mos keladimi?
6. Qanday sharoitda populyasiya soni eksponensial qonuniyat asosida o'sadi?

Adabiyotlar

1. Gilyarov A.M. Populyasionnaya ekologiya. M., 1990. s. 72-75.
2. Rahmonqulov U. va boshqalar. Ekologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari. Jizzax, 2005. 34b.
3. To'xtayev A. Ekologiya. T., 1998. 114-119b.
4. Ergashev A. Umumiy ekologiya. T., 2003. 158-161b.
5. Yablokov A.V. Populyasionnaya biologiya. M., 1987. 303 s.
6. Chernova N.M., Bylova A.M. Ekologiya. M., 1988. s.132-138
7. Chernova N.M. Laboratornyye praktikum po ekologii. M., 1985. 68s.
8. Sharov A.A. Prinsipi analiza vzaimodeystviy umix faktorov dinamiki chislennosti nasekomyx. Journ. Obsh. Biol. 1985. T. 46, №5. s.590-595.

7-mavzu: Populyasiyada individlar sonining o'sish tezligini aniqlash

Reja:

5. Populyasiya sonining o'sish tezligi haqida nazariy ma'lumotlar
6. Populyasiya sonining o'sish tezligini aniqlash
7. Mustaqil ish topshiriqlari
8. Testlar

Darsning maqsadi: Talabalarga populyasiyada real kuzatiladigan o'sish tezligini haqida nazariy ma'lumotlar berish hamda o'sish tezligi va avlod umrini aniqlash ko'nikmalarini hosil qilish.

Dars o'tish vositalari: sinf doskasi, o'sish tezligiga oid plakatlar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, mikrokalkulyator, ish daftari.

Dars o'tish usullari: dars takrorlash, suhbat va savol-javob, amaliy topshiriqni mustaqil bajarish hamda olingan natijalarni munozara qilish tarzida olib boriladi. Bunda talabalarning mustaqil, erkin fikrlash va fikrlarni bayon etishga o'rgatish uchun ularga mavzu bo'yicha savollar beriladi, talabalar yakka tartibda amaliy ishni mustaqil bajaradilar va natijalarni bayon qiladilar, natijalar o'qituvchi bilan birgalikda tahlil qilinadi, xulosalar ish daftari qayd qilinadi.

Darsning mazmuni:

7.1. Populyasiya sonining o'sish tezligi haqida nazariy ma'lumotlar

- 7.2. Umr uzoqligi turlicha bo'lgan turlarni taqqoslaganda R_0 (avlod yaratishning sof tezligi) kattalikdan foydalanish noqulayroqdir. Shuning uchun bunday holatlarda r kattalik, ya'ni populyasiya o'sishining tezligi ishlatiladi.

Bu ikki kattalik orasidagi bog'liqlikni quyidagicha topamiz. Faraz qilaylik, bir avlod umriga teng T vaqt oralig'ida populyasiya eksponensial o'sadi. Bu holda T vaqt oralig'ining

oxirida populyasiya soni $N_t = N_0 e^{rt}$ bo'ladi. Bundan $\frac{N_t}{N_0} = e^{rt}$ bo'ladi.

(7.1)

$\frac{N_t}{N_0}$ - ikki ketma ket keladigan avlodlarning nisbatidir yoki, boshqacha aytganda R_0 kattalikning xuddi o'zidir.

Shunday ekan bu formulani $R_0 = e^{rT}$ ko'rinishda yozib, undan r ni topib olamiz.

$$r = \frac{\ln R_0}{T} \quad (7.2)$$

T - ya'ni bitta avlod umri qanchalik aniq bo'lsa, r - populyasiya usish tezligini hisoblashning yuqoridagi usuli shuncha aniq bo'ladi. Ba'zi hollarda bir avlod umrining uzoqligi oson aniqlanadi. Masalan, ba'zi losossimon baliqlar, ko'pchilik hasharotlar va ba'zi o'simliklar umrining oxirida bir marta ko'payadi. Bular uchun bir avlod umri tuxum qo'yilgan vaqtdan to ko'paygungacha bo'lgan vaqtdir. Lekin ko'pgina hayvonlar va o'simliklarda ko'payish davri ancha cho'ziladi, hamda ko'payish mumkin bo'lgan yoshlarda tug'ilgan individlarning o'rtacha soni o'zgarib turadi. Bunday holatlarda avlod umri uzoqligi quyidagicha topiladi.

$$T = \frac{\sum_{x=1}^{\infty} l_x m_x x}{\sum_{x=1}^{\infty} l_x m_x} = \frac{\sum_{x=1}^{\infty} l_x m_x x}{R_0} \quad (7.3)$$

Populyasiya sonining o'sishi avlod umri uzoqligiga teskari proporsional ekan ($r = \frac{\ln R_0}{T}$), organizmlar qanchalik tez ko'payishiga kirishsa, populyasiyaning o'sish tezligi shuncha yuqori bo'ladi.

7.2. Populyasiyada o'sish tezligini aniqlash

Talabalar yuqorida keltirilgan nazariy ma'lumotlar bilan tanishib chiqadilar. Sungra oldingi mashg'ulot davomida olingan natijalar asosida (4-jadval) avlod umrini hisoblab chiqishadi. Buning uchun 4-jadvalga qo'shimcha yani bir ustun kiritiladi va bu ustunga birinchi va beshinchi ustunlar qiymatlarining ko'paytmasi, ya'ni $l_x m_x x$ qiymatlarini hisoblab, joylashtiriladi (5-jadval).

5-jadval

Hayvon populyasiyacida avlod yaratish tezligini hisoblash jadvali

Individlar yoshi, x	Yashab qolgan individlar hissasi, l_x	x yoshda tug'ilgan individlar soni (absolyut tug'ilish), b_x	x yoshda tug'ilgan individlarning o'rtacha soni (solishtirma tug'ilish), m_x	Yashab qolgan individlar hissasi bilan ular o'rtacha serpushtligi-ning ko'paytmasi, $l_x m_x$	$l_x m_x x$
1	2	3	4	5	6
0					
1					
2					
3					

				$\sum_{x=1}^{\infty} l_x m_x =$	$\sum_{x=1}^{\infty} l_x m_x x$ =
--	--	--	--	---------------------------------	--------------------------------------

Olingan natijalar asosida $\sum_{x=1}^{\infty} l_x m_x x$ isoblab topiladi. So'ngra 7.3 formuladan foydalanib avlod umrining o'rtacha qiymati topiladi. Avlod umri aniqlangandan keyin, 7.2 formula asosida populyasiyaning o'sish tezligi (r) aniqlanadi. Bunda avlod yaratish sof tezligining qiymati oldingi mashg'ulot natijalaridan olinadi. Uning logarifmik qiymatini topishda to'rt xonali matematik jadvaldan foydalaniladi. Natijalar amaliyot davtariga qayd qilinadi.

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Populyasiya soni o'sishi bilan avlod umri o'rtasidagi bog'liqlik haqida xulosalar qiling.
2. Populyasiya soni o'sishining eksponensial va logistik modellarini tushintiring.
3. Quyidagi ma'lumotlardan foydalanib ikkita odam populyasiyasining avlod yaratish tezligi va o'sish tezligini solishtiring:

Faraz qilaylik, 2 ta odam populyasiyasi eksponensial o'smokda. Birinchi populyasiyada har bir ayolning o'rtacha 5 ta farzandi bor va bu farzandlar 18- 22 yoshlarda tug'iladi. Aytaylik, ikkinchi populyasiyada har bir ayolning 10 ta bolasi bor va bu bolalar 30-39 yosh oralig'ida tug'iladi. Qizlar bolalarning yarmini tashkil kiladi. Demak, birinchi populyasiyada 1 ta ayolga 2,5 ta, ikkinchi populyasiyada 1 ayolga 5 ta qiz to'g'ri keladi.

Testlar

1. Populyasiya soni o'sishining logistik modeli birinchi marotaba kim tomonidan taklif qilingan?
A) T.Maltus V) A.Lotka S) L.Slobotkin D) P.Ferxyulst
2. Logistik o'sishning asosiy sharti qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Populyasiyaga hyech qanday cheklovchi omil ta'sir etmasligi kerak
V) Populyasiya sonining o'sish tezligi o'zgaras qiymatga ega bo'lishi kerak
S) Populyasiya zichligi oshishi bilan o'sish tezligi chiziqli kamayishi kerak
D) Populyasiyada avlod yaratishning sof tezligi 1 dan kichik qiymatga ega bo'lishi kerak
3. Avlod umri qancha qisqa bo'lsa, ...
A) populyasiya shuncha tez o'sadi
V) populyasiya shuncha sekin o'sadi
S) populyasiya turg'un bo'ladi
D) o'sish tezligi avlod umriga bog'liq emas
4. Quyida keltirilgan tenglamalarning qaysi biri logistik tenglamani ifodalaydi?
A) $\frac{dN}{dt} = r_{\max} N \left(\frac{K - N}{K} \right)$ V) $r = \frac{\ln R_0}{T}$ S) $\frac{N_t}{N_0} = e^{rT}$ D) $r = \frac{\Delta N}{N \Delta t}$
5. Populyasiya soni o'sishining logistik modeli qaysi olimlar tomonidan qayta kashf qilingan?
A) T.Maltus, Ch.Darvin V) A.Lotka, P.Ferxyulst
S) L.Slobotkin, F.Gauze D) R.Perl, A.Rid
11. Tabiiy tanlanishning ikki tipi (r- va K – tanlanish) haqidagi konsepsiyani qaysi olimlar taklif qilishgan?
A) R.Mak-Artur, E.Uilson V) A.Lotka, P.Ferxyulst
S) L.Slobotkin, F.Gauze D) R.Perl, A.Rid
12. K – turlarga xos xususiyatlarni ko'rsating
1) yuqori serpushtlikka ega; 2) raqobatbardosh; 3) suksessiyaning dastlabki bosqichlarida ustunlik qiladi; 4) shakllangan, turning yashab qolishi biotik munosabatlar bilan

belgilanadigan jamoalarda ustunlik qiladi; 5) hayoti qisqa va jinsiy yetilish tez sodir bo'ladi; 6) populyasiya sonining boshqarilishi populyasiya ichidagi mukammal mexanizmlarga asoslangan.

A) 1,2,3 V) 4,5,6 S) 1,3,5 D) 2,4,6

13. r – turlarga xos xususiyatlarni ko'rsating

1) yuqori serpushtlikka ega; 2) raqobatbardosh; 3) suksessiyaning dastlabki bosqichlarida ustunlik qiladi; 4) shakllangan, turning yashab qolishi biotik munosabatlar bilan belgilanadigan jamoalarda ustunlik qiladi; 5) hayoti qisqa va jinsiy yetilish tez sodir bo'ladi; 6) populyasiya sonining boshqarilishi populyasiya ichidagi mukammal mexanizmlarga asoslangan.

A) 1,2,3 V) 4,5,6 S) 1,3,5 D) 2,4,6

10. O'simliklarda hayot strategiyalarini qaysi olimlar ishlab chiqqan

A) R.Mak-Artur, E.Uilson V) L.Ramenskiy, Dj.Graym
S) L.Slobotkin, F.Gauze D) R.Perl, A.Rid

Sinov savollari

10. Populyasiyada o'sish tezligi avlod umri uzoqligiga bog'liqmi?
11. Logistik o'sishning matematik formulalarini yozib bering.
12. Eksponensial o'sish to'xtashining qanday holatlari farq qilinadi?
13. Chegaraviy zichlik deganda nimani tushunasiz?
14. Populyasiya sonining o'sishi logistik egri chiziqqa mos kelishi uchun populyasiya qanday xususiyatga ega bo'lishi kerak?
15. Ekologo-senotik strategiyalar haqida nimalarni bilasiz?
16. L.Ramenskiy o'simliklarni hayot strategiyasiga qarab qanday guruhlariga ajratgan?

Adabiyotlar

1. Gilyarov A.M. Populyasionnaya ekologiya. M., 1990. s. 76-79.
2. Rahmonqulov U. va boshqalar. Ekologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari. Jizzax, 2005. 34b.
3. To'xtayev A. Ekologiya. T., 1998. 119-121b.
4. Ergashev A. Umumiy ekologiya. T., 3003. 158-161b.
5. Yablokov A.V. Populyasionnaya biologiya. M., 1987. 303 s.
6. Chernova N.M., Bylova A.M. Ekologiya. M., 1988. s.132-138
7. Chernova N.M. Laboratornyye praktikum po ekologii. M., 1985. 68s.

Ilovalar

Amaliy mashg'ulotlarda yashab qolish jadvalini tuzish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar.

1-variant

Hasharot qisqa hayot sikliga ega bo'lib, 10 hafta umr ko'radi. Bu populyasiyani tahlil qilish davomida quyidagi natijalarga erishildi:

Individlar hafta, x	Har bir yoshdagi individlar soni, n_x	Har bir yoshda o'lgan individlar soni, d_x	Har bir yoshda tug'ilgan indi-vidlar soni, b_x
0	800	500	0
1	300	150	0
2	150	40	0

3	110	20	0
4	90	15	40
5	75	15	220
6	60	10	540
7	50	15	820
8	35	15	550
9	20	18	130
10	2	2	0

2-variant

Odam populyasiyasini yosh tuzilmasi bo'yicha tahlil qilish natijasida olingan ma'lumotlar.

Individlar yoshi, yil, $\underline{x}$	Har bir yoshdagi individlar soni, n_x	Har bir yoshda o'lgan individlar soni, d_x	Har bir yoshda tug'ilgan indi-vidlar soni, b_x
0-1	1000	120	0
2-10	880	90	0
11-20	790	20	60
21-30	770	12	800
31-40	758	50	350
41-50	708	78	0
51-60	630	120	0
61-70	510	420	0
71-80	90	86	0
81-90	4	4	0

3-variant

Qisqichbaqa populyasiyasini 10 yil davomida kuzatish natijasida olingan ma'lumotlar

Individlar yoshi, yil, $\underline{x}$	Har bir yoshdagi individlar soni, n_x	Har bir yoshda o'lgan individlar soni, d_x	Har bir yoshda tug'ilgan indi-vidlar soni, b_x
0	142	80	0
1	62	28	0
2	34	14	0
3	20	4	12
4	16	4	48
5	12	4	56
6	8	4	34
7	4	2	5
8	2	2	0
9	0	0	0

4-variant

O'rtacha 40 yil umr ko'radigan sut emizuvchi hayvon populyasiyasini o'rganish natijasida olingan ma'lumotlar

Individlar yoshi, yil, $\underline{x}$	Har bir yoshdagi individlar soni, n_x	Har bir yoshda o'lgan individlar soni, d_x	Har bir yoshda tug'ilgan indi-vidlar soni, b_x
--	---	---	--

0-1	800	150	0
2-5	650	55	10
6-10	595	75	340
11-15	520	50	315
16-20	470	43	256
21-25	427	220	160
26-30	227	197	80
31-35	21	12	0
36-40	9	9	0

5-variant

O'rtacha 10 oy atrofida umr ko'radigan va yiliga bitta avlod berib rivojlanadigan hasharot populyasiyasini tekshirish natijasida olingan ma'lumotlar

Individlar yoshi, oy, $\underline{x}$	Har bir yoshdagi individlar soni, n_x	Har bir yoshda o'lgan individlar soni, d_x	Har bir yoshda tug'ilgan indi-vidlar soni, b_x
0	1200	50	0
1	1150	65	0
2	1095	40	0
3	1055	55	0
4	1000	60	20
5	940	56	630
6	884	50	780
7	834	300	820
8	534	320	100
9	214	214	0

6-variant

O'rtacha 10 yil umr ko'radigan kemiruvchi hayvon populyasiyasini o'rganish natijasida olingan ma'lumotlar

Individlar yoshi, yil, $\underline{x}$	Har bir yoshdagi individlar soni, n_x	Har bir yoshda o'lgan individlar soni, d_x	Har bir yoshda tug'ilgan indi-vidlar soni, b_x
0	880	65	0
1	815	50	0
2	765	55	0
3	715	70	20
4	645	65	220
5	580	75	420
6	505	80	510
7	425	110	340
8	315	225	10
9	90	90	0

7-variant

Parazit chuvalchang populyasiyasini o'rganish natijasida olingan ma'lumotlar (Bu chuvalchang 50 oy (4 yil) atrofida umr ko'radi)

Individlar yoshi, oy,	Har bir yoshdagi	Har bir yoshda o'lgan	Har bir yoshda
------------------------------	------------------	-----------------------	----------------

$\underline{x}$	individlal soni, n_x	individlal soni, d_x	tug'ilgan indi-vidlar soni, b_x
0-5	1200	850	0
6-10	350	290	0
11-15	60	25	0
16-20	35	8	0
21-25	27	4	240
26-30	23	4	2000
31-35	19	7	2590
36-40	12	5	2440
41-45	7	3	1950
46-50	4	4	120

8-variant

Qush populyasiyasini 10 yil davomida kuzatish natijasida olingan ma'lumotlar

Individlal yoshi, yil, $\underline{x}$	Har bir yoshdagi individlal soni, n_x	Har bir yoshda o'lgan individlal soni, d_x	Har bir yoshda tug'ilgan indi-vidlar soni, b_x
0	365	20	0
1	345	25	0
2	320	30	10
3	290	20	20
4	270	25	140
5	245	35	220
6	210	20	80
7	190	15	65
8	175	20	23
9	155	95	12
10	60	60	0

9-variant

O'rtacha 20 yil umr ko'radigan baliq populyasiyasi yosh tuzilmasini tahlil qilish natijasida olingan ma'lumotlar

Individlal yoshi, yil, $\underline{x}$	Har bir yoshdagi individlal soni, n_x	Har bir yoshda o'lgan individlal soni, d_x	Har bir yoshda tug'ilgan indi-vidlar soni, b_x
0-2	640	70	0
3-4	570	70	0
5-6	500	65	20
7-8	435	60	280
9-10	375	70	375
11-12	305	75	320
13-14	230	62	245
15-16	168	58	230
17-18	110	65	210
19-20	45	45	80

10-variant

10 yil atrofida umr ko'radigan plangton organizm populyasiyasini o'rganish natijasida olingan ma'lumotlar

Individlar yoshi, yil, $\underline{x}$	Har bir yoshdagi individlar soni, n_x	Har bir yoshda o'lgan individlar soni, d_x	Har bir yoshda tug'ilgan indi-vidlar soni, b_x
0	1120	640	0
1	480	260	0
2	220	140	56
3	80	20	228
4	60	12	320
5	48	8	310
6	40	12	280
7	28	13	250
8	15	8	140
9	7	7	20

10.ТАРҚАТМА МАТЕРИАЛЛАР

(реферат мавзулари, адабиётлар рўйхати, баҳолаш мезонлари, хорижий манбалар)

1. Гуломов М.И. Ҳозирги замон экологияси. - Бухоро: 2009.
2. Egamberdiev R. Ekologiya.-Toshkent: Noshir, 2010.
3. Турсунов Х.Т., Рахимова Т.У. Экология. - Тошкент.: Чинор ЕНК, 2006
4. Шилов И.А. Экология.- Высшая школа, 2003.
5. Акимов Т.А., Хаскин В.В. Экология, - М.: ЮНИТИ, 2003.
6. Передельский Л.В., Коробкин В.И., Приходченко О.Е. Экология.-М.: Проспект, 2007.
7. Бобоназаров Ғ. Популяциялар экологиясидан маърузалар. Қарши: «Насаф», 2003.
8. Ҳалимов Ф.З., Ниязова О.Б. Популяциялар экологияси фанидан маърузалар матни. 2004.
9. Ниязова О.Б. Популяциялар экологияси. Ўқув - услубий мажмуа-2011 йил. 140 бет.
10. Ҳалимов Ф.З. Популяциялар экологияси фанидан амалий машғулотлар. Услубий қўлланма. Самарқанд, 2008.

3.2. Қўшимча адабиётлар

1. Эргашев А. Умумий экология. Тошкент. Ўқитувчи, 2003.
2. Эргашев А. Эргашев Т. Экология биосфера ва табиатни муҳофаза қилиш.- Тошкент: Янги аср авлоди, 2005.

3.3. Электрон ресурслар

1. <http://www.Environment.ru>.
2. <http://www.Ecologye.ru>.
3. <http://www.Envirion.com>.
4. <http://www.Ecolog.com>.
5. <http://www.clin.procl.Com>.

”Populyatsiya ekologiyasi” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezonlari

“Populyatsiya ekologiyasi” fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** - talabani fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollektivum, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

- **oraliq nazorat (ON)** - semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabani nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

- **yakuniy nazorat (YaN)** - semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

«Populyatsiya ekologiyasi» fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Ya.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-35 ball va O.N.-35 ball qilib taqsimlanadi.

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik.

- Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

- Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

- Talabaning fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi:

$$R = \frac{V * O'}{100}$$

- bu yerda: V- semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda); O' -fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

- Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

- Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo'yicha 55bal va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

- Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalariga muvofiq to'plagan bal'lari yig'indisiga teng.

- ON** va **YaN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YaN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

- JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha,

so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

- Talabaniy semestrda **JN** va **ON** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzidor deb hisoblanadi.

- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

- Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

- Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalar ON dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	maks	
		1-ON	
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining vuritilishi va to'liqligi.	15	0-15
2	Talabalarning mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishi va o'zlashtirish.	10	0-10
3	Og'zaki savol-javoblar, kollokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo'yicha	10	0-10
Jami ON ballari		35	0-35

Talabalar JN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	JN	
		maks	
	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlarining yuritilishi va holati	15	0-15
	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi.	10	0-10
	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar	10	0-10
Jami JN ballari		35	0-35

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik "Yozma ish" variantlari asosida o'tkaziladi.

Agar yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo'lib fan bo'yicha yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi.

	Ko'rsatkichlar	YaN ballari	
		maks	O'zgarish oralig'i
1	Fan bo'yicha yakuniy yozma ish nazorati	6	0-6
2	Fan bo'yicha yakuniy test nazorati	24	0-24
	Jami	30	0-30

Yakuniy nazoratda “Yozma ish”larni baholash mezonlari

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshirilganda, sinov ko‘p variantli usulda o‘tkaziladi. Har bir variant 5 ta nazariy savoldan iborat. Nazariy savollar fan bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar asosida tuzilgan bo‘lib, fanning barcha mavzularini o‘z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0-6 ball oralig‘ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to‘plashi mumkin.

Yozma sinov bo‘yicha umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo‘yilgan o‘zlashtirish ballari qo‘shiladi va yig‘indi talabani yakuniy nazorat bo‘yicha o‘zlashtirish bali hisoblanadi.

11.МУСТАҚИЛ ИШ мавзулари ва уни бажариш бўйича услубий тавсиялар

№	Mavzu nomi	soat	Adabiyot sahifasi
1.	Populyasiyalar soni va zichligini aniqlash usullari.	2	1 (40-50); 2 (250-257).
2.	Populyasiyaning jins tuzilmasi	2	1(32-9); 2(53-5);3(96-112); 4(10-6)
3.	Populyasiyaning yosh tuzilmasi	2	1(32-9); 2(53-5);3(96-112); 4(10-6)
4.	Populyasiyaning joy tuzilmasi	2	1(32-9); 2(53-5);3(96-112); 4(10-6)
5.	Hayvonlar populyasiyasida maydonga oid munosabatlar	2	1(61-74)
6.	Cheklovchi omillar		1(61-74)
7.	Populyasiyaning dinamik ko‘rsatkichlari		4(99-119)
8.	Populyasiyada tug‘ilish	2	4(99-119)
9.	Populyasiyada o‘lim va uning yoshlar bo‘yicha taqsimlanishi	2	4(99-119)
10.	Populyasiya sonining o‘zgarishi	2	4(99-119)
11.	O‘shishning logistik va eksponensial modellari.	2	1(74-83) 4(99-119)
12.	Populyasiya dinamikasining mavsumiy xususiyatlari.	2	1(74-83) 4(99-119)
13.	Hayot strategiyalari	2	1(74-83)
14.	Populyasiya sonining boshqarilishi.	2	1 (74-83); 4 (99-119).
15.	Modifikasiyalovchi va boshqarvchi omillar	2	1(74-83) 4(99-119)
16.	Populyasiya sonining zichlikka bog‘liq boshqarilishi.	2	1(74-83) 4(99-119)
17.	Populyasiyalarning o‘zaro ta‘siri.	2	1(83-105)
18.	Populyasiya dinamikasining asosiy tiplari.	2	1(74-83)
	Jami:	36	

12.КУРС ИШЛАРИ мавзулари ва уларни бажариш бўйича тавсиялар

1. Популяциялар сони ва зичлигини аниқлаш усуллари;
2. Популяциянинг жинс тузилмаси;
3. Популяцияда туғилиш;
4. Популяциянинг жой тузилмаси;
5. Ҳайвонлар популяциясида майдонга оид муносабатлар;
- 6.Чекловчи омиллар;
- 7.Популяциянинг динамик кўрсаткичлари;
- 8.Популяцияда туғилиш;
- 9.Популяцияда ўлим ва унинг ёшлар бўйича тақсимланиши;
- 10.Популяция сонининг ўзгариши;
- 11.Ўсишнинг логистик ва экспоненциал моделлари;
- 12.Популяция динамикасининг мавсумий хусусиятлари;
- 13.Ҳаёт стратегиялари;
- 14.Популяция сонининг бошқарилиши;
- 15.Модификацияловчи ва бошқарвчи омиллар;
- 16.Популяция сонининг зичликка боғлиқ бошқарилиши;
- 17.Популяцияларнинг ўзаро таъсири;
- 18.Популяция динамикасининг асосий типлари;

13. БМИ мавзулари банки ва уни бажариш бўйича услубий тавсиялар

1. Май қўнғизи популяциясини Зарафшон қўриқхонасида ўрганиш.
2. Ёмғир чувалчангининг популяциясини ўрганиш.
3. Агроценозларда тупроқ макрофаунасининг ёшга доир популяциясини ўрганиш.
4. Табиий биоценозларда қуруқлик моллюскаларининг популяцияларини ўрганиш.
5. Мевали боғлар популяциясини ёш тузилмасини аниқлаш.
6. Агроценозларда жой ва ёш тузилмасини аниқлаш.
7. Ҳашаротларнинг жинс ва ёш тузилмасини ўрганиш.

14. ГЛЮССАРИЙ

Populyasiya	Ma'lum maydonni egallagan va biologik sikllarning umumiy maromiga ega bo'lgan bir tur individlarining guruhi. Populyasiya muhit o'zgarishiga o'z genofondini qayta qurish orqali javob beradigan evolyusiya jarayonining elementar birligi bo'lib hisoblanadi.
Tabiiy ekotizim	Tabiiy muhitning obyektiv tarzda mavjud bo'lgan qismi, u hududiy chegarasiga ega bo'lib, unda tirik va notirik elementlar yagona birlik sifatida o'zaro ta'sir ko'rsatadi va bir-biri bilan modda va energiya almashinish bo'yicha bog'langan bo'ladi.
Turlar xilma-xilligini saqlash	Populyasion turlar tarkibini muhofaza qilishga, turlar sonini ular mavjud bo'lishini ta'minlaydigan darajada saqlab turishga qaratilgan tadbirlar majmui (u siyosiy va diniy bo'lishi mumkin).
Atrof muhit	Tabiiy muhit, tabiiy va tabiiy – antropogen, hamda antropogen obyektlar komponentlarining majmuasi.
Biosfera	Yerning tirik organizmlar yashaydigan tashqi qobig'i. U tirik moddalarni (o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar), organomineral mahsulotlarni (torf, neft, toshkumir) biokos moddalarni (tirik organizmlar yordamida hosil qilinadi), fazoviy moddalarni va turoq qatlamini o'z ichiga oladi. Biosferaning chegarasini muhitning tirik organizmlar mavjudligini cheklaydigan omillar aniqlaydi. Biosfera to'g'risidagi qonunni akademik V.I. Vernadskiy yaratgan va rivojlantirgan.
Landshaft	Tabiiy hududiy majmua, u yerda turli tabiiy komponentlar (relyef, tog' jinslari, iqlim, suv tuproq, hayvonot va o'simliklar dunyosi) o'zaro bog'langan va o'zaro munosabatda bo'lib joyning ma'lum bir turini hosil qiladi, insonning xo'jalik faoliyati natijasida hosil bo'lgan landshaftlar antropogen landshaft deyiladi.
Noqulay sharoitdan qochish	Yashab qolish usuli. Ancha qulay yashash joyini izlash faolligida namoyon bo'ladi. Bu faqat makonda harakatlanishga qodir bo'lgan harakatchan hayvonlar uchun xosdir. Masalan, ba'zi bir hayvonlar uya va in qurib, unda o'ziga ancha qulay bo'lgan mikroiklim yaratadi, qushlar uzoqlarga uchib ketadi.
Cheklovchi omil	Muhitning organizm chidamlilik chegarasidan chiquvchi omili. Ularga harorat, yorug'lik, havo, tuproq va boshqalar kiradi.
Organizm	Har qanday tirik mavjudot notirik tabiatdan ma'lum xossalarining to'plami bilan (xujayra tuzilishi va moddalar almashinishi) ajralib turadi, harakatlanish, o'sish, rivojlanish va ko'payish xususiyatlariga ega. Shuningdek organizmga irsiylanish va moslanish xususiyatlari ham xosdir.
O'rmon	Atrof tabiiy muhitning muxim tarkibiy qismi. U asosiy kislorod manbai bo'lib hisoblanadi, flora va faunaning genofondini saqlaydi, iqlimni yumshatadi, tuproqni suv va shamol eroziyasidan ko'chish va boshqa noxush jarayonlardan ximoya qiladi; ular egallagan hududda suv rejimini boshqaradi; insonning ruhiyatiga yaxshi ta'sir ko'rsatuvchi sanitariya – gigiyenik sharoit yaratadi. Shuningdek o'rmon yog'och manbai sifatida bebaho tabiiy resurslardir. Rossiya eng katta yog'och zaxirasiga ega: undagi o'rmonlarning umumiy maydoni butun dunyo o'rmon resurslarining qismiga teng.

Tur hayotining fiziologik davomiyligi	Organizmning faqat fiziologik imkoniyatlari bilan belgilanadigan hayot davomiyligi. U nazariy jihatdan mumkin bo'ladi.
Insoniyat	Yer yuzida yashayotgan barcha odamlardan tashkil topgan populyasion tizim. Bu populyasiyaning o'sishi tabiiy resurslar va hayot sharoiti bilan, genetik va ijtimoiy –iqtisodiy jarayonlar bilan chegaralanadi. Aholining o'sish dinamikasini maxsus fan – demografiya o'rganadi. U o'tmishda odamlar sonining o'zgarishi sabablarini aniqlaydi va kelajakda bu o'zgarishlarning qanday borishini bashorat qiladi. Rossiyada keyingi 10-15 yilda demografik holat kritik holga kelib qoldi: o'lim tug'ilishga nisbatan 2 marta oshib ketgan.
Hayvonot dunyosi	Ma'lum bir hududda tarqalgan va tabiiy erkin eshash holatida bo'lgan hamma yovvoyi hayvonlar turlari va individlarning majmuasi. Hayvonlarning asosiy ekologik vazifasi moddalar va energiyaning biotik aylanmasida ishtirok etishi bo'lib, bu tabiiy ekotizimlarning eng muhim komponenti va qimmatbaho biologik resursidir.
Qizil kitoblar	O'simliklar hayvonlar va boshqa organizmlarning yo'qolib ketayotgan, noyob va yo'qolib ketish xavfli ostida turgan turlarining ro'yxatini o'z ichiga olgan kitob. Qizil kitoblarning bir necha variantlari mavjud. Bular halqaro, federal va viloyat qizil kitoblaridir.

15. ILOVA

15.1. Ishchi o'quv rejada ko'rsatilgan darsliklar, o'quv qo'llamalar

1. G'ulomov M.I. Hozirgi zamon ekologiyasi. - Buxoro: 2009.
2. Egamberdiev R. Ekologiya.-Toshkent: Noshir, 2010.
3. Tursunov X.T., Raximova T.U. Ekologiya. - Toshkent.: Chinor YeNK, 2006
4. Shilov I.A. Ekologiya.- Vysshaya shkola, 2003.
5. Akimova T.A., Xaskin V.V. Ekologiya, - M.: YuNITI, 2003.
6. Peredel'skiy L.V., Korobkin V.I., Prikhodchenko O.Ye. Ekologiya.-M.: Prospekt, 2007.
7. Ergashev A. Umumiy ekologiya. Toshkent. O'qituvchi, 2003.
8. Ergashev A. Ergashev T. Ekologiya biosfera va tabiatni muhofaza qilish.- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.

15.2. Uslubiy qo'llamalar, uslubiy ko'rsatmalar

9. Bobonazarov G'. Populyasiyalar ekologiyasidan ma'ruzalar. Qarshi: «Nasaf», 2003.
10. Halimov F.Z., Niyazova O.B. Populyasiyalar ekologiyasi fanidan ma'ruzalar matni. 2004.
11. Niyazova O.B. Populyasiyalar ekologiyasi. O'quv - uslubiy majmua-2011 yil. 140 bet.
12. Halimov F.Z. Populyasiyalar ekologiyasi fanidan Amaliy mashg'ulotlar. Uslubiy qo'llanma. Samarqand, 2008.

15.3. Elektron darsliklar va boshqa elektron o'quv materiallari

1. <http://www.Environment.ru>.
2. <http://www.Ecologye.ru>.
3. <http://www.Envirion.com>.
4. <http://www.Ecolog.com>.
5. <http://www.clin.procl.Com>.